

13. O`QUV MATERIALLARI (MA`RUZA MATNI)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

**PEDAGOGIK MAHORAT
FANIDAN MA`RUZA MATNLARI**

Tuzuvchi:

D.T.Usmonova

Navoiy-2016

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas'uliyat yuklangan.

Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak? Mustaqillikdan keyin ushbu muammo ko'plab olimlarning, ziyo ahlining, hatto ota-onalarning diqqat-e'tiborida bo'ldi. O'qituvchilar uchun zamonaviy, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan metodik va o'quv qo'llanmalari, darsliklar yaratila boshlandi. Lekin bu muammo bo'yicha izlanishlar, ilmiy-tadqiqotlar hozirgi kunda ham davom etmoqda. Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

O'qituvchi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda, uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

“Pedagogik mahorat” fanining asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mahorat, ijodkorlik ko'nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyati, pedagogik texnika malakalarini shakllantirish, o'qituvchilik, tarbiyachilik mahoratining dastlabki malakalarini tarkib toptirishdan iboratdir. “Pedagogik mahorat” fani kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg'or pedagogik tajribalarni mustaqil o'zlashtirish sirlarini o'rgatadi. Talabalar o'qish va o'qitish jarayonida diqqatni taqsimlash, bilim, ko'nikma va malakalar, psixik holatlarini boshqara olish va pedagogik texnika madaniyatini mustaqil o'zlashtirish malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratadilar.

1-MAVZU: PEDAGOGIK MAHORAT HAQIDA TUSHUNCHA, UNING O`QITUVCHI FAOLIYATIDA TUTGAN O`RNI

Reja:

1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha. Uning mohiyati
2. **Pedagogik mahorat fanining vazifalari va asosiy tarkibiy qismlari**
3. Pedagogik mahoratni egallash vositalari
4. **O`qituvchi kasbining tarixi taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o`rni**

Tayanch tushunchalar:

“Pedagogik mahorat ” fani; pedagogik faoliyat; pedagogik jarayonning harakat vositasi; komponent; o`qituvchining kasbiy tayyorligi; tarkibiy qismlar; “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun; “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”; prinsiplar; tarbiyalanganlik darajasi; zamonaviy axborot texnologiyalari; murabbiy; mustaqil o`qib o`rganish; guruhli va ommaviy tadbirlar; “Yil o`qituvchisi”; “Yil maktabi”; “Axloqi Muhsiniy”; “Ilg`or o`qituvchi”; “Ijodkor o`qituvchi”; “novator o`qituvchi”; kasbiy sifatlar tizimi; “Yashil daftar hikmati”; o`qituvchi va tarbiyachi.

1.O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan har bir Qarorda barkamol avlod tarbiyasi va ularning kasbiy mahoratini avvalo ta`lim muassasalarida oshirib borishga jiddiy e`tibor qaratilmoqda. Xususan 2010 yilning “Barkamol avlod yili” deb e`lon qilinishi ham pedagoglar va tarbiyachilar zimmasiga ulkan mas`uliyatlar yukladi. Jumladan, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi to`g`risidagi Qarorida “Mamlakatimizda sog`lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o`z ijodiy va intellektual salohiyatini ro`yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to`liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo`yicha keng ko`lamli aniq yo`naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish” muhim vazifa sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni bekor qilish ko`st amalga oshirilishi uchun bugungi kunda avvalo, bo`lajak o`qituvchilarning saviyasini va bilimni uzluksiz takomillashtirib borishga mustahkam zamin yaratilishi kerak. Oliy pedagogik ta`lim muassasalarida ushbu muammolarning yechimini topishda “Pedagogik mahorat” fanini chuqur o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «Pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, “Pedagogik ensiklopediya”da ta`rif quyidagicha izohlangan: “O`z kasbining mohir ustasi bo`lgan, yuksak darajada madaniyatli, o`z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o`qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis”. Ushbu ta`rifning mohiyatidan kelib chiqib o`qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko`rsatkichi.

2. O`z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.

3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.

4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.

2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.

3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.


4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash

Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart-sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy-metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish lozim.

Shunga asosan, «Pedagogik mahorat» fani, mahoratli o'qituvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi, o'qituvchilar va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlarini, mohirligini o'rgatuvchi va uni takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar berib boruvchi fan bo'lib, o'qituvchilarda pedagogik mahoratning mohiyat mazmunini, hozirgi zamon talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning yo'llarini, vositalarini, shakllarini o'rganadi.

Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi **pedagogik faoliyatlar** tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zahirida takomillashib boradi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir. Bo'lajak o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyati jarayonida faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim:



1-chizma.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo'lib, o'qituvchilarning faoliyat mezonini belgilab beradi. o'qituvchilarning faoliyati **pedagogik jarayonning harakat vositasidir**. Pedagogik jarayonning obyektlari bo'lmish tarbiyalanuvchi insonga, o'quvchi va o'quvchilar guruhiga hamda alohida o'quvchiga, pedagogik jarayonning subyektlari ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoa mas'uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta'lim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar. O'qituvchining pedagogik faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi, mehnat malakasini, ya'ni egallagan bilimlarini o'zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog'lik qo'llay bilishi bilan belgilanadi.

O'qituvchilarning pedagogik faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan har xil ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.

Mazkur fanning mazmunidan kasbga doir topshiriq va vazifalarni yechish uchun o'quv — tarbiya jarayonini boshqarish, unga rahbarlik qilishda pedagogik-psixologik ta'limot nuqtai-nazaridan yondashish, ta'lim-tarbiyani milliy an'analarimiz ruhida zamonaviy metodlar asosida modellashtirish, o'quv-tarbiyaviy jarayonda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish uchun o'qituvchi mahoratining zarurligi haqidagi ma'lumotlar va ularni takomillashtirish tizimlari o'rin olgan.

Shunga ko'ra, «Pedagogik mahorat» fani kasbga oid bilim va qobiliyatlarni o'qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to'g'risida ma'lumotlar berib boradi.

Bu maqsad bo'lajak o'qituvchilarning quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar.
2. Pedagogik mahorat fanining pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachilik mahorati, ta'lim jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, tarbiya texnologiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to'g'risidagi bilimlar tizimini egallaydilar.
3. Bo'lajak o'qituvchilar milliy urf-odat va an'analarimizda va O'rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o'zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar.
4. Egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko'nikma va malakalar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida har bir bo'lajak o'qituvchi o'zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi.
5. O'quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so'nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o'zlashtiradilar.
6. O'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar.
7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to'g'risida o'qituvchilar uzluksiz ma'lumotlarni o'rganib boradilar.
8. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalanish asosida o'z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.


Bu maqsad va vazifalarning hal etilishi o'qituvchilar va tarbiyachilarni zamon bilan hamnafas bo'lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'ra olishga o'rgatadi. Har bir o'qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o'z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o'rgatadi, hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo'lishni tarbiyalaydi.

Xo'sh pedagogik mahoratning o'zi nima? Unga hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan quyidagicha ta'rif beriladi:

*Pedagogik mahorat — o'qituvchilarning **shaxsiy** (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va **kasbiy** (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon ho'ladi.*

Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi pedagogik va psixologik bilimlarga ega bolishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o'zida tarkib toptirishi lozim. I.P.Radchenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: "pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z

kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyasi, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi". Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, quyidagi to'rtta komponent pedagogik mahoratning **asosiy tashkil** etuvchilari hisoblanadi:



2-chizma.

O'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- 1) O'qituvchining shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi.
- 2) O'qituvchining ruhiy-psixologik tayyorgarligi.
- 3) O'qituvchining ijtimoiy-pedagogik va ilmiy-nazariy jihatdan tayyorgarligi.
- 4) O'qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi.

Yana ta'kidlash joizki, pedagogik mahorat o'qituvchilar hamda tarbiyachilar shaxsiy va kasbiy sifatlarining yig'indisi bo'lib, o'qituvchi mahoratini shakllantirishni ta'minlovchi omillarni, pedagogik-psixologik, metodik bilimlarni doimiy egallab borishi lozim. Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi **omillar** quyidagilar:

- ixtisoslik bo'yicha o'quv predmetini, zamon, ilm-fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;
- ta'lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning faoliyatini obyektiv nazorat qilishi va baholashi;
- ta'lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o'z faoliyatini tashkil etishi;
- o'quv-tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik-psixologik va metodik ma'lumotlarga ega bo'lishi;
- fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanishni bilishi;

➤ jamoani «ko`ra bilish», o`quvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ularning hayot faoliyatlarida uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va hamdard bo`la olish, o`z vaqtida ular fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta`sir ko`rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo`lishi;

➤ o`z shaxsiy sifatlari (nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo) ni takomillashtirish malakasiga ega bo`lishi.

PEDAGOGIK MAHORAT FANINING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI

1. **Nutq malakasi va texnikasini mukammal o`zlashtirish.**
2. **Tushunarli, ta`sirchan fikr va his-tuyg`ularni so`zda aniq ifodalash.**
3. **Mimik va pantomimik harakatlardan o`z o`rnida foydalanish.**
4. **Ma`noli va ochiq chehrali nigoh bilan qarash.**
5. **Hissiy psixikva tasodifiy holatlarda o`z his-tuyg`ularini jilovlay olish.**
6. **Turli vaziyatlarda tarbiyachiga xos bo`lgan ijodiy kayfiyatni boshqarish.**
7. **Kulgi va tabassumda samimiylilikni e`tirof etish.**
8. **O`quvchilar bilan doimo yaxshi kayfiyat va rag`batlantiruvchi munosabatda bo`lish.**
9. **Savodli va sof adabiy tilda so`zlash.**
10. **Aniq imo-ishoralarni o`z o`rnida ishlata olish.**
11. **Ijodiy pedagogik qobiliyatini qo`llay bilish.**
12. **Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalana olish.**
13. **Muosharat odobiga doimo rioya qilish.**

Pedagogik mahoratni egallashda guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o`zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to`g`riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni o`z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo`llarini topish imkoniyati mavjud.

Pedagogik mahoratga ega bo`lish ta`lim-tarbiya samaradorligini ta`minlash garovi bo`libgina qolmay, ayni vaqtda o`qituvchilarning jamoada, ijtimoiy muhitda obro`-e`tiborini oshiradi, o`quvchilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo`lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo`l qo`yilgan yoki qo`yilayotgan xatolardan holi bo`lish, o`quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi paytda O`zbekiston Respublikasida yosh o`qituvchilarning kasbiy mahorati, bilim va ko`nikmalarini muntazam oshirib borish maqsadida qizg`in faoliyat olib borilmoqda. Xususan, O`zbekiston xalq ta`limi vazirligi hamda Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan “Ta`lim sektorini rivojlantirish dasturi” loyihasi doirasida respublika hududlarida masofadan

o'qitishning "Ta'lim-resurs" Markazlari tashkil etilgan. Ushbu faoliyat natijasida yosh o'qituvchilarning xorijiy mamlakatlarda kasbiy malakalarini oshirish imkoniyati tug'ildi. Maktablarga yosh o'qituvchilarni jalb etish va ularga har tomonlama amaliy yordam berish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashish maqsadida 2009-yildan boshlab "Respublika yosh o'qituvchilar assotsiatsiyasi" o'z faoliyatini boshladi.

Mustaqillikka erishgach, Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan

1-oktyabr-O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Mamlakatimizda an'anaviy ravishda "Yilning eng yaxshi pedagogi" Respublika ko'rik-tanlovi o'tkazilib kelinmoqda. Umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlar orasidan ilg'or va tashabbuskor o'qituvchilar aniqlanib rag'batlantirilishi, yosh o'qituvchilarda o'z kasbiga nisbatan hurmat va ehtirom uyg'otadi.

2006-yildan boshlab esa, "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik tanlovi o'tkazilib kelinmoqda. "Yil maktabi"-Respublika ko'rik-tanlovi o'qituvchilarga jainoa asosida ta'lim muassasasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni targ'ib etish uchun sharoit yaratmoqda.

Shuningdek, mustaqillik yillarida respublika xalq ta'limi tizimidagi 3425 nafar o'qituvchi va murabbiylar pedagogik faoliyatda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritganlari va fidokorona mehnatlari uchun turli davlat mukofotlari va unvonlari bilan taqdirlandilar.

Barkamol avlodga ta'lim va tarbiya berishda cheksiz matonatlari uchun ustoz o'qituvchilardan olti nafari "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan, 302 nafari "O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi" va 319 nafari "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi" faxriy unvonlariga sazovor boiganlar, 101 nafari "El-yurt hunnati", 21 nafari "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan, 1229 nafari "Shuhrat" medali bilan taqdirlanganlar.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da alohida ta'kidlangan milliy model O'zbekiston Respublikasining milliy-hududiy xususiyatlarini inobatga olish hamda ilg'or fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida tayyorlangan kadr (mutaxassis)-barkamol inson va yetuk mutaxassis qiyofasini o'zida to'laqonli aks ettiruvchi namunadir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalarini amalga oshirish jarayonida asosan o'qituvchi kadrlarning roli nihoyatda beqiyos. XXI asr bolasini o'qitish va tarbiyalash, ularni barkamol inson va yetuk malakali mutaxassis kadrlar darajasiga etkazish vazifasini faqat yuksak tajribaga ega XXI asr o'qituvchisigina uddalay oladi.

Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uning o'qituvchi shaxsi va kasbi to'g'risida mukammal ma'lumot va tushunchalarga ega ekanligidadir. O'qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi bilan birga, kasbiy, ya'ni ixtisoslik fazilatlariga ham ega bo'lishi lozimligini tajriba ko'rsatmoqda. Buni yuqorida kasb axloqi to'g'risida bildirilgan fikrlar misolida ham ko'rdik.

Shaxsiy sifatlar tizimida: milliy mafkuraviy onglilik, milliy odoblilik, farosat, nozik didlik, o'z kasbiga sadoqat va vijdoniylik, tashabbuskorlik,

bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qat'iylik, har qanday vaziyatda o'zini idora qila olish, millatlararo muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylik, topqirlik, kelajakka ishonch, xushmuomalalilik kabi fazilatlariga ega bo'lishi kerak.

Kasbiy sifatlar tizimida: pedagogik ziyraklik, O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li mohiyati, beshta tamoyil rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlarini bilishi, milliy tarbiya mohiyati va mazmunini chuqur anglash, chuqur ilmiy nazariy salohiyati, pedagogik ijod, o'z fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini mukammal bilish, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, mamlakatimiz Prezidentining ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o'zbek xalqining an'analari, qadriyatlari, urf-odatlarini yaxshi anglashi, siyosat, tarix, madaniyat, ma'naviyat, adabiyot va san'at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o'lkashunoslik, texnikaga oid ma'lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish va hokazo.

Boiajak o'qituvchilarda yuqorida qayd qilingan milliy pedagogikaning faoliyatga tayyorlovchi shaxsiy va kasbiy sifatlariga ega qilish lozim. Bu hol kasbiy mahorat egasi bo'lish va kadrlar tayyorlashning milliy dastur talablarini bajarishga yordam beradi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:

1. "Pedagogik mahorat" ga ta'rif bering?
2. Pedagogik mahoratni shakllantiruvchi omillar?
3. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi deganda nimani tushunasiz?
4. "Pedagogik mahorat" fanining vazifalari nimalardan iborat?
5. "Pedagogik mahorat" fanining asosiy tarkibiy qismlari?
6. Ta'lim sohasidagi Davlat siyosatining asosiy prinsiplari?
7. Pedagogik mahoratni egallash vositalari?
8. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari haqida gapiring?
9. Hozirgi zamon o'qituvchisi qanday ijobiy sifatlarga ega bo'lishi lozim?
10. O'qituvchi "Sog'lom avlod uchun kurashchi" iborasiga o'z fikr mulohazangizni bildiring?
11. Pedagog kasbiga ta'rif bering

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq", 1997, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent; "Sharq", 1997,31-61 betlar.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat",2009.- 176 b.
4. Abdullayev H. Yashil daftar hikmati. -Toshkent, o'qituvchi, 2000.
5. Barkamol avlod orzusi.-T.: "O'zbekiston milliy ens iklope diyasi", 2000 y.
6. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: "Sharq", 1997.-63 b.
7. "Barkamol avlod yili" davlat dasturi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Adolat" gazetasi, 2010 yil, 29 yanvar.
8. Pedagogik mahorat: Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun

darslik / A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: 2011. 424 b.

2-MAVZU: PEDAGOGIK FIKR TARIXI VA MAKTAB AMALIYOTIDA O'QITUVCHI MAHORATI MASALALARI

Reja:

- 1. Eng qadimgi davrlardan eramizning XII asrlarigacha o'qituvchilik faoliyati to'g'risida ijtimoiy qarashlar.**
- 2. Yunon favlasuflari asarlarida o'qituvchilarning kasbiy mahorati haqidagi g'oyalar**
- 3. Yevropa olimlari o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish to'g'risida**
- 4. Hozirgi davrda o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish**

Tayanch tushunchalar:

Mudarrislar; murabbiylar; ulamolar; miloddan avvalgi VII — VI asrlar; ibtidoiy jamoa; zardushtiylik dini; “Avesto”; kohin muallimlari; Axura Mazda; uyg'onish davri; suxandon; “Guliston” asari; mutaasib johil mudarrislar; “Qobusnoma”; “qattiq” va “yumshoq” usullar; iqtidor; an'naviy didaktik qarashlar; “Axloqi Muhsiniy ” asari; ustozlik shartlari; javonmardlik tariqati; antik davr; akademiya; Sparta; Afina; notiqlik san'ati; pedagogik-psixologik takt; jargon; varvarizm; vulgarizm; konselyarizm; burch va mas'uliyat.

Ta'lim va tarbiya tarixini o'rganar ekanmiz, uning rivojlanishi, yillar davomida shakllanib borishi ustoz va shogird faoliyatiga bog'liqligining guvohi bo'lamiz. Eng qadimgi davrlardayoq mudarrislar (o'qituvchilar) ta'lim va tarbiyaning samarali ta'sir usullarini qidirib topib, hayotga tatbiq eta boshlaganlar. Buning natijasida eramizdan oldingi davrlardayoq ta'lim-tarbiyaning samaradorligiga erishilishi uchun o'qituvchiga bo'lgan talablar kuchayib bordi. O'qituvchi mahoratini takomillashtirish yuzasidan turli g'oyalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo'la boshladi.

Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda O'rta Osiyoda ishlab chiqarish kuchlarining ortib borishi bilan ijtimoiy hayotda ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Turk va fors tilida so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida o'zaro madaniy aloqalar yuzaga keldi. Yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlashda asrlar davomida qo'llanib kelingan, yerli millatning o'ziga xos urf-odati va an'analariga mos ravishda tatbiq etilgan ta'lim va tarbiyaning noyob usul va vositalari, tadbir va shakllari vujudga kela boshladi. Hali maktab bo'lmagan, pedagogik fikr tarkib topmagan davrdayoq qabila a'zolari bolalarda mehnatsevarlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehr-shafqat, insonparvarlik sifatlarini tarkib toptirish sohasida aql idrok bilan faoliyat olib borishgan. Ularning ta'lim-tarbiya usullari yillar davomida hayot tajribasi va sinovlaridan o'tib, sayqallanib o'sha davrning olijanob mevasi sifatida bizning davrimizgacha etib keldi.

VII asrlarga kelib O'rta Osiyoda ilm-fan va madaniyat sohasidagi rivojlanish bevosita ta'lim va tarbiya beruvchi mudarrislarining qizg'in faoliyati hamda ularga qo'yiladigan talablarning nihoyatda rang-barangligi va xilma-xilligi bilan diqqatga sazovordir. Ilk ibtidoiy jamoa va quldorlik davrlaridan boshlab, bolalarning ta'lim va tarbiyasiga javobgar ulamolar hamda mudarrislar nasihat, tushuntirish,

ragʻbatlantirish, maqtash, namuna koʻrsatish, tanbeh berish, taʻqirlash, majbur qilish, poʻpisa qilish, qoʻrqitish kabi usullardan foydalanganlar. Biroq mudarrislarining oʻzi bolaga taʻlim-tarbiya berish uchun mukammal amaliy va nazariy bilimga ega boʻlishi kerak edi. Shu sababli mudarrislar savodli madrasa toliblari orasidan tanlangan va maʼlum muddat tayyorgarlikdan oʻtishgan.

Markaziy Osiyoning Xorazm zaminida shakllangan eng qadimiy va “Oʻtmishdagi dinlarning eng kuchlilaridan boʻlgan” (Yu.A.Rappoport) zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da bolalar taʻlim- tarbiyasiga oid qiziqarli maʼlumotlar berilgan. “Avesto”da taʻkidlanadiki, bilim va tarbiya hayotning eng muhim tirtagi boʻlib hisoblanadi. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yozishni oʻrganish asosida bilim olishi kerak, soʻngra esa odob-axloqi bilan eng yuksak pogʻonaga koʻtarilsin. Kohin muallimlari oqsoqollar Kengashi tomonidan tanlanib, qatʼiy belgilangan qoidalar asosida yoshlarga taʻlim va tarbiya berishgan. “Avesto”da bolalarni oʻqitish va tarbiyalash qoidalari quyidagi tartibda tavsiya etilgan:

- a) diniy va axloqiy tarbiya;
- b) jismoniy tarbiya;
- v) oʻqish va yozishga oʻrgatish.

Maxsus tayyorgarlikdan oʻtgan muallimlar bolalarni yetti yoshidan boshlab, diniy tarbiyaga asoslangan maktablarga jalb qilishgan. Maktablarda “muqaddas yashil koʻylak” kiydirish marosimi oʻtkazilgach, kohin muallimlar bolalarni “Avesto”da keltirilgan madadkor kuchlarni ulugʻlovchi ezgulik va yaxshilik maʼbudasiga sigʻintirishgan. Duolar quyidagi soʻzlar bilan boshlangan: “Men zardushtiylik diniga sodiq qolishga vaʼda beraman, men yaxshi fikrlar, yaxshi soʻzlar, yaxshi amallarga ishonaman...”. Marosimdan soʻng muallimlar bolalarga sovgʻalar ulashishgan. Muallimlar mashgʻulotlar jarayonida bolalarga nisbatan jismoniy jazodan koʻra koʻproq oʻz diniga ishonch va eʼtiqodni, dunyodagi barcha yaxshilik va ezguliklarning bunyodkori, ilohiy Axuramazdaga sigʻinishni, odamlar boshiga yovuzlik va yomonliklarni yogʻdiruvchi Axrimandan esa nafratlanish hissini tarbiyalar edilar. Bolalarning sogʻlom va baquvvat boʻlib oʻsishi bilan birga oʻz dinining barcha rasm-rusumlarini toʻliq bajarishiga, oʻrganilayotgan fanlarni puxta bilishiga, axloqiy pokligiga, mehnatsevarlik, rostgoʻylik, saxovatlilik kabi fazilatlarini egallashiga kohin muallimlari javobgar edilar. “Avesto”da yer, suv va havo muqaddas deb eʼlon qilinib, muhitni iflos qilgan va uni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi urish bilan jazolanardi. Tabiatni asrash, uni obod qilish yoshlik davrlaridanoq ular ongiga singdirilgan. Zardushtiylik dini taʻlimotida ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlar majmuasi ezgulik va yaxshilik, jaholat va yomonlik, taʻlim va tarbiya haqidagi gʻoyalari bilan ulkan pedagogik taʻsir kuchiga ega boʻlgan. Bunda tarbiyachi muallimlarning oʻz kasbiga sadoqatini alohida taʻkidlab oʻtish lozim. Zardushtiylik dinida iymon uchta tayanchga asoslanadi: fikrning sofliqi, soʻzning sobitligi, amallarning insoniyliqi. Muallimlar taʻlim va tarbiyada yoshlar ongiga “bergan soʻzning uddasidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiq va shartnomalarga qatʼiy amal qilish, qarzni oʻz vaqtida toʻlash, aldamchilik va xiyonatdan xoli boʻlish, halol mehnat, yaratuvchilik, yovuzlikni qalbdan chiqarib tashlash, iymon- eʼtiqodli boʻlish, miskinlarga yordam berish,

yaxshi niyat, yaxshi soʻz va yaxshi amallarga qoʻl urish” kabi insoniy tuygʻulami singdirish uchun qizgʻin mehnat qilganlar. Xullas, “Avesto” dunyodagi eng qadimgi din-zardushtiylik taʼlimotining axloqiy falsafasi sifatida eʼtirof etiladi.

Buyuk allomalarimiz oʻz asarlarida mudarrislar kasbining nozikligini, masʼuliyatli ekanligini va murakkabligini, shu bilan birga sharaflilik ekanligini, yoritib, muallimning mahorati, ularga qoʻyilgan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, shogirdlar bilan munosabatga kirishish mahorati, muomalasi toʻgʻrisida oʻz mulohazalarini bildirganlar. Uygʻonish davrining yetuk namoyondalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Unsurul Maoliy Kaykovus, Abul-Qosim Umar Az-Zamaxshariy, Shayx Saʼdiy Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz al-Koshifiy kabilarning ijodiy merosi pedagogik tafakkurni shakllantirishda boʻlajak murabbiylarga muhim manba boʻlib hisoblanadi. Ular avlodlardan avlodlarga oʻtib, oʻz qimmatini yoʻqotmagan mudarrisni, tarbiyachilarni tayyorlash tajribalarini umumlashtirib, boyitib borishgan. Zero, insoniyat kelajagi va kurrai zaminning gullab-yashnashi faqat taʼlim va tarbiyaga bogʻliq ekanligini buyuk mutafakkirlar chuqur his qilishgan. Shuning uchun muallimlar kuchi va gʻayrati bilan barkamol avlodni tarbiyalash ularning eng yorqin orzusi boʻlib kelgan. Oʻzbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashab oʻtgan allomalarning bu borada oʻz oʻrni va hurmati bor. Barkamol avlodni tarbiyalash, bunda muallimning oʻrni toʻgʻrisida allomalarimiz ijodiy merosidan juda koʻp misollar keltirishimiz mumkin.

Abu Nasr Forobiy (873-930) Oʻrta Osiyo xalqlari madaniyatini rivojlantirishga ulkan hissa qoʻshgan olimdir. Forobiy arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqani muhim tarbiyaviy fanlar deb atadi. Ushbu fanlarni oʻrgatuvchi oʻqituvchini har tomonlama mukammal bilimga va tajribaga ega boʻlishi lozimligini taʼkidlaydi. Forobiy taʼlimotiga koʻra, taʼlim-tarbiya jarayoni tajribali va bilimli oʻqituvchilar tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turilishi va maʼlum maqsadlarga yoʻnaltirilgan boʻlishi lozim, chunki “har bir bola oʻzicha narsa va hodisalarni bila olmaydi hamda baxtga erisholmaydi. Unga buning uchun oʻqituvchi lozim”. Taʼlim va tarbiya berishda “...ustoz shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari koʻngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm, shogird dilida ustozga nisbatan nafrat uygʻotadi, bordiyu ustoz juda ham yumshoq koʻngilli boʻlsa, shogird uni mensimay qoʻyadi va u beradigan bilimdan sovib qoladi. Shuning uchun oʻqituvchi bolalarning feʼl-atvoriga qarab taʼlim-tarbiyaning “qattiq” yoki “yumshoq” usullaridan foydalanishi mumkin” deydi. Bunda ustoz mudarrisga quyidagi talablarni qoʻyadi:

-Birinch*i* yoʻl: tarbiyalanuvchilar oʻqish va oʻrganishga ishtiyoqmand boʻlsalar taʼlim-tarbiya jarayonida mudarris tomonidan yumshoq usullar qoʻllaniladi. Bunda u qanoatbaxsh soʻzlardan foydalanadi, chorlovchi ilhomlantiruvchi gaplar aytib oʻquvchida koʻnikma va malakalarni vujudga keltiradi, natijada oʻquvchining iqtidori uygʻonib, gʻayrat-shijoati bilan bilim olishga, kasb egallashga intiladi;

-Ikkinchi *yoʻl*: tarbiyalanuvchilar oʻzboshimcha, itoatsiz boʻlsalar, mudarris tomonidan qattiq, yaʼni majburlovchi usullar qoʻllaniladi. Bu asosan gapga koʻnmovchi baʼzi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan

ishlatiladi. Ushbu usul natijasida o'quvchi nazariy bilimlarni o'rganishga astoydil kirishadi, fazilati yaxshi bo'lib, kasb- hunarlarni va juz'iy san'atlarni egallashga intiladi. Maqsad ularni fazilat egasi qilish va kasb-hunar ahillariga aylantirishdir (o'sha kitob, 198-bet).

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048) Sharq Uyg'onish davrining qomusiy olimlaridan biri, tarbiyashunos olim, umumjahon tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan buyuk aql-zakovat sohibidir. Alloma asarlarida ta'lim-tarbiya birligi va axloq masalalariga yetuk tarbiyashunos olim sifatida yondashgan, chunonchi, "Minerologiya", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" kabi asarlarida pedagogika va psixologiyaga oid noyob fikr-mulohazalarini va ma'rifiy-didaktik qarashlarini bayon etdi. Bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash jarayonida dunyoviy fanlarni bir-biri bilan bog'lab turli mavzularda mulohazalar yuritishni ta'kidlab, "Bizning maqsadimiz o'quvchilarni toliqtirib qo'ymaslikdir, bir mavzuni qayta-qayta takrorlab o'qib berish o'quvchini zeriktiradi, xotirasini susaytiradi. Agar o'quvchi bir mavzudan boshqa bir yangi mavzuga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar- o'tmas, boshqa bir bog' boshlanadi. Bola ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa bolaga rohat bag'ishlaydi, deb behuda aytilmagan", deydi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'z asarlarida inson kamolotida uch narsa- irsiyat, muhit, tarbiya muhim rol o'ynashini ta'kidlab, bunda mudarrislar bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarib, shu uch holatga javobgarlik hissi bilan yondashishini uqtiradi va mudarrislariga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

1. bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish.
2. berilayotgan bilimning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish.
3. ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish.
4. o'quvchining xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini nazorat qilish.
5. bolalarni fanga qiziqтира olish.
6. berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish.
7. bilimlarni o'quvchilarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda tushunarli olib borish.
8. har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish.

Unsurul Ma'aliy Kayqovusning (milodiy 1021-1022 yillarda tug'ilgan) «Qobusnoma» asarida ilk bor notiqlik san'ati maktablarining Sharq mamlakatlarida rivojlanishi tarixi bayon etilgan hamda o'sha davr notiqchilari haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu asar hozirgi global o'zgarishlar davrida insonni ma'naviy jihatdan kamolotga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur noyob asar ko'plab Sharq va G'arb tillariga tarjima qilinib shuhrat qozongan.

Kayqovus o'z asarida har bir yoshni aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasida turmush tajribasi muhim ahamiyat kasb etishini aytadi. Bolalarni faqat yaxshi mudarris tarbiyani hayot bilan bog'lagan holda kamolotga yetkazish mumkin deb,

uning yo'llarini va usullarini bayon etgan. Kitobda javonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim- tarbiya berish nazariyasi ko'zda tutilgan:

1. Kayqovus bilim haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulq-odob qoidolari haqida.
4. Jismoniy yetuklik haqida.

Kayqovus mudarrislarining axloqli ekanligini birinchi belgisi, uning suxandonligida deb biladi va "Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir" deydi. Suhandonni shogirdlarga notiqlikda rost so'zlash kerakligini ta'kidlaydi.

U so'zlarni to'rt xilga bo'ladi:

- birinchisi-bilinmaydi va aytilmaydi,
- ikkinchisi aytiladigan va biladigan,
- uchinchisi-ham bilinadi, ham aytishga, bilishga zaruriyati yo'q, ammo aytsa ham bo'ladi.

- To'rtinchisi-biladigan va zaruriyat bo'lmasa aytilmaydigani.

Eng yaxshisi to'rtinchisi, ya'ni biladigan va aytilmaydigani, deydi. So'zlaganda andishalik bo'lish, sovuq so'zlik bo'lmaslik, kamtarlik, maqtanmaslik, birovning so'zini diqqat bilan eshitish odoblarini ta'kidlab o'tadi.

Odamlarni ham to'rt xilga bo'ladi: birinchi xil kishilar ko'p narsani biladi va yana bilgisi kelaveradi. Bular olim va fozillar bo'lib, ularga bo'ysunish kerak, deydi. Ikkinchisi, bilmagan narsani bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar bo'lib, bunday kishilarni o'qitish va o'rgatish kerak. Uchinchisi, bilganini ham bilmaydi, go'yo uyquda yashagandek, ularni uyg'otish kerak. To'rtinchisi, bilmaydi va bilmaganini ham tan olmaydi. Bular johil kishilar bo'lib, ularni o'qitish befoйда, ulardan qochish kerak, deydi.

Alisher Navoiy (1441-1501) ijodida muallimlarga munosabat alohida berilgan. Uning fikricha, har bir inson o'ziga ta'lim va tarbiya bergan ustozini, o'qituvchisini umrbod hurmat qilishi va uni e'zozlashi kerak. O'qituvchi mehnatini har qanday xazina bilan o'lchab bo'lmaydi:

Haq yo'linda kim senga, bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado, oning haqqin yuz ganj ila.

Alisher Navoiy yosh avlod tarbiyasini har qanday tasodifiy murabbiyga ishonib topshirib bo'lmasligini aytib, o'qituvchiga yuksak talablarni qo'yadi. Bolani tarbiyalash va unga bilim berish, uning qobiliyatini o'stirish uchun nihoyatda savodli o'qituvchi va mahoratli tarbiyachi bo'lish kerak. Alisher Navoiy o'qituvchini faqat dars beruvchi, bilim beruvchi deb bilmaydi, balki mahoratli tarbiyachi bo'lishi lozim deb ilm va odobni birga olib borilishini, bu ikki jarayon hech qachon ajralmasligini ta'kidlab o'tadi.

Antik davrdagi maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. «Akademiya» so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi V asrda Afina yaqinidagi Akadema so'zi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim- tarbiya berish uchun tashkil etiluvchi maskanlar

ham shunday nom bilan atala boshlangan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga ta'lim-tarbiya berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan edi.

Ular notiqlik san'atining yetuk namoyondalari bo'lib, o'zlarining chiroyli so'zlari, baland va ta'sirchan ovozlari bilan ta'lim oluvchilarning tafakkuriga, ongiga kirib borganlar, ta'lim va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganlar. Shu sababli, notiqlik san'ati va nutq madaniyatining nazariyasiga, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba qadimgi Yunonistonda asos solinganligi ilmiy adabiyotlarda bayon etiladi. Yunonistonda epos, lirika, drama, haykaltaroshlik, musiqa va me'morchilik san'ati bilan birga notiqlik san'ati ham murakkab va muhim san'at asari sifatida tan olingan. Notiqlik san'atini davlatning muhim ijtimoiy- siyosiy ishlariga taalluqli faoliyatdagi ahamiyati uchun hamda yosh avlodni tarbiyalashda ular ongi va tafakkuriga qizg'in ta'sir etuvchi murakkab vosita sifatida rivojlantirganlar.

Eramizdan avvalgi V asr Yunonistonda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng takomillashgan davri bo'lgan. Shu sababli "Notiqlik san'ati" ham qizg'in rivojlangan davr hisoblanadi. Bu davrda notiqlikning uchta qonuniyati umumiy shior sifatida e'tirof etilgan:

- o'quvchilarga tushuntirish (ma'lum bir mavzuni);
- o'quvchilar ongini uyg'otish (inson tafakkurini, ongini, maqsadini);
- har bir tinglovchiga huzur-halovat va qoniqish uyg'otish.

O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirish to'g'risidagi muammolar yevropa olimlari Ya.A.Komenskiy, Djon Lokk, G.Pestalotssi, A.Disterverg, K.D.Ushinskiy kabilarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, chex olimi, mashhur pedagog Ya.A.Komenskiy o'qituvchining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolalarni sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilarni kiritadi va ularning mohiyatini mukammal tavsiflab beradi.

Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchilarning bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga yuqori baho berib, o'qituvchilik «yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, o'qituvchi o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Ya.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga mehr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, *o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqodni shakllantiruvchi*.

I.G.Pestalotssi o'qituvchining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan uning xalq ta'limi tarmog'ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to'xtalib o'tadi.

A. Disterverg o'qituvchining ta'limdagi roliga yuqori baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi o'quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi, O'qituvchi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini. faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini takidlab o'tgan.

Pedagog olim Djon Lokk o`qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlarini ishlab chiqqan. Ular orasiga mo`tadillik, g`ayrat-shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi hislatlarni kiritib, o`qituvchining pedagogik faoliyatidagi rolini asarlarida yoritib bergan.

A.I.Gersen, L.N.Tolstoy, I.G.Chernishevskiy, K.D.Ushinskiy kabi rus pedagog olimlari g`arb mutafakkirlari g`oyalarining vorislari sifatida mazkur muammolarga o`z mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, A.I.Gersen mulohazalariga ko`ra, o`qituvchining asosiy hislati — bu uning bolalar bilan munosabatda bo`layotganligini sezishda, bolalar ruhiy dunyosini tushuna olishida, axloqiy qobiliyatining mavjudligida, chunki u shunday iste`dodga ega bo`lmog`i zarurki, unga har qaysi o`qituvchi erisha olmaydi.

“Ta`lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko`tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash maqsadida: “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturni hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo`nalishi deb hisoblansin” deyiladi “Ta`lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish” to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 6 oktabrda qabul qilgan Farmonida. Barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlar samarasi yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo`lgan yuksak malakali kadrlarga bog`liq. Kadrlarni tayyorlash esa avvalo o`qituvchi-murabbiylar zimmasiga yuklatilgan. Shu sababli, chuqur bilimga ega bo`lgan, zamonaviy o`qituvchi-kadrlar taraqqiyotimizning muhim omili sifatida qaralib kelinmoqda. O`qituvchilarimiz bugungi zamon talablariga mos bilimlar sohibi, yangilangan ta`lim mazmunini egallagan bo`lishlari kerak. O`qituvchi xodimlar o`zlarining kasb-ko`nikmalari va muallimlik mahoratlarini doimo takomillashtirib borishlari shart.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g`oyalarini amaliyotga tatbiq etish respublika ta`lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini ta`minlash, ta`lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o`qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma`naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga bog`liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo`lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk namoyondalari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O`zbekiston Respublikasida o`qituvchi kadrlarning ma`naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo`yilmoqda. Chunonchi, bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: *«Tarbiyachi-ustoz bo`lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o`stirishi, ma`rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o`zi ana shunday*

yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak»¹.

Yuqorida qayd yetilgan fikrlardan kelib chiqib bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur? Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu muammo bo'yicha ko'plab pedagog va psixolog olimlar o'z fikr va mulohazalari bilan chiqdilar. O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini milliy an'ana va urf-odatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib yanada takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirish uchun metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar paydo bo'ldi. Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda.

XXI asrga kelib o'qituvchining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. Endilikda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o'qituvchidan yuksak mahoratni, o'tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun suvollar:

1. Yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlash qaysi davrlardan hoshlangan?
2. O'rta Osiyoda ilk ta'lim va tarbiya qachon paydo bo'lgan?
3. "Avesto"da bola ta'lim-tarbiyasiga oid fikrlar?
4. Abu Nasr Forobiy asarlarida mudarrislariga qo'yiladigan talablar?
5. Kaykovus mudarrisning axloqiy belgisini qaysi xususiyatida ko'radi?
6. Abu Ali ibn Sinoning mudarrislariga tavsiyalari?
7. Alisher Navoiy asarlarida mudarrislar faoliyati haqida?
8. Notiqlik san'atiga asos solgan yunonistonlik mashhur faylasuflar kim?
9. O'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish to'g'risida yevropa olimlarining fikrlari?
10. Jamiyatimizning hozirgi zamon o'qituvchisi oldiga qo'yayotgan asosiy burch va mas'uliyatlari?
11. O'qituvchi o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik qilishi uchun nimalarga e'tibor berishi lozim?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq", 1997, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent; "Sharq", 1997,31-61 betlar.
3. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati.-Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kons emi Bosh tahririyati, 1993, 27-28-bet.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: "O'zbekiston", 2009.- 176 b.
5. Kayqovus Unsurul Maoliy. Qobusnoma. (Forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimai). S.Dolimov.-T.: O'qituvchi, 2006.-2o8 b.

¹ Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati.-Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontsemi Bosh tahririyati, 1993, 27-28-bet.

6. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. Asarlar. 15-tom. -T.: Fan, 2005.
7. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.-T.: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.-187 b.
8. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.
9. Suxomlinskiy V.D.Bolalarga jonim fido. -T.: o`qituvchi. 1984.-254 b.
- 10.O`zbek pedagogikasi tarixi //A.Zunnunov tahriri ostida. T.: O`qituvchi, 1997.-272 b.

3-MAVZU:O`QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYAT

Reja:

1. Qobiliyatning pedagogik- psixologik tasnifi
2. **O`qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirish funksiyalari**
3. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari va xususiyatlari

Tayanch tushunchalar:

Qobiliyat; psixik sifatlar; xotira va xarakter; individual-psixologik xususiyat; intellektlar to`plami; modifikatsiya; kinestetik qobiliyat; mantiqiy qobiliyat; ko`nikma va malakalar; mohirlik; iqtidor, iste`dod va daholik; mahsuldor; psixologik va fiziologik tuzilish; evristik; kreativ; umumiy va maxsus; talant; xususiyatlar ansambli; layoqat va zehn; kommunikativ qobiliyat; didaktik qobiliyat; tayanch xususiyatlar; yetakchi xususiyatlar; yordamchi xususiyatlar.

1.Qobiliyat-shaxsning individual-psixologik xususiyati bo`lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig`indisidir. Zarur bo`lgan bilim, malaka va ko`nikmalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi. Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo`lgani sababli. shaxsning boshqa sifatlari va xususiyatlariga, ya`ni aql sifatlari, xotira va xarakter xususiyatlariga, his-tuyg`ulariga qarama-qarshi qo`yilmaydi, balki ular bilan bir qatarga qo`yilishi kerak.

Qobiliyatni inson tug`ma, tabiat in`omi sifatida tayyor holida olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi.

Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to`plami deb atadi va uning yettita jihatini ajratib ko`rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini o`qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarini psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va o`qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta`kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko`rsatib o`tadi:

1. **Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati.** O`qituvchi o`quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, sinfda ijobiy ruhiy iqlim yarata oladi.

2. **Voqealarni oldindan ko`ra olish qobiliyati:** Ushbu qobiliyat turi har bir o`qituvchining sergakligida, o`quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko`ra olishida namoyon bo`ladi. Shunda o`qituvchi kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.

3. **Eshitish va his qilish qobiliyati.** Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida proza va poeziyani yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa, she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.

4. **Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat.** O'qituvchining o'z hatti harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilgan holda yo'naltiradi, vaqtni harakat sur'ati bilan his qiladi, o'zi uchun maishiy qulayliklarni yarata oladi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi.

5. **Mantiqiy qobiliyat.** Falsafiy mulohazalar yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni hal qilishni sevadi, sababiyat va oqibat natijalarini tushunish malakasiga ega, voqelikda asosiylikni ikkinchi darajalisidan ajrata oladi;

6. **Shaxsning ichki qobiliyati.** o'z-o'zini mukammal bilishi, tushunishi va his qilish qobiliyati, erkin shaxsda ichki qobiliyat mukammal rivojlanadi, irodasi mustahkam, qat'iyatli, har qanday vaziyatda o'z fikr- mulohazasini erkin bayon eta oladi.

Qobiliyat o'qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli o'qituvchilar o'z faoliyatlarida ham qobiliyati past kishilarga qaraganda ko'proq yutuqlarga erishadilar.

Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq oldinga siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Qobiliyatli kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kiritadi.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim-bu ilmiy mutolaalar natijasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakalardir.

Ko'nikmalar-o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usuli.

Malakalar-o'qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisi.

Ular o'qituvchi kasbiy faoliyati mexanizmining asosini tashkil qiluvchi jarayonlar bo'lib, qobiliyat bilan birgalikda pedagogik mahoratga erishishni ta'minlaydilarki, buning natijasida o'qituvchilar kasbiy faoliyatida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi. Qobiliyatli, ammo ko'nikma va malakalarga ega bo'lmagan noshud o'qituvchi ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikma va malakalarni chuqur egallashda ro'yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. Ko'nikma va malakalar yetarli bo'lmagan qobiliyatni birmuncha to'ldirishi yoki qobiliyatning kamchiligini tuzatishi mumkin. Ko'nikmalarni umumlashtirib mohirlik ham deb ataydilar. Mohirlik ham

qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lish jarayonida shakllanadi.

Pedagogikada o'qituvchi qobiliyati-bu imkoniyatdir, uning mohirligi zaruriy darajasi faqatgina o'qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi hamda yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug'ma qobiliyatlar zehn deyiladi. Iqtidor, iste'dod, daholik-insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar xarakter kabi, shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlaridir.

Psixologiyada qobiliyat-insonning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishiga aytiladi. U o'qituvchining kasbiy faoliyatida ham yorqin namoyon bo'ladi.

Kasbiy faoliyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatlari o'qituvchining ijodkorligida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik-bu sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir.

Mahsuldor ijodkorlikda be'lgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi; ijod qilishga layoqatli bo'lgan o'qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlar namoyon bo'ladi.


Evristik ijodkorlik, jamiyatda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni dadil o'zlashtirish va targ'ib qilishni anglatadi, ya'ni uning asosida g'oyalar (farazlar) hosil qilish jarayonini intensivikasiya qilish va ularning haqiqatga yaqinligini (ehtimoliligini, ishonchliligini) izchil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi.

Kreativ ijodkorlikda o'qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi nazariyalarni yaratadi, o'z fikrlari va takliflari bilan chiqadi. mohir va tajribali, layoqatli o'qituvchilargina bunga erishishi mumkin.


Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmui insonning iste'dodi deyiladi.

Insondagi bilish va layoqat nishonalari jarayonlarining yig'indisi, iste'dodining yuksak cho'qqisi-uning intellektini belgilaydi. "Intellekt bu aqlan ish ko'rish, ratsional fikrlash va hayotiy muammolarni mohirona hal qilishning global qobiliyati" (Veksler), ya'ni intellekt insonning atrof muhitga to'liq moslasha olish qobiliyati deb qaraladi.

Intellektning tarkibiy tuzilishi olimlar tomonidan quyidagicha ta'riflanadi:



3- chizma. Intellektning asosiy sifatlari.



4-chizma. O`qituvchi intellektiga tavsifnoma.

Biroq, kishidagi tabiiy layoqat nishonalari mukammal kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatli olib borilishini ta`minlamaydi. Kishi o`zidagi layoqat nishonalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishi kerak, bu esa faqat shijoatli kasbiy faoliyat jarayonida amalga oshirilishi mumkin.

2. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da barkamol, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash hamda komil inson g`oyasi — milliy va umumbashariy mohiyatga ega bo`lgan, odamzodga xos eng yuksak ma`naviy ezgulikka undaydigan olijanob g`ova sifatida ulug`langan. Mazkur g`oyani yosh avlod ongiga singdirishda o`qituvchi kadrlarning roli beqiyos. Bu esa ulardan avvalo mukammal kasb qobiliyatiga ega bo`lishni, bilimi, mahorati, ilmiy nazariy va amaliy salohiyatidan

oqilona foydalanishni taqozo etadi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy o'nglash, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishni»²-istayotgan bir davrda yashayapmiz. Bu istak esa yoshlar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kasb egalarini yuksak kasbiy tayyorgarlikka, g'oyaviy-siyosiy e'tiqodga, tashkilotchilik va boshqaruvchilik malakalariga ega bo'lish lozimligini taqozo qilmoqda. Chunonchi, bu hol ta'lim tizimi va kasb-hunar ta'limi muassasalari yangilanayotgan, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shakli, usullari, vositalari majmuiga, o'quv-tarbiya jarayoniga o'zbekona urf-odatlar faol kirib borayotgan bir sharoitda yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar har bir o'qituvchini yangicha fikrlashga, sharqona ish yuritishga, tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning faol ishtirokchisi bo'lishga undaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda o'tgan davrdagidan ko'proq pedagogika fani oldida yangicha fikr yuritadigan o'qituvchi-tarbiyachini tayyorlash, uning kasbiy mahorati va malakasini takomillashtirish uchun o'qitish va tarbiyalashning zamonaviy shakl, usul, vositalarini ishlab chiqish juda muhimdir. Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'qituvchilik kasbini tanlagan har bir yigit va qiz o'ziga shu kasbni sevishi yoki sevmasligi to'g'risida savol beradi. Zero masalaning yana bir muhim tomoni borki, bu bo'lajak o'qituvchi pedagogik qobiliyatga egami yoki yo'qmi degan muammo paydo bo'ladi. Vaholanki har bir kasb, qobiliyat orqali egallanadi va mukammal o'rganiladi.


Pedagogik qobiliyatlar o'z funksiyasiga ko'ra **umumiy** va **maxsus** turlarga bo'linadi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo'lganda o'qituvchi o'z pedagogik kasbiy faoliyatini mukammal egallab, mohirona olib borish bilan birga, boshqa turli xil faoliyatlar bilan ham muvaffaqiyatli shug'ullanadi. Umumiy qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida har qanday qiyinchilik va ziddiyatlarni qiynalmasdan bartaraf etadilar.

O'qituvchining pedagogik qobiliyatini tahlil qilgan N.V.Kuzmina shunday yozadi: "Ta'lim-tarbiyada ro'y beradigan ko'pgina kamchiliklar o'qituvchi o'z pedagogik qobiliyatining amaliy yo'nalishlarini yaxshi bilmasligi, iste'dodning o'qituvchida yo'qligi natijasida ro'y beradi".

Maxsus qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar faqat o'zlari egallagan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadilar.

Biror faoliyatning muvaffaqiyatli, mustaqil va mukammal bajarilishini ta'minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasi talant deyiladi.

² Karimov I.A. o'zbekistonmg siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqboimig asosiy tamoyillari.-T.: "o'zbekiston", 1995,47-bet



5-chizma. Shaxs qobiliyatlari, tabiiy iste'dodlar va ularning farqi

Barcha mutaxassisliklarda bo'lgani kabi o'qituvchilik kasbida ham pedagogik qobiliyat-uning shaxsiy iste'dod xususiyatlarini belgilab, kasbiy faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirishda subyektiv shart-sharoitlar yaratadi.

Har qanday qobiliyat-shaxsga tegishli bo'lgan murakkab tushunchadir, u faoliyatning talablariga mos xususiyatlar tizimini o'z ichiga qamrab oladi.

Har qanday faoliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talablarga javob bera olsa, kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda o'z qobiliyatini ko'rsata oladi, agar xususiyatlaridan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatining muayyan turiga nisbatan kam qobiliyatli, deb xarakterlanadi.

Mana shuning uchun ham qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlay oladigan xususiyatlar ansambli yoki sintezini tushunish lozim.

O'qituvchi qobiliyatini o'rganishda xususiyatlar «ansambli» iborasini biz shuning uchun ham ishlatamizki, bunda xususiyatlarning oddiygina birgalikda mavjud bo'lishini emas, balki ularning uzviy bog'langan bo'lishini, muayyan tizimda o'zaro ta'sir qilishini ko'zda tutayapmiz. Bu tizim xususiyatlardan biri oldingi o'ringa chiqib, yetakchi xususiyatga ega bo'lsa. ayni vaqtda boshqalar uchun yordamchi xususiyatlar rolini o'ynaydi.

Kishining qobiliyati juda katta ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega. Qobiliyat yuqori mehnat unumdorligini ta'minlashga, binobarin, ijtimoiy boylikning son va sifat jihatidan tez o'sishiga, jamiyat taraqqiyotiga yordam beradi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarning zakovati, qobiliyatini ochish hamda ulardan o'z o'rnida foydalanishini o'rganib olishi zarur ekanligi haqidagi masala qat'iy talab qilinadi. *O'qituvchining pedagogik mahoratni takomillashtirishida qobiliyat bilim olish va malaka hosil qilishni ta'minlaydi. Qobiliyatli kishining yuqori unumli mehnati uni moddiy hayot darajasi bilan ta'minlaydi.*

Ta'kidlash joizki, qobiliyatli o'qituvchiga pedagogik faoliyat va mehnat yengilroq bo'ladi va u kamroq charchaydi, chunki sevimli mehnati unga huzur-halovat bag'ishlaydi.

Qobiliyat bilim, ko'nikma va malakalar mahsuli, shu bilan birga, faoliyat usullarini egallash tezligi, teranligi va mustahkamligida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti yuksak darajada muvaffaqiyatli bo'lishi uning pedagogik qobiliyatga qanchalik ega ekanligiga bog'liq. O'qituvchilarning faoliyati yosh avlodni ma'naviy barkamol shaxs darajasida tarbiyalashda va kasbiy bilimlarni chuqur egallagan kadrlarni tayyorlashda namoyon bo'ladi. Buning muvaffaqiyati o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatiga bog'liq. Qobiliyat kasbiy faoliyat jarayonida sayqallanib boradi. Buning uchun o'qituvchida layoqat, zehn va qiziqish bo'lishi kerak.

3. Pedagogik-psixologiyada o'qituvchi qobiliyatining cheklangan turlari yo'q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko'payib va o'zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha "o'zgarmas irsiyat" nasldan-naslga o'tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy-tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida **pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari** ajratib ko'rsatilgan:

- O'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni seva olishi.
- Mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi.
- Pedagogik taktga (odob va go'zallikka) ega bo'lish.
- Bolalar jamoasiga singib keta olish.
- O'z mehnatiga ijodiy yondashish.
- Javobgarlikni his etish.
- Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

O'qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o'ziga xos tizimlari mavjud. Qobiliyatlar tizimi quyidagi xususiyatlari bilan farq qilinadi:

- asosiy xususiyatlar;
- tayanch xususiyatlar;
- yetakchi xususiyatlar;
- yordamchi xususiyatlar.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyatning samarali bo'lishini va shart-sharoitini ifodalamasdan, balki ko'p jihatdan muvaffaqiyatli ishlashning natijasi hamdir. Pedagogik qobiliyatda o'qituvchining o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari asosiy rol o'ynaydi. Quyidagi pedagogik qobiliyatning **asosiy xususiyatlari** o'qituvchining yuksak pedagogik-psixologik bilimlari natijasida doimiy shakllanib boradi:

Kommunikativ qobiliyat: o'qituvchining pedagogik jamoa va ota-onalar, mahalla ahli bilan bo'ladigan o'zaro muloqotida, ularning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdard bo'lish, muloqotga kirishishida rok ko'ngillilik. O'qituvchi bunda psixologik bilimlarga ega bo'lishi, muomala madaniyatini muntazam o'zida shakllantirib borishi lozim.

Perseptiv qobiliyat: tashqi olamni va mjihitni sezish, idrok etish, ya'ni kuzatuvchanlik muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'quvchining psixologiyasini, psixik holatini o'ziga

singdirib idrok etadi, sinf jamoasining holatiga pedagogik vaziyatiga odilona baho beradi.

Empatik qobiliyat: bolalarga bo'lgan muhabbatdan kelib chiqadigan o'quvchilarning his-tuyg'usini, psixologik holatlarini qalbdan his etish, tushunish, idrok etish, ularga achinish xususiyatlaridir.

Ta'lim jarayonini muqobillashtirish qobiliyati: o'qituvchi o'z bilimini o'quvchi ongi va tafakkuriga kam kuch sarflash evaziga yetkaza olishi. Ta'lim va tarbiyada belgilangan muddatda maqsadga erishish **qobiliyatidir.**

Didaktik qobiliyat: o'quvchilar bilan muloqot qilishda. Pedagogikaning ta'lim va tarbiyaviy qonuniyatlarini hamda metodlarini chuqur o'zlashtirgan holda samarali dars berish qobiliyatidir. Shuningdek, dars pedagogik texnologiyalar asosida jahon andozalariga, hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak.

Tashkilotchilik qobiliyati: pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. Sinf o'quvchilarining o'qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariga, to'garaklarga jalb qila olishida, sinf jamoasining har bir o'quvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishida namoyon bo'ladi.

Konstruktiv qobiliyat: o'qituvchining o'quv-tarbiyaviy faoliyatni puxta rejalashtirishi asosida yuzaga keladigan kasbiy pedagogik vaziyat bosqichlarini oldindan ko'ra olishi.

Bilish qobiliyati: o'qituvchining o'z fanini va boshqa fanlarni chuqur bilishida, o'zlashtirishi va amaliyotda namoyon etishi.

Anglash (tushunish) qobiliyati: o'qituvchining ziyrakligi va uddaburonligi, voqea va hodisalarni chuqur idrok etib, ularga adolatli munosabatda bo'lishi.

Pedagogik qobiliyatlarning **tayanch xususiyatlari** kuzatuvchanlik-ko'ra bilish ko'nikmasidir. Bu-individual narsaning o'ziga xos tomonini, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilishi demakdir. Rassomning kuzatuvchanligi, tabiatshunos olimning kuzatuvchanligidan farq qilishi o'z-o'zidan ravshan. Ularning kuzatuvchanligi turlicha yo'nalishda bo'lganligi sababli, har biri o'z tafakkuri va dunyoqarashiga ega.

Qobiliyatning **yetakchi xususiyati** ijodiy tasavvur qilishdir. Bu xususiyat faqat rassomga, matematika o'qituvchisiga, adabiyotshunosga xos bo'lmasdan, balki aynan barcha fan o'qituvchilariga ham tegishli.

Har qanday kasb sirlarini mukammal egallash uchun qobiliyat kerak. Pedagogik qobiliyat sog'lom o'qituvchidagina shakllanadi. Biroq u yuqori, o'rtacha va past darajada bo'lishi mumkin. Ushbu turli darajadagi qobiliyatlarda mujassamlashgan hislatlar va xususiyatlar orasida ba'zilar yordamchi rol o'ynaydi.

Pedagogik qobiliyatlar tizimiga kiradigan **yordamchi xususiyatlar** va hislatlar quyidagilardan iborat:

- aql-idrokning muayyan turlari, hozirjavoblik, kamchiliklarga tanqidiy e'tibor, sobitqadamlik;
- o'qituvchining nutqi: notiqlik san'ati, so'z boyligining teranligi;
- aktyorlik xususiyati: mimika va pantomimika, xayoliy fantaziya ishlata olish, ruhiy hissiyotni jilovlay olish.
- pedagogik takt va pedagogik nazokatga ega bo'lish.

Mavzuni o`zlashtirish uchun savollar

1. O.Matveeva ta`limoti bo`yicha o`qituvchi qobiliyati necha qismdan iborat?
2. O`qituvchining kasbiy faoliyatiga qobiliyat qanday ahamiyat kasb etadi?
3. Iqtidor, iste`dod, daholik tushunchalarini ta`riflab bering?
4. Ko`nikma va malakalarning qobiliyatga ta`siri nimada?
5. Ijodkorlik tushunchasini izohlab bering?
6. Iste`dod va talant tushunchalariga ta`rif bering?
7. Qobiliyatga pedagogik-psixologik nuqtai nazardan tasnif bering?
8. Shaxs qobiliyati va tabiiy iste`dodlar nimani anglatadi?
9. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari nimalardan iborat?
10. Qobiliyatning umumiy va maxsus turlari va ularning farqi?
11. Pedagogik qobiliyatni`ng o`ziga xos xususiyatlariga ta`rif bering?
12. Pedagogik qobiliyatning tayanch va etakchi xususiyatlari?
13. Qobiliyatsiz o`qituvchi ta`lim muassasalarida faoliyat olib borishi mumkinmi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O`zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`g`risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent- "Sharq", 1997, 20-29 betlar.
2. O`zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent; "Sharq", 1997,31-61 betlar.
3. **Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch. T.:“Ma`naviyat” 2009.176 b.**
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o`qituvchisining psixologiyasi.-T.: O`zbekiston, 1999.-29 b.
5. Pedagogika. (Pod red. P.I. Pidkasistogo).- M.: Pedagogicheskoe obshchestvo Rossii, 2003.- 608 s.
6. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar)-T.: "IQTISOD-MOLIYA",2007.-380 b.
7. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU 2005,- 149-b.
8. G`oziyev E. Psixologiya.-T.: O`qituvchi, 1994.-224 b.

3-MAVZU: O`QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATI.

R E J A:

1. **O`qituvchi shaxsining fikr almashuv bilan bog`liq xususiyatlari**
2. **Pedagogik ta`sir ko`rsatish-kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida**
3. **O`qituvchining kommunikativ qobiliyatida so`z bilan og`zaki ta`sir o`tkazish**

Tayanch tushunchalar:

Ongli intizom; fikr almashish; kommunikativ qobiliyat; o`quvchini ishontirish; ongga ta`sir, taqlid qilish; psixik ta`sir; g`oyalar va mafkuralar; pedagogik ta`sir ko`rsatish; g`oya va mafkura; komil inson tarbiyasi; talab;

istiqlol; rag'batlantirish va jazolash; jamoatchilik fikri; so'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish; intonatsiya; ekspressiv holat; kasbiy mahorat; xushmuomalalik; axborot hajmi; pedagogik qobiliyat texnikasi.

Nutq bu og'zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir. Ijtimoiy tajribada biron bir mohiyatni anglatadigan so'zlar og'zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. So'zlar eshittirib yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo'yilishi yoki kar-saqov kishilarga biron bir mohiyatga ega bo'lgan imo-ishoralar bilan almashinishi mumkin. Odamlar o'rtasidagi munosabatni telegraf orqali axborot berishga o'xshatish mumkin emas. Odamlar munosabatiga aloqa bog'lovchilarning his-hayajoni ham qonuniy ravishda jalb etilgan. U kommunikatsiyaning mazmunini hisoblanishi nazarga ham, munosabatga ham, kirishganlarga nisbatan ham muayyan tarzda taalluqli bo'lib nutqiy fikr mulohazalar bilan qo'shilgan holda yuzaga chiqadigan bu his-hayajonli munosabatda axborot ayriboshlashning alohida nutqsiz jihati o'zgacha nutqsiz kommunikatsiya tarkib topadi. Nutqsiz kommunikatsiya vositalarga qo'l, barmoq va yuz harakatlari, imo-ishora, ohang, pauza, turq-tarovat, kulgu, ko'z yoshi qilish va shu kabilar kiradi. Bular og'zaki kommunikatsiya vositalari so'zlarni to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi, ba'zan esa o'rnini bosuvchi belgilar sistemasini hosil qiladi. O'rtog'ining boshiga tushgan kulfatdan xabar topib unga hamdardlik bildirayotgan suhbatdosh nutqsiz kommunikatsiya belgilarini ishlatadi: yuzlarini g'amgin tutadi, past ohangda, qo'llarini yuziga yo peshonasiga qo'ygan va boshini chayqagan holda chuqur xursinib gapiradi va h.k. Nutqsiz kommunikatsiya amalga oshirish uchun turli xil yosh gruppalariga turlicha vositalar tanlanadi. Masalan, Yosh bolalar yig'idan ko'pincha katta yoshdagilarga ta'sir qilish va ularga o'z istaklari hamda kayfiyatini yetkazish vositasi sifatida foydalanadilar. Nutqsiz kommunikatsiyada qo'llaniladigan vositalarning axborotni so'z bilan yetkazish maqsadlariga va mazmuniga muvofiqligi munosabat madaniyatining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Pedagog bitta so'zning o'zini o'quvchiga goho buyruq, goho iltimos, goho nasihat va hakoza ma'no baxsh etgan xilda turli ohangda talaffuz eta bilishi kerak. Nutqsiz kommunikatsiya imo-ishora, pantomimika, nutqning ohangidagi rang-baranglik ham rivojlana boradi. Kommunikatsiya jarayonida teskari aloqalar shakllanadi, ya'ni bola hamsuhbatining yuzlaridagi ifodani o'qishga uning ohangida ma'qullash yoki ma'qullamaslik alomatini payqashga katta yoshdagi kishining so'zlariga ilova bo'ladigan va kuchaytiradigan qo'l-barmoqlari va yuz-harakatining ma'nosini tushunishga o'rganadi.

O'qituvchi faoliyatida tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik aloqalarning uzluksizligi tarbiyaning asosiy qonuniyatlaridan biridir. O'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda ijobiy aloqalar o'rnatish, ijobiy iqlim yarata olish, o'ziga ishontira olish va jalb qilish-o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining asosiy mohiyati bo'lib, bunda bevosita o'qituvchi bilan bog'liq bo'lgan minglarcha ruhiy jarayonlar, ma'lum bir qolipdan chiqishi mumkin bo'lmagan muomala turlari va shartlari mavjud. Tarbiyaning samaradorligi, pirovard natijada o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishning shakl va uslublariga qat'iy rioya qilgan holda amalga

oshirilishi bilan belgilanadi. Asosiy maqsad, o`qituvchi va o`quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik o`rnini ongli intizom egallashi, o`quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko`nikmalarini hosil qilishdan iborat. O`qituvchi tarbiya usullari tizimini belgilab olgandan keyin bir qator aloqa o`rnatish vazifalarini rejalashtirishi kerak. Albatta, bu nihoyatda qiyin jarayon, zero tarbiyaning har bir usuli, tarkibiy qismi va tashkil etuvchi usullari muomala orqali aloqa o`rnatishning samaradorligiga bog`liq. Ushbu jarayon bevosita o`qituvchining fikr almashuvi (refleksiya) bilan bog`liq xususiyatlariga, o`quvchi ruhiy holatini fikr tezligi bilan uqib olish san`atiga va pedagogik ta`sir ko`rsatishning turli usullarini bir-biri bilan o`zaro aloqadorlikda qo`llay bilishiga taalluqli bo`lib, ular uzluksiz shakllanadi.

O`qituvchining fikr almashuvi bilan bog`liq kommunikativ qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlari o`quvchi ongiga qaratilgan faoliyat bo`lib, nihoyatda murakkab jarayonda takomillashadi. O`zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog`liq bo`lgan kommunikativ qobiliyatning quyidagi yo`nalishlari mavjud:

- ❖ o`quvchilarni ishontirish
- ❖ o`quvchilar ongiga ta`sir etish;
- ❖ o`zgalarga taqlid qilish.

*O`quvchilarni ishontirish* tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan ho`lib, o`qituvchi fikr-mulohazalarini ta`sirchan nutq orqali o`quvchining bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, hatti-harakatiga ta`sir etadi va uni qisman o`zgartiradi. Ishontirish *o`qituvchining kasb faoliyatiga taalluqli bo`lgan murakkab faoliyatida asosiy ta`sir ko`rsatish vositasi bo`lib, ta`lim-tarbiya jarayonida ishlatiladigan usullardan biri hisoblanadi.* O`quvchi ongiga ta`sir ko`rsatish bilan bog`liq bo`lgan ishontirish usuli o`qituvchidan bahs, munozara asosida dalillar keltirishni, isbot va mantiqqa tayanishni talab qiladi. Ayniqsa o`qituvchi bilan o`quvchilar orasida o`rganilayotgan mavzuga taalluqli muqobillik mavjud bo`lganda, tanqid va fikrlar kurashiga tayanilganda samarali bo`ladi.

O`quvchilar ongiga ta`sir o`zaro fikr almashish jarayonida qo`llaniladigan murakkab psixologik xususiyat bo`lib, o`qituvchi kommunikativ qobiliyatining universal omili hisoblanadi. O`qituvchilarning suhbat va faoliyati jarayonida tarbiyalanuvchi ongiga ta`sir tizimining o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o`quvchilarning psixikasi va xulq-atvoriga sezilarsiz ravishda ta`sir ko`rsatadi. Ta`sir o`quvchilar ongiga, psixikasiga nazoratsiz kirib borishi bilan *alohida* ahamiyatga ega, o`quvchilarning ijodiy faoliyatida, xatti-harakatlarida, intilishlarida yo`l-yo`riqlar ko`rsatish tarzida amalga oshiriladi.

**Ongga ta`sir**-shunday bir psixik jarayonki, o`quvchilar o`qituvchining yoki biror shaxsning ta`siri ostida, o`z ongining yetarli nazoratisiz voqelikni idrok etadi. Agar o`qituvchi bunda pedagogik mahoratga, psixologik tajriba va bilimlarga ega bo`lmasa, o`quvchilar ongiga ta`sir qila olmaydi, natijada ta`lim-tarbiya jarayoni ijobiy natijalar bermaydi, o`qituvchi o`quvchilarning hurmat-e`tiboriga sazovor bo`la olmaydi. O`qituvchi o`z tarbiyalanuvchilari ongini tashqi muhitning salbiy ta`sirlaridan, sinf jamoasi norasmiy yetakchilarining turli yashirin buzg`unchi g`oyalaridan himoya qilishga mas`ul shaxsdir. O`quvchi ongiga ta`sir o`tkazishda o`qituvchi yetakchilikni o`z qo`liga kiritishi uchun:

- o`quvchilarning salbiy xatti-harakatlari tufayli sodir bo`ladigan emotsional his-tuyg`ularga berilmasligi;
- har bir o`quvchining psixologik va ruhiy holatini puxta o`rganmasdan uning ongiga tarbiyaviy ta`sir o`tkazishga harakat qilmasligi;
- har bir o`quvchiga alohida shaxs sifatida hurmat e`tibor bilan munosabatda bo`lishi;
- sinf jamoasining norasmiy yetakchisini sezdirmasdan aniqlab olishi va uning hatti-harakatidan doimo ogoh bo`lishi;
- pedagogik mahoratning muhim jihatlarini uzluksiz o`zida takomillashtirib borishi;
- o`ylanmay aytilgan har bir so`z, noo`rin fikr-mulohazaning oqibatini hech qachon tuzatib bo`lmasligini o`qituvchi doimo his etishi lozim.

Taqlid qilish shaxsning psixologik xususiyati bo`lib, o`zi sevgan biror inson harakatiga, namunasiga, ibratiga amal qilishidir. O`quvchi o`zi uchun ideal deb bilgan kishining xulq-atvor namimalariga ongsiz ravishda taqlid qiladi. O`quvchilar o`zgalar xulq-atvoridan andoza olib, taqlid qilish yo`li bilan ulardan o`zining muhitida foydalanadi. Taqlid qilishning o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, o`quvchilar o`z xatti-harakati va muomalasi jarayonida o`zi ko`rgan, kattalar bajargan harakatlarni takrorlashga intiladi. Taqlid qilishning yana bir xususiyati o`quvchi badiiy asarlarda o`qigan, kinofilmlarda ko`rgan sevimli idealidagi qahramon obraziga, xarakteriga, jasoratiga, imo-ishora, nutq, kiyinish uslublariga beixtiyor taqlid qiladi, o`z faoliyatida takrorlaydi.

O`qituvchi kommunikativ qobiliyati bilan pedagogik faoliyat olib borish jarayonida o`zaro fikr almashish yo`li bilan ta`sir ko`rsatishning ko`rib chiqilgan asosiy turlari o`quvchini ishontirish, o`quvchi ongiga ta`sir etish, taqlid qilish biri-biri bilan chambarchas bog`liq bo`lgan psixologik xususiyatlardir va ayni vaqtda, o`ziga xos farqlarga ega. Ishontirish va ongiga ta`sirning o`zaro bog`liqligi shundan iboratki, biz ta`sir ko`rsatish usulining unisidan ham, bunisidan ham foydalanganda ko`pincha notiqlik san`atini namoyish etamiz. O`qituvchining so`z boyligi va notiqlik malakasi ishontirish va o`quvchi ongiga ta`sir etishning muhim manbalaridir.

Pedagogik ta`sir ko`rsatish-kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida


O`zbekiston Respublikasida ijtimoiy-siyosiy mustaqillik qo`lga kiritilgach, hayotning barcha sohalarida, shu jumladan, ta`lim sohasida ham tub islohotlar olib borilib ulkan o`zgarishlar ro`y bermoqda. Islohotlar respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo`li deb e`tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish vazifasi o`sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklanadi. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning nutqlari va qator asarlarida ta`lim va tarbiya O`zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e`lon qilinib, uning maqsad va vazifalari belgilab berilgan.

Pedagogik ta`sir ko`rsatish o`qituvchining muhim kommunikativ qobiliyatlaridan biri bo`lib, avvalo o`qituvchining tashqi qiyofasini ifodalovchi

madaniyati, munosabatga kirishishi va nutq madaniyati asosida o`quvchilar bilan muntazam tarbiyaviy faoliyat olib borish jarayonida namoyon bo`ladi.

Hozirgi davrda o`qituvchi faoliyatida uchraydigan kommunikativ munosabatlarda so`z bilan og`zaki ta`sir etish nihoyatda xilma xil bo`lib, bevosita pedagogik ta`sir ko`rsatishning nisbatan mustaqil ko`rinishini o`zida mujassamlashtiradi. Bilish, anglash, ekspressiv (his-tuyg`uga berilish holati), ijtimoiy an`anaviy muloqot, inson holatini so`zsiz tushunish, dilkashlik o`qituvchining pedagogik faoliyatida uchraydigan doimiy takrorlanib turadigan kommunikativ munosabatlarning turlaridir. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda ularni nazarda tutish lozim.

Ayniqsa, pedagogik ta`sir ko`rsatishni tashkil etishda so`zning ahamiyati bilan bog`liq bo`lgan pedagogik muomala madaniyatiga va tarbiyachining shirin so`zligiga alohida talablar qo`yiladi. So`zlashganda odob va ehtirom o`qituvchining pedagogik mahoratida uchraydigan muhim insoniy fazilati sifatida namoyon bo`ladi. **Xushmuomalalik**-o`qituvchi va tarbiyachilarning sinfda individual ish olib borish jarayonida ota-onalar hamda o`quvchilar bilan muloqotni aniq bir tarbiyaviy maqsadni ko`zlagan holda tashkil eta olishi va ta`lim-tarbiyaviy faoliyatni to`g`ri boshqara bilishidir. O`qituvchining kasbiy faoliyatida xushmuomalalikning yosh o`qituvchi amal qiladigan quyidagi mezonlarini alohida ta`kidlab o`tamiz:



O`qituvchi kasbiy mahoratida muhim ahamiyatga ega bo`lgan insoniy fazilat hamda xushmuomalalikni o`zida shakllantirishi uchun muntazam faoliyat olib borishi zarur. O`qituvchi pedagogik faoliyatiga oid shaxsiy o`z-o`zini

tarbiyalashning o`zaro fikr almashish va aloqadorlikka doir quyidagi tizimlarini tavsiya etish mumkin.

1. Kasbiy faoliyat jihatidan o`z-o`zini anglashni (muomalada o`zaro fikr almashishga doir sifatlarni, ijobiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o`zaro fikr almashish asosida o`z-o`zini tarbiyalash dasturini ishlab chiqish.

2. O`z kasbiy faoliyatiga quyidagi yo`nalishlarda baho berish maqsadga muvofiq: kishilar bilan bo`lgan muomaladan so`ng olingan taassurotlarni tahlil qilish, o`quvchilar bilan muomalaning so`nggi holatlarini o`rganib, muomala haqida o`zining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, muomaladagi imkoniyatlaringizni atrofdagilar (o`qituvchilar jamoasi, ota-onalar, o`quvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarga ega bo`lish.

3. O`zida insonparvarlikning asosiy xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan o`z-o`ziga ta`sir o`tkazuvchi “autogen” mashqlar asosida ishlash.

4. O`quvchilar va ota-onalar bilan turli jamoat ishlarini olib borish, bundan o`zaro fikr almashish faoliyatida ko`nikma va malakalar (ma`ruzalar, suhbatlar, kamolot yoshlar uyushmalari) hosil bo`ladi.

5. So`z bilan og`zaki ta`sir o`tkazishda salbiy kayfiyatлами yengish tajribasini shakllantiradigan va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.

6. Xushmuomalalikka milliy an`ana va urf-odatlarimiz, o`zbekona muomala madaniyati, milliy ma`naviyatimiz nuqtai nazaridan yondashish.

7. O`z ona tilida puxta, lo`nda va jarangdor so`zlar tuza olish va uni nutqiy mahorat bilan ifodalash ta`lim muassasalarida o`rganilayotgan har bir fan o`qituvchisi uchun eng zarur kommunikativ qobiliyatlardan biridir.

Taklif etilgan ushbu tizim asosida pedagogik faoliyat olib borish o`qituvchi kasbiga oid shaxsiy fazilatlaridan biri bo`lgan insonparvarlik va xushmuomalalikni shakllantiradi. O`qituvchi kasbiy faoliyati davomida nutqidagi so`z qudratini takomillashtirib boradi. U o`zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali so`z boyligini go`zal, ravon, ifodali, ta`sirchan bo`lishiga intiladi. Zero, go`zal va ta`sirchan so`zlay bilish ham san`at. Bu san`atdan bebahra bo`lgan o`qituvchining kasbiy mahorati shakllanmaydi. Qaysi fanni o`qitishdan qat`iy nazar, o`qituvchining asosiy quroli so`z boyligidir, u so`z qudrati asosida kommunikativ qobiliyatini namoyish etadi.

Mavzuni o`zlashtirish uchun savollar:

1. O`qituvchining kommunikativ qobiliyati deganda nimani tushunasiz?
2. O`qituvchining fikr almashuvi bilan bog`liq xususiyatlari?
3. Tarbiyaviy jarayonda taqlid qilishning ahamiyati haqida?
4. O`quvchi ongiga ta`sir etishning asosiy manbalari?
5. “Pedagogik ta`sir ko`rsatish” iborasini izohlab bering?
6. O`zbekiston Respublikasida yosh avlod tarbiyasidan asosiy maqsad?
7. Pedagogik ta`sir ko`rsatishning asosiy usullari?
8. Sinf jamoasi bilan bo`lg`usi muloqotga tayyorgarlik shartmi?
9. Pedagogik munosabatda muvaffaqiyat garovi nimalardan iborat?
10. Xushmuomalalikda yosh o`qituvchi amal qiladigan mezonlar?

11. Soʻz bilan ogʻzaki taʼsir oʻtkazish komponentlari haqida mulohazalaringiz?

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonuni. //Barkamol avlod-Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; “Sharq”, 1997, 20-29 betlar.
2. Oʻzbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi toʻgʻrisida”gi qonuni. //Barkamol avlod-Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent; “Sharq”, 1997,31-61 betlar.
3. Karimov I.A. Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish.-Toshkent, “Oʻzbekiston”, 2009. -24 bet.
4. I.A.Karimov. Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch.-T.:2009.-176 b.
5. Батаршчев А.В. Психодиагностика способности к общению или как определит организаторские и коммуникативные качества личности.- М.: Гуманит. Изд. Центр ВЛАДОС, 1999,- 176 с.
6. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество: Библиотека учителя и воспитателя.- М.: Педагогика, 1990.- 144 с.
7. Mahmudov N. M. Oʻqituvchi nutq madaniyati. Darslik.-T.: Oʻzb. Milliy kutubxonasi, 2007.-185 b.
8. Самуйленков Ф.М. Мастерство, педагогический такт-это авторитет учителя.-М.: Просвещение, 1990.-254 с.
9. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005,- 149 b.
10. Suxomlinskiy V.D. Bolalarga jonim fido. -T.: “Oʻqituvchi”, 1984.- 254 b.

5-MAVZU: OʻQITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI. MULOQOTNI TASHKIL ETISHDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING USTUVORLIGI

R E J A:

1. Taʼlimda turli xildagi muloqotni tashkil etish va unda umuminsoniy qadriyatlar ustivorligi
2. Sharqona tarbiya va uning muloqotga taʼsiri.
3. Muloqotga kirishda oʻzbek urf odatlari, udumlar, ular haqida rivoyat, afsona, hikmatlardan foydalanish va kasbda tatbiq etish usullari.
4. Pedagogik muloqot mohiyati.
5. Pedagogik muloqot funksiyalari va tuzilishi.

Tayanch tushunchalar:

“Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonun; pedagogik muloqot madaniyati; oʻqituvchining etnopsixologik fazilatlar; kundalik muloqot; anʼanaviy muloqot; “ustoz-shogird” anʼanalari; muloqot obyekti; pedagogik ziddiyatlar; muosarat odobi; muomala madaniyati; milliy va umumbashariy qadriyatlar; soʻz va nutq; badihagoʻy; qissaxon; voiz; fozil kishi; shirinsuxanlik; notiqlik qobiliyati; maʼnaviyat mezon;

ma'naviy madaniyatni shakllantirish omillari; psixologik taktika.

Insonning o'zini qurshab turgan olam bilan o'zaro birgalikdagi harakati odamlar o'rtasidagi ularning ijtimoiy hayoti va ishlab chiqarish faoliyati jarayonida tarkib topadigan ob'ektiv munosabatlar sistemasida yuz beradi. Kishilar ishlab chiqarish jarayonida tabiatgagina emas, balki bir-birlariga ham o'zaro ta'sir ko'rsatadilar. ("Pedagogik muloqot" -1-8 bet)

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablariga muvofiq ta'lim-tarbiya ishlarida milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga e'tibor berib kelinmoqda. Bu ustuvorlik turli xildagi muloqotlarda ham saqlab kelinsa maqsadga muvofiqdir. Bunda ayniqsa, Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ko'rsatib berilgan O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy axloqiy negizlari:

1. umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
2. xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
3. insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
4. vatanparvarlik kabilar turli muloqotlarda asos bo'lib xizmat qilishi lozim.

Milliy qadriyatlarimiz va sharqona tarbiyamizning ta'siri muloqotda ham sezilib turadi. Bizda kishilar bilan munosabat, so'zlashuv va shuningdek ish, xizmat bilan bog'liq aloqaga muomala deyiladi. Eng go'zal muomala lutf-karamdir. A.Navoiy buni muomala-pardoz deb yozadi. Xullas xalqimizda odamlar bilan munosib tarzda muomala qila bilishlik madaniyat, olijanoblik alomati deb tushunilgan.

Muomala madaniyati, eng avvalo, xalqimizning bolajonligi, oilani muqaddas bilishida namoyon bo'ladi.

Ikki notanish o'zbek yigiti uchrashib qolsa, salom-alikdan keyingina suhbatni "Uylanganmisiz?" degan gapdan boshlaydi. Agar ular 30 yoshlarda bo'lsa savol boshqacharoq bo'ladi: "Og'ayni bolalardan nechta?" Ha, kasb-kor, uy-joy, boylik va shu kabi moddiy jihatlar surishtirilmaydi, bu odob doirasiga kirmaydi ham, lekin bola-chaqadan so'z ochish o'zbeklarga xos milliy odatlardandir. Ota-ona uchun farzandlari haqida maqtov eshitish, "Otangga rahmat" degan olqish ham eng katta saodatdir.

O'rta yoshdagi tanish yoki notanish erkaklar va ayollar muloqotida "hammasidan qutilganmisiz?" degan savol uchrashi tabiiy. O'g'illarini uylantirib, qizlarini uzatib bo'lganmisiz? Ota-ona farzandlarini oilali, uy-joyli qilish tashvishi bilan yashaydi, bu ular hayotining mazmuni bo'lib qoladi.

Barcha madaniy xalqlarda bo'lgani kabi o'zbeklarda ham muomala "Assalomu – alaykum" va "Vaalaykum assalom"dan boshlanadi, keyin hol-ahvol so'rashishga o'tiladi.

Muomala va muloqotda xalqimizning milliy an'analari va urf-odatlari ham ta'sirini ko'rsatadi.

"An'ana" arabcha so'z bo'lib, uzoq zamonlardan beri avloddan-avlodga, otalardan bolalarga o'tib davom etib kelayotgan urf-odatlar, axloq mezonlari, qarashlar va shu kabilardir. Xalqimizning ilg'or an'anasini o'zlashtirish, unga rioya qilish va boyitib borish lozim.

Xalqimizda azaldan ko'pchilik ishtirokida o'tadigan turli bolalar o'yinlari, choyxona suhbatlari, to'y-ma'rakalar, mavsumiy bayramlar-lola sayli, "boychechak" aytish, qovun sayli, qizlar majlisi, kelin salomi, yuz ochtisi, sumalak, kurash, mehmon kutish kabi ko'plab marosimlarimiz o'zbek xalqiga xos bo'lgan "o'zbekona", "Sharqona" tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Xalq og'zaki ijodimiz ham bolalarda turli axloqiy sifatlarni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi.

Sharqona munosabatda ota-onaga hurmat bilan qaralishi, oilada otani o'zni alohida bo'lganligi, ota-onaning gapini ikki qilmaslik, ota-onaning izmidan chiqmaslik, shu bilan birga otaga gap qaytarish, unga tik boqish gunoh hisoblanishi kabi holatlarni ko'rishimiz mumkin. Yoki ustozga hurmat bilan qarash kabi xislatlar ham katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Muloqotda turli xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan afsona, rivoyat, ertaklar, maqollar va hikmatlardan foydalanish ham kishini muomala mada niyatni kuchaytiradi va ikkinchidan katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Jamiyatni demokratlashtirish -maktabdagi munosabatlarni insonparvarlashtirishdir. Pedagogik amaliyot davrida talablar bilan birga maktab direktori fan bo'yicha eng ilg'or deb tanishtirgan o'qituvchining darsiga kirdilar. Haqiqatdan ham, o'qituvchi mavzuni juda yaxshi biladi, qator ko'shimcha adabiyotlardan foydalaniladi, mavzuni yorita oladi. Lekin o'quvchilarga nima bo'lgan? O'qituvchi qiziqarli, mazmunli savollar berayapti. Lekin hamma o'quvchilar pedagog fikrini tushunib etmayapti, ozgina yordam kerak. Lekin o'qituvchida o'quvchi javobini eshitishga chidam etishmayapti. Hatto bir qo'l ko'tarib javob bermoqchi bo'lgan o'quvchiga jerkib berdi: "Nimaga qo'lingni buncha chaypaysan? Sendan boshim og'rib ketdi" (Bilmasang nimaga qo'l ko'tarasan?)

Darsdan so'ng talabalar bir ovozdan darsni qoniqarsiz deb baholaydilar. Bu yerda faqat o'qituvchining bilimi emas, balki dars muhiti, o'qituvchi va o'quvchi muloqoti, munosabati muhimdir. Ayniqsa hozirgi kunimizda oldimizga erkin, mustaqil fikrlovchi har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalash vazifasi turganda, bu muloqot aslida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimovning "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nutqida ham alohida ta'kidlanadi: "Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasining ko'rgan shaxslar kerak". So'ngra esa Prezidentimiz maktablarda mutlaqo fikr yuritishga o'rgatilmayotganligining qoralab deydi: "Maktabda biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga u hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushub qoladi. Maktabdagi jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishini talab qiladi. Prinsip ham tayyor: "Mening aytganim-aytgan, deganim-degan".

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrleydigan etib tarbiyalanadi".

Bir maktab direktori shunday deydi: "O'quvchilar bilan bir o'zim kurashayapman, aslida hamma birga kurashishi kerak". U maktabdagi o'quv va tarbiya jarayonini yaxshilash uchun o'quvchilarga qarshi kurash yo'lini tanlagan.

Ularni o'z irodasiga bo'ysundirmoqchi. Buning natijasida bir biriga qarshi 2 lager yuzaga keladi: o'quvchilar va o'qituvchilar.

Muloqot-pedagogik faoliyatdagi eng muhim kasbiy quroldir.

Pedagogik muloqot-bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari vaqtda eng qulay psixologik muhit yaratishga qaratilgan kasbiy munosabatdir. Noto'g'ri pedagogik muloqotdan o'quvchida qo'rquv, ishonchsizlik, e'tibor, diqqat, ishchanlik pasayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil fikrlash pasayadi.

O'qituvining o'quvchilar bilan muloqoti bunday kayfiyatga yo'l qo'ymasligi, o'quvchini faollikka undashi, unda quvonch paydo qilishi kerak.

A.S.Makarenko fikricha o'qituvchi muloqoti hurmat va talabchanlikka asoslangan munosabat bo'lishi kerak.

V.Suxomlinskiy aytadiki: "Maktab hovlisida gapirilganda har bir so'z o'ylangan aqlli, maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak". O'qituvchi so'zi faqat quloqqa emas, balki yurakka ham qaratilgan bo'lishi kerak.

O'quvchi o'qituvchisiga do'stiga, o'rtog'i va ustoziga bo'lgan munosabatda bo'lishi kerak. O'qituvchi o'quvchi munosabati do'stlikka asoslanishi lozim.

Umuman ilg'or pedagoglar fikricha ta'lim faqat hamkorlik pedagogikasi pozitsiyasida bo'lishi kerak.

Pedagogik muloqot funksiyalari. Pedagogik muloqot sotsial-psixologik jarayon sifatida quyidagi funksiyalari bilan xarakterlanadi: shaxsni bilish; axborot almashinish; faoliyatni tashkil etish; rollar bilan almashish; boshqalar uchun qayg'urish; o'zini tasdiqlash.

Muloqotning axborot almashish funksiyasi materiallar va qadriyatlar bilan almashish jarayonini ta'minlab, hamkorlikdagi izlanish muhitini, o'quv tarbiya jarayoni uchun qulay sharoit yaratadi.

O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayoniga shaxsiy rol shakl kiritadi: o'quvchilarni darsning turli elementlarini bajarishga jalb etadi, o'quvchilarga tashkilotchi va ijrochi rollarida qatnashishga imkoniyat beradi.

Muloqot shaxsni o'zini tasdiqlash funksiyasini ham bajaradi. Pedagogning vazifasi o'quvchiga o'zining "Menligi"ni anglashga o'zining shaxsiy ahamiyatini bilishga, o'ziga baho berishga o'rgatishi kerak.

O'qituvchi darsni rejalashtira turib, faqat axborot berishni emas, balki bolalarni o'z fikrlarini bildirish, o'zini tasdiqlash uchun imkoniyat ham yaratish kerak.

Pedagogik muloqot tuzilishi. V.A.Kan-Kalik fikricha pedagogik muloqot jarayoni quyidagicha tuziladi:

1. Pedagog tomonidan sinf bilan bulg'usi muloqotni modellashtirish (prognostik etap).
2. Dastlabki o'zaro faoliyatdagi bevosita muloqotni tashkil etish. (Kommunikativ aloqa).
3. Pedagogik jarayon borishida muloqotni boshqarish.
4. Amalga oshirilgan muloqotni tahlil etish va uni yangi faoliyat uchun modellashtirish.

Muloqotning har bir bosqichida o'qituvchi nimani bilishi kerak?

Modellashtirish bosqichi auditoriyaning o'ziga xosligi, xususiyatlarini bilishini talab etadi: bilish faoliyati xarakteri, uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar: ish dinamikasi tayyorlanayotgan dars o'zaro hamkorlikka mos va faqat o'qituvchi shaxsidan emas, balki o'quvchi shaxsi tomonidan ham o'ylangan bo'lishi, turli variantlarda tuzilishi lozim.

"Kommunikativ ataka" bosqichida sinfni tezda ishga jalb qiladigan texnika kerak, o'zini namoyon qila olishi va dinamik ta'sir usullarini egallash lozim.

Muloqotni boshqarish bosqichida o'quvchilar tashabbusini quvvatlash, dialog muloqot tashkil etish, o'z fikrlarini real sharoitga moslay olish ko'nikmalari zarur bo'ladi.

Tahlil etapida maqsad, vosita va natijalar birgaligini tahlil etadi. O'quv tarbiya jarayonida o'qituvchi muloqotni tashkil etish va boshqarishda rahbar, tashabbuskor bo'ladi.

Insonning axloqiy tarbiyalanganligi uning atrofidagi narsalarga bo'lgan turli-tuman munosabatlarda namoyon bo'ladi. U insonning hislarida kechinmalarida ifodalanadi hamda xulq-atvorida hatti-harakatida bo'ladi.

Bolalarga yaxshilik qilish va mehribonlik ichki kechinmamiz bilan holatdagina emas, balki pedagogik faoliyatimizdagi bola bilan yoki sinf bilan munosabatdagi asosiy motiv asosiy rag'bat bo'lishi kerak.

Muomala rollar orqali shaxs faoliyati uchun sotsial maydon yaratib, unda u yoki bu sotsial xulq atvorni programmashtirish. O'qituvchi o'quv tarbiya jarayoniga shaxsiy roli shaklini kiritadi. Dars jarayonida o'quvchilarni o'qituvchi tashkilotchi va ijrochi rollarida bo'lishga imkon beradi. Muomala shaxsga o'zini tanishga o'rgatadi. O'qituvchi darsni rejalashtirar ekan faqat axborotni egallash haqida o'ylamasligi, balki avvalo o'qituvchining yordamiga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning o'zi ifodalay olishi uchun sharoit yartish haqida o'ylash, har bir o'quvchining qiziqishini ta'minlovchi sharoitlarni ko'ra olishi va hamkorlikni ta'minlanishi lozim.

Muomala jarayoni ikki tipda bo'lishi mumkin: Dialog va monolog. Monolog muomalada hamkorlik bir tomonning ijrochiligi asosida quriladi. Pedagogik faoliyat pedagogning bolalar bilan yaxshi munosabati jarayonida, ishni demokratik tashkil etish va birgalikdagi ijodiy faoliyat jarayonida bo'lishi mumkin.

Pedagogik muloqot bu o'qituvchi professional aktivligining bir ko'rinishi bo'lib, bunda ta'lim va tarbiya vazifalari o'qituvchi hamda o'quv tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir vositasi bilan hal qilinadi.

Bu vaziyatda o'qituvchi baho beruvchi rolida chiqadi, ikkinchi uning o'zi baho oluvchi hisoblanadi. Ravshanki bunday hollarda pedagogik ta'sir ko'rsatish vazifalari va vositalari ham o'qituvchining pedagogik muloqoti har xil bo'ladi. Biz quyida o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotini qarab chiqamiz.

Pedagogik muloqotning tarkibiy qismlari uning vazifalari o'qituvchining o'quvchilar va kasbdoshlari bilan uzviy aloqalari vositalar hamda usullari muloqot xarakteriga baho berishdan iborat bo'ladi. Muloqot vazifalari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: o'quvchiga yangi ma'lumot berish yoki fikr almashish, o'qituvchi va o'quvchilarning bir-birlarini o'zaro bilishlarini; bir-birini xulqlarini

tuzatish va boshqarish muloqot har bir ishtirokchisi shaxsning imkoniyatlarini ochish va undan foydalanish, ularning o'z oldilarida turgan muammolarni o'zlari mustaqil hal etishlari; o'qituvchi shaxsiy fikrining pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligi muloqot ishtirokchilarining bir-birlaridan qanoat qilganliklari va hokozo.

Pedagogik muloqotning boshqa jihati uning vositalari va usullaridir: vositalar tashkil etuvchi, baho beruvchi, intizomga undovchi bo'lishi mumkin. Adabiyotlarda o'qituvchi o'z ishining ustasi ekanligi ta'kidlanib intizomga undovchi vositalarga nisbatan tashkiliy ta'sir ko'rsatishga ko'proq yondashiladi.

Muloqot usuli sifatida shakllangan uslub amalda o'zining uchta shakli bilan namoyon bo'ladi, bilimlarni egallashda o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi hamkorlik qilishlari o'qituvchining o'quvchilarga tazyiq o'tkazish va ularning aktivligini ruyobga chiqarmasligi, o'qituvchining o'quvchilarga nisbatan neytral munosabatlarda bo'lishi va uning hal etilayotgan masaladan chetga chiqishi.

Muloqotdagi vaziyat bir xil o'zaro harakatni, boshqa ishtirokchiga tazyiq o'tkazishni, boshqa ishtirokchiga muvofiqlashni o'z ichiga oladi.

Muloqotga emotsional tus berish xarakteri neytral hol orqali ijodiydan salbiyligicha o'zgaradi. Bularning hammasi muloqot muhitini, sinfda ma'lum iqlimni yaratadi.

Yetuk pedagogik muloqot o'qituvchining o'z-o'zini muloqot jarayoni va natijalarini nazoraqt qilib borishini nazarda tutadi.

To'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot davomida o'qituvchi tanlagan vositalarni vazifa va sharoitlarga muvofiqligining o'lchovchi sifatida tushuniladigan pedagogik nazokat mujassamlanadi.

Pedagogik muloqotda qanday o'ziga xos qiyinchiliklari mavjud?

Eng avvalo, muloqot maxsus vazifalarining yo'qligidir, natijada o'qituvchi pedagogik muloqotni o'z mehnatining alohida tomoni sifatida qaramaydi, uni rejalashtirmaydi, muloqotning barcha vazifalari o'quvchilarga bilim berishga keltiriladi. O'qituvchi bilan o'quvchining bir-birlarini o'zaro tushunmasliklari, muloqot vositalarining qashshoqligi, bir xildagi zarbador emasligi ham uchrab turadi. M: o'quvchilarning tor doiradagi intizomga chaqiruvchi emosional jihatdan salbiy tus berilgan muloqot ularga ko'pincha aks ta'sir keltirib chiqaradi. Pedagogik muloqot usullari ustida ishlashning asoslangan programmasini tuzish uchun har bir o'qituvchi o'zining qiyinchiliklarini tahlil qilib chiqish muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik muloqotga doir barcha mashqlarning umumiy yo'nalishini mavjud pedagogik vaziyatlarda malaka hosil qilish har bir muloqot ishtirokchilarining imkoniyatlarini ochishga ko'maklashuvchi uning shaxsiy hislatlarini rivojlanib boruvchi ta'minlovchi va shu muloqot orqali qoniqtiriladigan va hakoza vositalardan foydalanishi tashkil qiladi. Bunga bir qator mashqlar imkon tug'dirishi mumkin. Muloqotga boshqa kishilarning subyektiv qarashlarini aniqlash, bu odam bilan muloqotda oqilona hal qilinishi zarur bo'lgan vazifalarni aniqlash, masalan uning xulqini tuzatish yoki unda shunchaki ishonch kayfiyatini yaratish.

Mazkur vaziyat uchun o'zaro harakatlarning sistemali vositalari majmuasini belgilash:

- muloqotda boshqa kishining javob harakati imkoniyatini oldindan ko'ra bilish;

- boshqa odamda psixologik to'siq va qarashlik keltirib chiqaruvchi vositalarini qo'lga kiritish;

- vaziyatning o'zgarishiga qarab foydalanishi mumkin muloqotlarning bir necha modeliga ega bo'lish;

- boshqa odamlarni tinglash, uning fikrlariga qo'shilish, unga hamdardlik ko'nikmasini rivojlantirib borish;

- muloqot natijalarini baholash va ularni ifodalanilgan vositalar bilan taqqoslash.

Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot xarakteri o'qituvchi shaxsi, uning qarashlari nuqtai nazarlarida xulqida namoyon bo'ladigan g'oyaviy siyosiy saviyasi, professional tayyorgarligi va bilishga intilishi bilan uzviy bog'liq.

Bu asosiy hislatlardan tashqari o'qituvchining umumiy va boshqa qobiliyati, uning moyilligi xarakteri, muvaqqat psixik holatlari shuningdek to'plangan tajribasi muhimdir. O'qituvchi shaxsini xarakterlash uchun faoliyatning individual uslubi kabi yig'ma ko'rsatkichlar, jumladan individual faoliyat uslubidan ham foydalanadilar

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi kasbiy faoliyatida qanday ahamiyat kasb etadi?
2. O'qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirish metodikasi qanday bosqichlardan iborat?
3. O'qituvchi pedagogik muloqot madaniyatiga erishish uchun qanday vaziyatlarni e'tiborga olish darkor?
4. O'quvchilar diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash lozim?
5. O'qituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga xos xususiyatlariga ta'rif bering?
6. O'qituvchining pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish yo'nalishlari?
7. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi holatlar?
8. O'qituvchining muloqotga kirishishi deganda nimani tushunasiz?
9. Yosh o'qituvchilarning pedagogik muloqot madaniyatiga xos xususiyatlar?
10. O'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar?
11. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'rfi bo'yicha ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir etuvchi muhim hayotiy omil nima?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq", 1997, 20-29 betlar.

2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent; "Sharq", 1997,31-61 betlar.

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: "O'zbekiston", 2009.-176 b.
4. Mahmudov N. M. O'qituvchi nutq madaniyati. Darslik.-T.: O'zb. Milliy kutubxonasi, 2007.-185 b.
5. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T.: O'qituvchi, 1996.-192 b.
6. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. Asarlar 15-tom.- T.: "Fan" 2005.
7. Ochilov M. Muallim qalb me'mori: Saylanma. -T.: O'qituvchi, 2000.
8. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.- "Iqtisod moliya". 2009. -240 b.
9. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar)-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007 -380 b.
10. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.
11. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005,-149 b.
12. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.-T.: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.-187 b.
13. O'zbek pedagogikasi tarixi.//A.Zunnunov tahriri ostida.-T.: O'qituvchi, 1997.-272 b.
14. Husanov B. G'ulomov V. Muomala madaniyati. Darslik.-T.: "Iqtisod-moliya" 2009,- 156 b.

6-MAVZU. O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI MULOQOT

R E J A:

1. Pedagogik muloqot uning o'ziga xos xususiyatlari va vazifasi.
2. O'quv tarbiya jarayonida pedagogik muloqotni boshqarish uslublari. Tashabbusni boshqarish, muloqot turlari.
3. O'qituvchining o'quvchi, o'quvchilar jamoasi, o'qituvchilar jasmosi, maktab rahbariyati, ota-onalar bilan muloqot madaniyati.
4. Muloqotda ishonitirish, ta'sir etish usullaridan foydalanish.

Tayanch tushunchalar

Muomala kategoriyasi; muloqot; axloqiy me'yorlar; nutq dinamikasi; muloqot funksiyalari; prognostik etap; norasmiy liderlar; modellashtirish; pedagogik jarayon; kommunikativ aloqa; tashkilotchi va ijrochi; interaktiv muloqot; perseptiv muloqot; jonli muloqot; muloqot odobi; tavoze; ishonchni qozonish; ta'sir etish; ma'qullash; demokratik yondashuv; avtoritar uslub; demokratik uslub; liberal uslub; muloqotni boshqarish bosqichlari; muloqotni ta'minlaydigan talablar.

Muomala kategoriyasi umumiy psixologiya fanining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o'z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi. Psixologiya fanida muomala kategoriyasi keng ma'noda tushunilganda hamkorlik faoliyatining ichki aloqasini mujassamlashtirib, o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatni aks ettirib, ijtimoiy prosessual jabhasini ifodalaydi. Muomalaning eng muhim tarkibi muloqot sanalib,

motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o'ynaydi.

Muomala-hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiquvchi, shaxslararo muloqot rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muomala quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

1. Kommunikativ (bir tomonlama axborot uzatish. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashuvni qamrab olgan bo'lib, kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotda kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri tilga va nutq faolyaitiga bevosita murojaat qiladilar.

2. Interaktiv (ikki tomonlama ta'sir)-muloqotga kirishuvchilarni o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatid nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, balki hatti-harakat va xulq atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazishi tushuniladi.

3. Perseptiv (o'zaro bir-birini idrok qilishi, anglashi) bunda muloqotga kirishuvchilar o'zaro bir-birlarini idrok qilish jarayoni namayon bo'ladi, ya'ni ulardan biri ikkinchisining ishonchiga loyiq, aqlli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega inson sifatida idrok qilinadi.

Muomalaning har uchala tomonini birlikda yaxlit olib qarash, u hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usuli va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari tariqasida namayon bo'ladi.

Kasbiy muammoni muvaffaqiyatli yechish mumkinki, qachonki o'qituvchi bilan o'quvchilar (talaba) hamkorlik faoliyatiga kirisha olsa, shaxsni shakllantirishning maqsad va vazifalariga o'zaro ta'sir va tushunuvchi yo'lga qo'ya olsa shundagina pedagogik muomala amalga oshadi.

Pedagogik muomala-bu o'qituvchining talabalarga ta'sir o'tkazish usullarining muayyan tizimidir.

- hamkorlik ishtirokchilarning o'zaro axborot almashuvi
- turlicha kommunikativ vositalar yordamida o'qituvchi tomonidan talabalar bilan o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatni tashkil qilish
- muayyan maqsadni dasturiy asosda amalga oshirishning rejalashtirish va o'tkazish funksiyasini bajaradi.

Pedagogik faoliyatda muomala birinchidan, o'quv faoliyatini yakka hol bajarishning vositasi, ikkinchidan tarbiya jarayonini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik tizimi, uchunchidan ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi o'qituvchi bilan talabalarning o'zaro munosabatining muayyan tizimini tashkil qilishning usuli, to'rtinchidan talaba individualligini takomillashtirish, iste'dodini qaror toptirish imkonini beruvchi jarayon ekanligi, beshinchidan yakka hol faolyaitning sub'ekti sifatida ruyobga chiqarish asosidir.

Pedagogik muomala deganda o'qituvchi va talabalar (o'quvchi) jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimi anglashinib uning mohiyati, o'zaro axborot almashishi, ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir o'tkazish o'zaro tushunishga erishish va uni tashkil etish tushuniladi.

Muomala jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonun qoidalar muhim ahamiyatga ega. Bu

nazoratda 3 ta muhim ta'sir etish vositasi ishtirok etadi: ma'qullamaslik, qoralash va jazolash.

Muomala jarayonida o'quvchi yoki talaba xulqi ijtimoiy qonun-qoidalar maromiga zid kelsa, u holda uni hatti harakati qoralanadi, e'tiroz, tanbeh, eslatish kabi vositalar bilan ta'sir o'tkaziladi. Muomala vaqtida odob, odoblilik muhim ahamiyatga ega bulib, uning muvaffaqiyatli kelishini ta'minlaydi. Uning asosiy vazifalari (axborot almashinuv, o'zaro ta'sir, o'zaro idrok qilish) to'g'ri amalga oshirishni idora qilib turadi.

Har bir fikr bildirilganda muloqotdan qabul qilinayotgani fahmlab turishi tashqi ko'rinishlari, o'zgarishiga e'tibor berish, uzr so'rash, tavoze bilan murojaat qilish evaziga muomala odobi ushlab turiladi.

Muomala jarayonida bir hatti-harakat o'ylanmay bildirilgan fikr, ortiqcha imo-ishora odobsizlikni keltirib chiqaradi.

Odobsizlik esa nizoli vaziyat, qarama-qarshilik ziddiyatli holatni keltirib chiqaradi. Buning natijasida muomala fikr almashuv o'zini vazifasini nizoli vaziyatga bo'shatib beradi.

Pedagogik muomalada psixologik aloqa o'rnatish alohida ahamiyatga ega, chunki talaba bilan o'zaro munosabat, hurmat, ishonch negizida quriladi. Bunda o'qituvchi talabaning huquq va majburiyatining uning maktabda, jamoada, oilada bajaradigan roli nimada iborat ekanligini e'tibordan chetga chiqarmasligi lozim.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqotni boshqarish uslublari. Psixologiyada rahbarlarning o'z jamosi a'zolari bilan munosabat texnikasi tahlil etilib, turli tipdagi ijtimoiy-psixologik portretlari ishlab chiqilgan. Rahbarlarning muloqotni boshqarish uslublari: avtoritar, demokratik, liberal uslub tarzida berilgan. Mana shu uslublarni pedagogik muloqotda o'qituvchi rahbarligi uslubi tarzida ko'rish mumkin.

Avtoritar uslub. O'qituvchi guruhning faoliyat yunalishini shaxsan o'zi belgilaydi, kim-kim bilan o'tiradi, kim bilan ishlaydi o'qituvchi o'zi hal qiladi. Bunday uslubda ish yurituvchi o'qituvchi o'quvchilar tashabbusiga yo'l bermaydi. Hamkorlikning asosiy shakli-buyruq, ko'rsatma, instruksiya, ogohlantirish. Hatto kamdan kam bildiriladigan minnatdorchilik ham kamsitish shaklida bo'ladi. "Sen bugun yaxshi javob berding. Sendan buni kutmovdim" kabi.

O'quvchi xatosini ko'rsa, uni tuzatish o'rniga ustidan kuladi. U yo'qida ish sekinlashadi yoki butunlay to'xtab qoladi.

Demokratik uslub. O'qituvchi faoliyat maqsadini har bir o'quvchi ongiga etkazishga, ish borishini hal etishga hammani faol ishtirok etishga undaydi. O'zining vazifasini faqat nazorat va muvofiqlashtirishda emas balki tarbiyalashda deb biladi, har bir o'quvchi rag'batlantiriladi, unda o'ziga ishonch paydo bo'ladi, o'z-o'zini boshqarish rivojlanadi. Demokratik uslubda boshqaruvchi o'qituvchi bolalarning individual qobiliyat va qiziqishlarini hisobga olib vazifalarni optimal tarzda taqsimlashga undaydi. Faollikni rag'batlantiradi, tashabbusni quvvatlaydi. Muloqotning asosiy shakli-iltimos, maslahat, axborot tarzida bo'ladi.

Liberal uslub. O'qituvchi jamoa faoliyatiga aralashmaslikka harakat qiladi, faollik ko'rsatmaydi, maslahatlarga formal qaraydi, turli ta'sirlarga tez beriladi. Javobgarlikdan o'zini olib qochadi.

Eng yaxshi uslub-demokratik uslub. Miqdoriy ko'rsatkichlar avtoritar uslubdan kam bo'lishi mumkin, lekin ishlash ishtiyoqi rahbar yo'g'ida ham davom etadi. Ijodkorlik yuqori bo'ladi, javobgarlik hissi, o'z jamoasi uchun faxrlanish rivojlanadi. Eng yomon uslub-liberal uslub bo'lib, bunda ham ish kam bajariladi, ham sifat yomon bo'ladi.

Avtoritarizm o'qituvchi yetukmasligini, uning axloqiy va siyosiy tarbiyasizligini, pedagogik madaniyati pastligi bilan xarakterlanadi.

O'qituvchilar maktab amaliyotida axloq tarbiyasida qo'llashi mumkin bo'lgan quyidagi asosiy pedagogik uslub turlari mavjud:

1. Tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga demokratik yondoshish, tarbiyaviy ishlar natijasini oshkora muhokama qilish va uni o'quvchilar bilan birgalikda baholab, kelgusi rejalarni tuzishni taqozo etadi. Bu uslub pedagog-o'qituvchi - o'quvchilar jamoasida shaxslararo munosabatlarni erkinlik, demokratik talablar asosida shakllantirib, o'quvchilarning tashabbuskorligi, o'z-o'zini tarbiyalash ishiga ijodiy yondashish orqali barcha psixologik-individual imkoniyatlarini, qobiliyatini ro'yobga chiqarishga zamin yaratadi.

2. O'quvchilar bilan do'stona munosabat-pedagogik uslub. U o'quvchi shaxsini hurmat qilish va talabchanlik mezonini asosida qurilgan. Ushbu uslub asosida o'z faoliyatini tashkil etgan pedagog har o'quvchining kelajagiga umid bilan qarashi, unga individual yondoshishga harakat qilishi, jazo usullarini tartibsiz qo'llamasligi, o'quvchilar kollektivi oldiga istiqbolli tarbiyaviy maqsad qo'yishga intilishi lozim. Aslida bu uslub biz ko'rib o'tgan birinchi uslubga o'tishga zamin tayyorlashi, unga muqaddima bo'lishi mumkin. Aksincha, o'qituvchi ma'lum pedagogik mohiyatga ega bo'lishga intilmasa, o'z fanidan bilimi sayoz bo'lsa, shaxslararo munosabatlarga ijodiy yondoshmasa, kommunikativ qobiliyatini takomillashtirib bormasa o'quvchilar uni "katta birodar", "konsul'tant" sifatida asta-sekin tan olmay qo'yishadi. Pedagog o'zining tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishdagi yetakchilik rolini yo'qotib, o'quvchilar hurmatini yengil yo'l bilan qozonmoqchi bo'lgan bachkana shaxsga aylanib qolishi mumkin.

3. Pedagogik muomala-masofa uslubi. Bundan tajribali pedagoglar ham, faoliyatini endi boshlagan yosh o'qituvchilar ham foydalanishiga harakat qilishlari mumkin. O'qituvchilar asosan pedagogik talabga tayanadilar: o'quvchilar oldiga ma'lum tarbiyaviy maqsadlarni qo'yib, uni bajarilish jarayonini kuzatish, xatolarini tuzatish, baholash bilan mashg'ul bo'lادilar. Bunday pedagoglar o'qitayotgan sinflarda tarbiyaviy maqsadlar nomigagina amalga oshiriladi; tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarda hatti-harakat motivlari, rivojlanish ehtiyojlarini shakllantirmaydi. Nari borsa, sinf o'quvchilari axloqiy bilimlarni o'zlashtirib olishlari mumkin. Lekin bu xil bilimlar amaliyotda kam qo'llaniladi.

4. Qo'rquvga asoslangan uslub. Bundan odatda yosh, tajribasiz o'qituvchilar foydalanishiga harakat qiladilar. Ushbu uslub asosan taqiqlashga tayanadi. Bolalar faolligi, tashabbuskorligi inkor etiladi. Bu uslub maktab islohoti manfaatlariga mutlaqo mos emas.

5. Ustamonlik qilishga harakat qilish uslubi. Uni odatda ma'lum bilimlarga ega bo'lmagan, pedagog sifatida o'ziga ishonchi yo'q, sinfda o'quvchilar kollektivini boshqara olishga ko'zi yetmagan ayrim o'qituvchilar qo'llashga

harakat qiladilar. Ammo o'quvchilar ertami-kechmi bu nayrangbozlikning oxiriga etadilar. Buning oldi olinmasa, sinfda tarbiyaviy ishlarga jiddiy putur etishi mumkin. O'quvchilar hurmatini qozonishga intilish pedagogik maqsad bo'libgina qolmay, balki tarbiya maqsadlarini amalga oshirish vositasi hamdir.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, birinchi va ikkinchi pedagogik uslublar tarbiyaviy faoliyatda yaxshi samara beradi; uchinchi, to'rtinchi va beshinchi pedagogik uslublardan pedagoglar iloji boricha o'zlarini halos qilishlari kerak.

O'qituvchining talabalarga ta'sir o'tkazish samarasi uning prinsipialligi va talabchanligi o'z aksini topadi. Bundan tashqari u o'ziga ham o'ta talabchan bo'lmog'i, shaxsiy namunasi bilan tabiiy ravishda obru, e'tibor qozonmog'i lozim.

Muomala jarayonida va hamkorlik faoliyatida o'qituvchining talabalarga ta'sir o'tkazish natijasida ularda:

- o'z-o'zini va o'zgalarni ho'rmat qilish;
- o'z-o'zini va boshqalar faoliyati, xulqini baholash;
- o'z-o'zini nazorat va o'zgalarni nazorat qilish;
- o'z-o'zini takomillashtirish va yangi fazilatlarni egallash shakllanadi.

Do'stona muomala talaba bilan o'qituvchi o'rtasidagi bilimlarni puxta o'zlashtirishni ta'minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobi muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasi aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga o'z kasbiga, o'quvchilarga bo'lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namayon bo'lishi mumkin.

Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomala - munosabatlar katta o'rin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat asrlar davomida to'plangan bilimlarni axloqiy tajribani egallab oladi. Muallim pedagogik jarayonda yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o'qituvchiga, uning axloqiy sifatlari xulqiga, o'quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo'yiladi. Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar yosh bolalar bilan muloqotda bo'ladi.

Bolalar ta'lim tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy axloq normalarini o'zlashtiradi. O'quvchi muomala odobini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladi. Pedagoglar jamoasida o'qituvchilar o'rtasidagi muomala munosabatlar insonparvarlik, ixtiyoriylik tamoyillariga asoslanadi. Ular odatda ikki xil bo'lib biri rasmiy, ikkinchisi norasmiy muomala deyiladi. Rasmiy muomala munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonunlari, direktiv hujjatlariga asoslanadi. Norasmiy muomala pedagogik etikaning qonunlariga (o'qituvchi odobining) asoslanadi va jamoaning har bir a'zosi tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi. Muomala odobi psixologik qonuniyatlari, odob normalari, qoidalari, talablari pedagoglar jamoasining fikri asosida boshqariladi. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish bir kishining ishi emas, uning pedagoglar jamoasi bajaradi. Ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun maktab, o'quv yurtining butun jamoasi, hamma o'qituvchilar birlashib harakat qilishlari lozim. Har bir muallimning hatti-harakati, xulqi, muomalasi pedagoglar jamoasining maqsadi talablariga mos bo'lmog'i kerak. Jamoaning ayrim o'qituvchiga ta'siri pedagoglar jamoasida

shakllangan muomala odobi, munosabatlariga bog'liq. Har bir bolaning tarbiyasi uchun mas'uliyatning birligi pedagoglar jamoasining o'quvchiga nisbatan talablari ham bir xil bo'lishini taqozo etadi. Bu o'qituvchi odobining qonuniyatlaridan biridir. Darsda o'quvchilarning intizomi pedagogik jamoadagi muomala odobi, axloqiy munosabatlar darajasini ko'rsatadi. Maktabda o'quv intizomini saqlash butun pedagoglar jamoasining ishi. Pedagoglar jamoasida o'zaro yordam va ishonchning mavjudligi muomala odobiga rioya qilish pedagoglar jamoasining maqsadga o'qituvchilarning axloqiy saviyasiga bog'liq. Pedagoglar jamoasida o'zaro muomala munosabatlar kollegiallik va yakka boshchilikka, intizomni saqlashga asoslanadi. Pedagogik jamoada sog'lom aqliy ruhiy muhit mavjud bo'lsa, axloqiy norma va yo'l-yo'riqlar bajarilibgina qolmasdan balki ular har bir muallimning e'tiqodiga odatiga aylanadi. Pedagoglar jamoasining shaxs va kollektiv uchun foydali ishlariga asoslangan ta'sir natijasida muallimning ma'naviy qiyofasida chuqur sifat o'zgarishlari sodir bo'ladi. Ijtimoiy burchni to'g'ri anglash, xulqni to'g'ri baholay olish odatda shakllanadi, jamoada o'zaro muomala yaxshilanadi. Pedagoglar jamoasidagi muomala munosabatlar bu oddiy do'stlik va qo'shnichilik emas, balki umumiy ish uchun javobgar jamoa a'zolarining mas'uliyatli bog'lanishlaridir.

Pedagoglar jamoasida ijodkorlik muhiti muomala odobini shakllantirishning muhim shartidir. Muomala odobining shakllanishida jamoat tashkilotlarining roli kattadir. Ular muallimning obro'sini oshirish jamoat ishlarida faol qatnashtirish yo'li bilan o'qituvchining axloqiy va pedagogik majanivati, mas'uliyatini oshirishga ko'maklashadi. Muallim har bir so'zini o'ylab gapirishi, boshqalarning, kasbdoshlarining so'zi, fikri, mulohazalarini tinglab bilish ham pedagogik jamoada o'zaro muomala munosabatlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Pedagogning tutgan yo'li. Agar o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan muayyan holatda tursagina (bu holat ularning yoshiga qarab turlicha bo'ladi) pedagogik ta'sir ko'rsatishni muvaffaqiyatli amalga oshira oladi. Mazkur holat o'quvchilar bilan muomala sohasida o'qituvchining asosiy yo'l-yo'rig'idan iborat bo'lib, u o'quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlariga monand bo'ladi. O'quvchilar yoshiga muvofiq ravishda o'qituvchi holati (tutgan yo'li)ning o'zgarish mezonini - bu o'quvchilar jamoasiga nisbatan tashqi holatdan ma'lum darajada ichki holatga o'tish, o'quvchilarga bevosita ta'sir ko'rsatishning kamayishi va bevosita ta'sirning ortishi; jamoani boshqarish vazifalarining bir qismini o'quvchilarni o'z-o'zini boshqarish organlariga berish, har bir bola shaxsining ichki olamiga ko'proq ta'sir ko'rsatishiga o'tishdir.

Turli yoshdagi o'quvchilarning muomalasiga ta'sir ko'rsatish sub'ekti bo'lgan o'qituvchi tutgan yo'lning umumlashtirilgan tavsifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Quyi sinflarda o'qituvchi tashkilotchi bo'lib maydonga chiqadi. (Tuzuvchi, ta'sis etuvchi). Pedagogning kichik yoshdagi o'quvchilar hayotiga ta'sir ko'rsatishining asosiy mazmuni uni tashkil etish zarurati bilan belgilanadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar jamoalarida talabchan va quvnoq tarbiyachi bo'la oladigan bolalarning faol ijodkorlik bilan to'la hayotini tashkil etib, ular orasida o'zaro xayrixoxlik, g'amxo'rlik vaziyatini, zavqli vaziyatni vujudga keltira oladigan tarbiyachilar katta obru-e'tibor qozonadilar. Bolalar katta yoshdagi

bunday kishilarni o'z do'stlari deb qabul qilishga moyildirlar. Bu eng yaxshi munosabat bo'lib, u tarbiyachining tashkiliy vazifalarni hal etishini osonlashtiradi.

O'smirlar o'qiydigan sinflarda o'qituvchining holati rahbar degan so'z bilan ifodalanishi mumkin. U ko'rsatuvchi, murabbiy, boshlovchi sifatida ish ko'radi. Pedagoglarning o'smirlarga ta'sir ko'rsatishining asosiy mazmuni ularning faoliyatiga rahbarlik qilish zarurati bilan belgilanadi, bu faoliyat o'z-o'zini tashkil qilishning ko'proq ulushini o'ziga qamrab oladi. Bu esa o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonining rahbari sifatida o'quvchilarga qo'yadigan talablari mazmunini belgilab beradi. O'smirlar pedagogik talablarni ongli va sidqidildan bajarishlari uchun talab mavzuiga nisbatan o'qituvchi va o'quvchining bir xil yo'l tutishi zarurdir, u bilish nuqtai-nazaridan qiziqarli bo'lishi yoki amaliy jihatdan foydali bo'lishi zarur, yoxud jamoa faoliyat jarayonini qulaylashtirish uchun zarurdir, aks holda talab samarasiz bo'lib qoladi.

Katta yoshdagi o'smirlarga nisbatan o'qituvchi homiy yoki tarbiyachi holatida turadi. Bunday holat shuni taqozo qiladiki, o'qituvchi faoliyatining shunday sohalorida, ya'ni bevosita aralashuv kam samara beradigan sohalarda o'quvchilarning o'zaro harakatlariga alohida e'tibor berish lozim, bu esa pedagogdan katta yoshdagi o'smirlarga o'ziga xos homiylik qilishni talab etadi, bu avvalo ularning bu sohadagi ahvoli yaxshi bo'lishi haqida bevosita g'amxo'rlikni o'z ichiga oladi. Shu munosabati bilan o'qituvchilarning o'quvchilar bilan munosabati xarakteri ko'p jihatdan pedagoglarning katta yoshdagi o'smirlarning o'ziga xos bo'lgan katta bo'lishga intilishdan iborat yosh xususiyatini qanchalik hisobga olishiga bog'liq.

O'qituvchi o'quvchilarning katta bo'lib qolganligini e'tirof etishmagach, ularning bir qismi o'qituvchilar bilan o'zlarining chinakam qiyofalarini yashirib muomala qila boshlaydilar. Ular ba'zan o'qituvchilarga ma'qul tarzda o'zlarini tutishga intiladilar. Shunday qilib, tarbiyalanuvchilarda moslashuvchanlik va nosamimiylik kabi xususiyatlar shakllanishi uchun zamin yaratiladi. Bu esa o'qituvchining o'quvchilarga ta'sirini qiyinlashtiradi, ularni to'lqinlantirayotgan muomalalarni hal qilishga yordam ko'rsatish, ya'ni homiylik pozitsiyasini ro'yobga chiqarish imkoniyatidan mahrum etadi.

Yuqori sinflarda o'qituvchining holati konsul'tant, ya'ni muayyan sohada maslahatlar beruvchi mutaxassis so'zi bilan ifodalanishi mumkin. O'quvchilarga ta'sir ko'rsatish mazmuni o'qituvchi ularning faoliyati bilan bog'liq ravishda beradigan tavsiyalar bilan belgilanadi.

O'qituvchi bilan o'quvchi obyektiv ravishda turli avlod vakillari hisoblanadilar. Har bir yangi avlod oldingi avlodlarga nisbatan birmuncha yangi sharoitda hayotga kirib keladi. O'quvchilarning o'zlari ham avloddan-avlodga o'zgarib boradilar. Buning oqibatida har bir yangi avlod ota merosini passiv ravishda emas, balki faol ravishda o'zlashtiradilar. Bu o'zgartirish katta avlodlar bilan doimiy muloqotda bo'lgandek sodir bo'ladi. O'qituvchi yuqori sinf o'quvchilari bilan muloqot yo'li bilan muomala qilganda o'tmish g'oyaviy merosining muhim ahamiyatini tasdiqlab borishi lozim. Bunday holda u keng muammolar bo'yicha maslahatchi bo'lib qoladi va yuqori sinf o'quvchilariga samarali ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ishontirish va ma'qul qilish. Ishontirish faqat o'qituvchi bilan muloqotga emas balki boshqa hollarda ham o'quvchiga ta'sir qiladi. (O'rtacha qobiliyatli, sekinlik bilan ish qiluvchi o'quvchi borgan sari yomon o'zlashtiradigan bo'la boradi. O'qituvchining "Nima uchun o'zlashtirmayapsan?" degan savoliga "Mening kallam ishlamaydi", deb javob beradi. Suhbatdan aniq bo'ladi-ki, uyda vazifa bajarganda buvisi yonida o'tirgan va uning sekin harakatlanishi va sekin fikrlashidan zerikib "Sening kallang ishlamaydi", degan ekan. Bola bu fikrga o'zini ishontirib yomon o'zlashtira boshlagan).

Ishontirish ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. O'qituvchi o'quvchida ijobiy holat - uy vazifasi tayyorlashga shakllanishini xoxlaydi. Uning ko'ziga ifodali qarab, hukmron tovushda deydi: "Sen yaxshi o'qishni xohlaysan va o'qiy olasan. Bugun soat 3da dars tayyorlashga o'tirasan".

shaxs rivojlanishiga o'z-o'zini ishontirishning o'rni muhimdir. O'z-o'zini ishontirishning yuksak darajasini biz yoglar faoliyatida ko'rishimiz mumkin.

O'quvchi o'z kamchiligini bilib, uni to'g'rilashga kirishishini ko'rsak o'z-o'zini ishontirdi deb bilamiz. Ba'zan esa salbiy holatlar, sifatlarga o'z-o'zini ishontirish ham bo'ladi.

O'z-o'zini ishontirish tarbiyaviy maqsadlarda qo'llash faqat yetarli darajada rivojlangan shaxsda qo'llash mumkin.

Ishonuvchanlik - bu kishining o'z xulqini boshqa kishi yoki kishilar guruhi talabi bilan o'zgarishi.

Ishonuvchanlik - nerv sistemasining normal holati. Lekin uning aks etishi turli hollarda turlicha. U yoshga (yoshroqda yuqoriroq), jinsga (ayollarda ishonuvchanlik), intellektga (ma'lumot oshishi bilan inonuvchanlik pasayadi), sog'liq holatiga (charchaganda, kasallikdan so'ng ishonuvchanlik yuqori bo'ladi) va boshqa omillarga bog'liq. Bundan tashqari ishontiruvchi shaxsning roli ham muhim.

Yosh o'qituvchi pedagogik mahoratida mujassamlashgan nutqning jozibadorligi, bilim saviyasining va tafakkurining kengligi, o'tkir dunyoqarashi, ma'naviy madaniyat darajasi, pedagogik qobiliyati, ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarning mutanosibligi har qanday dars va darsdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy tadbirning muvaffaqiyatini ta'minlovchi hamda o'qituvchi jonli muloqotini tashkil etuvchi omillardir. O'qituvchi kasbiy faoliyatidagi jonli muloqot qobiliyatini takomillashtirish uchun o'z oldiga doimo quyidagi savollarni qo'yib, unga mustaqil fikr-mulohazasi asosida javob bera olishi kerak:

1. **Nimaga o'rgatish:**

a) o'quvchilarni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ilmiy yangiliklardan xabardor etish, fan terminlarini tushuntirish, o'quv predmetini to'liq o'zlashtirish;

b) o'quvchilarda shaxs erkinligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

v) o'quvchilarning o'rganilayotgan fan bo'yicha qobiliyatlarini, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

g) yangi mavzuni fanlararo aloqadorlik asosida tushuntirish;

d) dars jarayonini pedagogik va axborot texnologiyalarining qiziqarli metodlari asosida tashkil etish.

2. **Kimni o'rgatish:**

- a) kelajakda mamlakat taraqqiyoti uchun mas'ul, davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lmish barkamol insonga ta'lim-tarbiya berish;
- b) o'quvchilarni bilim olish va tarbiyalanishi jarayonida duch keladigan muammolar va qiyinchiliklarni mustaqil bartaraf etishga o'rgatish;
- v) o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;
- g) dars va darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchilar fikrlarini inobatga olgan holda tashkil etish;
- d) yosh va murg'ak qalb egasi bo'lmish o'quvchilarning psixologik o'zgarishlari va rivojlanishlarini inobatga olish;
- e) iqtidorli o'quvchilar bilan yakka holda pedagogik faoliyat olib borish.

3. **Qanday o'rgatish:**

- a) o'qituvchi o'z faoliyati davomida to'plagan pedagogik tajribalari asosida kompyuter, axborot va innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda ta'lim berishi;
- b) yuksak pedagogik mahorat bilan dars va darsdan tashqari vaziyatlarda tarbiyaviy jarayonni milliy mafkura, an'ana va qadriyatlar asosida tashkil etish;
- v) o'quvchilarni bilim olishga qiziqishini oshirish maqsadida pedagogik ta'sir ko'rsatishning turli usullaridan foydalanish;
- g) ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda belgilangan maqsadga erishish uchun, mahalla faollari, ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikni mustahkamlash.

O'qituvchining o'quvchilar hamda o'qituvchilar jamoasi bilan uzviy aloqada bo'lishi, uning jonli muloqotni to'g'ri tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar bilan jonli muloqotga kirishib, ularning hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lish birdaniga sodir bo'ladigan va ta'lim-tarbiya sohasida yutuqlarga darhol yetaklaydigan jarayon emas. Buning uchun o'qituvchi yillar davomida tayyorlanadi, pedagogik mahorat sirlarini egallaydi, tajribali ustoz o'qituvchilarning yutuqlaridan foydalanadi. Yosh o'qituvchilar uchun jonli muloqotni yaratishda quyidagi vazifalarga e'tibor berish talab qilinadi:

- o'quvchilarning individual xususiyatlarini, psixik holatini chuqur o'rganish, sinf jamoasining rasmiy va norasmiy liderlari faoliyati bilan tanishish, ularga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish;

- jonli muloqot asosida mustaqil fikrlovchi, o'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga intiluvchi erkin shaxsga ta'lim-tarbiya berishi shartligini unutmaslik;

- jonli muloqotning pirovard natijasi o'quvchilarni o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati bilan mas'uliyatni his etishini ta'minlashi, ularni ongli ravishda ozod va hur fikrlovchi inson bo'lib tarbiyalanishini ta'minlash;

-jonli muloqot tufayli o'quvchilarning yuksak darajadagi intellektual salohiyatlarini, aql-zakovati qudratini yuzaga chiqarishga erishish.

Pedagogikada jonli muloqotning muhim jihatlaridan biri uning vositalaridir. Vositalar tashkilotchilik qobiliyati, baho beruvchi, intizomga undovchi bo'lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda o'qituvchi o'z ishining mohir ustasi bo'lishi uchun tashkilotchilik qobiliyati asosida ta'sir ko'rsatishga ko'proq yondashishi lozimligi ta'kidlanadi.

O'qituvchilarning jonli muloqoti uchta qarama qarshi shakllarga ega bo'lgan faoliyatlardan birida namoyon bo'ladi:

- ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikda hamkorlik qilishlari;

- o'qituvchining o'quvchilarga tazyiq o'tkazishi va ularning faolligini ro'yobga chiqarmasligi;

- o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muloqotda, nisbatan mo'tadil munosabatda bo'lishi va o'quvchi jamoasi tomonidan hal etilayotgan barcha muammolardan o'zini chetga olishi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Pedagogikada muloqot qanday xususiyatlarni o'zida namoyon etadi?
2. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad nima?
3. Pedagogik muloqot funksiyalariga ta'rif bering?
4. V.A.Kan-Kalik o'qituvchining pedagogik muloqoti tizimini qanday yo'nalishlar asosida ta'riflaydi?
5. Muloqotning har bir bosqichida yosh o'qituvchi nimani bilishi kerak?
6. Tashkilotchi va ijrochi o'quvchilar to'g'risida tasavvurlaringiz?
7. O'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqoti qanday prinsiplarda amalga oshiriladi?
8. O'qituvchining jonli muloqoti qanday uslublar asosida takomillashtiriladi?
9. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot orqali qanday ta'lim va tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi?
10. O'qituvchining pedagogik ta'sir etuvchi usullariga ta'rif bering?
11. O'qituvchining rahbar sifatida sinf jamoasini boshqarishda qo'llaydigan muloqot uslublari?
12. O'qituvchi muloqotini ta'minlaydigan asosiy talablar haqida o'z fikringizni bildiring?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamolavlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. —Toshkent; "Sharq", 1997, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent; "Sharq", 1997, 31-61 betlar.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: "O'zbekiston", 2009.-176 b.
4. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov.-To'ldirilgan 2-nashri.-T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2000.-248 b.
5. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении: //Кн. для учителя. 1987.-190с.
6. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X. Toxtaxodjayeva va boshqalar)-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007.-380 b.
7. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.
8. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005,-

149 b.

9. Suxomlinskiy V.D. Bolalarga jonim fido.-T.: "O'qituvchi", 1984.-254 b.
10. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma (L.I.Ruvinskiy tahriri ostida).-T.: "O'qituvchi", 1991.-376 b.
11. Husanov B. G'ulomov V. Muomala madaniyati. Darslik.-T.: "Iqtisod - moliya" 2009,- 156 b.

7- MAVZU. PEDAGOGIK NAZOKAT VA PEDAGOGIK ODOB AXLOQ

R E J A:

1. O'qituvchi pedagogik odobi haqida tushuncha.
2. O'qituvchining pedagogik nazokati vazifalari.
3. Pedagogik nazokatning mohiyati va xususiyati. Darsda pedagogik nazokat.
4. Nazokat va taktika.
5. Pedagogik nazokatni egallash shart-sharoitlari.

Tayanch tushunchalar:

Pedagogik nazokat; xulq-atvor; barkamol inson; talabchanlik va qattiqqo'llik; etnopedagogik tuyg'udar; informatsion jarayon; qo'pol va dag'al so'zlar; ishonch tuyg'usi; nisbiylik va subyektivlik; dilkashlik; pedagogik takt; ekstravert shaxslar; introvert shaxslar; o'qituvchining kommunikativ madaniyati; yuksak odeb namunasi; xushmuomalalik; shirinsuhanlik; pedagogik taktga zid; pedagogik dilkashlikni o'rganish dasturi; o'z-o'zini tarbiyalash; individual - tipologik dastur; mimika va pantomimika.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, dastlabki kunlardan boshlab ta'limni bosqichma-bosqich isloh qilishga kirishildi, hamdo'stlik mamlakatlari ichida birinchilardan bo'lib "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ta'lim O'zbekiston Respublikasida jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy rivojlantirishning ustivor sohasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi davlat siyosatini, umuminsoniy qadriyatlarni, xalqning tarixiy tajribasini, madaniyat va fan bobidagi ko'p asrlik an'alarini, jamiyatning istiqbolidagi rivojini hisobga olgan holda amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risidagi farmoni, 1997 yildan boshlab 1 oktyabr "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" deb e'lon qilinishi hukumatimizning o'qituvchilarga bo'lgan yana bir bor g'amxo'rliklaridan dalolat beradi.

Yosh avlodni buyuk an'alarimizga yuksak ma'naviy qadriyatlarimizga sodiq va porliq kelajak egalari ekanligiga qat'iy ishonch ruhida tarbiyalash bevosita o'qituvchining zimmasiga yuklanadi. Bu esa avvalo, o'qituvchining o'zi ma'naviy barkamol, bilimli, odobli bo'lishini talab etadi.

O'qituvchilik kasbini sevish pedagogik odobning zarur talablaridan biri hisoblanadi. O'z kasbini sevgan kishigina butun kuch-g'ayratini qalb qo'ri va dil haroratini bu ishga bag'ishlaydi va o'z faoliyatida yaxshi natijalarga erishadi. Shuningdek, bolalarni sevish, ularga mehr-muhabbatli bo'lish, o'qituvchilik kasbi,

o'qituvchi axloqiy qiyofasida juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining bolalarga bo'lgan mehribonligi talabchanligi va qattiqqo'llikni ham taqozo etadi.

Muallimning bilimdon bo'lishi, ma'naviy barkamolligi o'quvchi shaxsining shakllanishiga ijobiy axloqiy ta'sir o'tkazadi. "Qadimgi ajdodlarimiz, - degan edi I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida, - komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar".

Kishi qalbidan haromdan xazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak.

O'qituvchi halollik, rostgo'ylik, axloqiy poklik, odamiylik, kamtarlik kabi fazilatlarga ega bo'lishi pedagogik odobining muhim talab qoidasidir. Muallim deyarli har kuni o'quvchilar bilan uchrashadi, savol-javob qiladi, ularning yaxshi xulq, ezgu ishlarini ma'qullaydi, bilimni baholaydi, nojuya hatti-harkati uchun tanbeh beradi.

Albatta o'qituvchining fikri, mulohazalarida nisbiylik, sub'ektivlik alomatlari mavjud. U hammaga aynan birdek to'g'ri munosabatda bo'la olmasligi mumkin, lekin u hamma o'quvchilarga nisbatan xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli kishi ekanligiga barchaning ishonchi komil bo'lmog'i lozim. Sinfda o'qituvchi "yaxshi ko'radigan", "yomon ko'radigani" bor, degan taassurot tug'ilmasligi kerak. Pedagogik ijodkorlik manbai-pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammolariga, muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda o'qituvchining o'z vazifasiga ijodiy yangicha yondashishi, o'quvchilarning ta'lim sohasida yangi samarali yo'l va vositalarni qidirib topa bilishi tushuniladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur, chunki hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi va nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga tadqiqot ishlariga o'rgatish va jalb etishni talab qiladi. Xullas, yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun bulajak muallim yuksak pedagogik odob madaniyatini egallashi zarur. Buning uchun bo'lajak o'qituvchi pedagogik odobning talab va qoidalarini bilib, o'zlashtirib olishi tajribada pedagogik faoliyatda qo'llashi, o'zining dunyoqarashi va axloqiy tajribasi bilan boyitishi lozim, fikrlash va his etish turmushda sinab ko'rish natijasida pedagogik odobning talab va qoidalari uqituvchining shaxsiy e'tiqodiga, axloqiy fazilatlariga aylanadi.

Haqiqatdan, o'qituvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi kishi. Ta'lim to'g'risidagi qonunning 5-moddasiga shunday yozilgan: "Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega".

Chunki hukumat xalq ta'lim sohasida o'rta qo'yilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq.

O'qituvchilarning bolalarga bo'lgan munosabati katta mehribonlik va g'amxo'rlik bilan xarakterlanadi. Bu esa oqilona talabchanlik bilan qo'shib olib boriladi. Bolalar o'qituvchiga doimiy ishonch bilan javob beradilar, har bir masala yuzasidn unga murojaat qiladilar.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'tkazadigan suhbatlaridan ham keng foydalanish mumkin. bunda suhbatning maqsadi, uni o'tkazishning aniq rejasi belgilangan bo'lishi, u erkin formada o'tkazilishi va kishini zeriktiradigan savolga aylanib ketmasligi muhimdir.

Har qanday mutaxassis odob, axloq namunalariga ega bo'lishi tabiiy, lekin pedagogik odoblilik mutlaqo o'zgacha holdir. Chunki tabiatga, jamiyatga notanish kishilarga jism va ashyolarga o'z-o'ziga munosabatda haqiqiy mezon rolini bajaruvchi qobiliyatga ega bo'lishlik, aynan o'qituvchi shaxsiga mujassamlashadi. Pedagogik nazokat etno-psixologik his-tuyg'ulari, milliy xarakter xususiyati, xulq, faoliyat, muomala qoidalari, qonuniyatlari, hodisalari, mexanizmlari, vositalari va ko'nikmalaridan me'yoriy ravishda maqsadga muvofik tarzda foydalanish o'z aksini topadi.

- emosional his-tuyg'ular, kechinmalar stress va affektiv holatlar xossalari, chegaralariga batamom rioya qilishda;

- xulq atvor malakalarini amaliyotda oqilona qo'llashda;

- bachkana qiliqlar, ortiqcha harakatlar qilishdan o'zini tiyishda;

- nutq madaniyatidan tashqari chiqmaslikda, shaxsiyatiga tegadigan iboralar ishlatmaslikda, qo'pol va dag'al so'zlar qo'llamaslikda;

- hissiy, aqliy bilish jarayonida muayyan me'yorlarga asoslanishda, manmanlikni namoyish etmaslikda;

- o'quvchilar va o'qituvchilar jamoalari bilan ota-onalar hamda notanish kishilar bilan munosabatga kirishda rasmiy, qat'iy ishbilarmonlik uslublariga asoslanishda va hakoza.

O'qituvchi ziyolilar ichida ma'naviy dunyosi muayyan darajasi bilan tafovutlanib, ko'rsatkichi bo'yicha ancha yuksaklikka ega. Uning bu darajaga erishishi manbalari-o'qituvchining kundalik, ijodiy izlanish faoliyatini ko'rinishidan, ijtimoiy status va rolni qat'iy ijro etishdan iborat. O'qituvchining kasbiy mahoratidan tashqari uning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, tarixiy bilimlarga ega bo'lishidek zaruriyati, ehtiyoji, imkoniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon sivilizatsiyasi va boshqa ommaviy axborotlardan xabardorlik uning ma'naviy darajasini o'lchash uning reyting vazifasini bajaradi. Ma'naviy yuksaklik namunalari quyidagi ko'rinishlarga ega bo'lishi shart:

- aksariyat fan tarmoqlari yuzasidan muayyan bilimlarni egallaganlikda;

- madaniyat, san'at, adabiyot bo'yicha yetarli ma'lumotlarni o'zlashtirganlikda;

- turli muammolar mohiyati va yechilishi to'g'risida mukammal axborotlar tizimi bilan qurollanganlikda, ya'ni tashkiliy ishlarni olib borish, ommaga ma'lum darajada ta'sir o'tkaza olishda;

- ishonchli omillar, dalillar, qonunlar, amaliy materiallar mohiyatini tushuntirish va izohlash imkoniyatini mavjudligi;

- dunyo voqealari, noyob hodisalar, insonning cheksiz imkoniyati, ruhiy zahirasi to'g'risidagi mulohazalarni to'laqonli sharxlashda;

- kasbiy xulq, muomala va faoliyatga nisbatan qat'iylikda ma'naviy boylik bilan g'ururlanish tuyg'usini ifodalanishida namoyon bo'ladi.

Pedagogik nazokat o'qituvchiga muloqotni ijobiy hissiyotlar asosida qurishga, bolalar bilan psixologik kontakt saqlashga yordam beradi.

O'qituvchi pedagogik nazokat talablariga amal qilib o'zida muloqotning demokratik uslubini shakllantiradi, o'quvchilar bilan haqiqiy muloqot madaniyatiga erishadi.

Pedagogik nazokat o'qituvchiga bolalar bilan muloqotda konflikt (qarama-qarshilik)dan qochishga, o'zaro munosabatni to'g'ri qurishga yordam beradi.

Takt so'zi ta'sir etish ta'sir etish ma'nosini bildiradi. Bu kishilar o'zaro munosabatini boshqarishga yordam beruvchi axloqiy kategoriyadir. Taktik xulq insonparvarlik prinsipiga asoslanib murakkab qarama-qarshilik holatlarida ham kishiga hurmat saqlab qolishini talab qiladi.

Nazokatli bo'lish barcha kishilarga qo'yilgan axloqiy talab, ayniqsa pedagoglarga bu juda muhim. Pedagogik takt o'qituvchining kasbiy sifati, uning mahoratini bir qismi.

Pedagogik takt-bu o'qituvchining o'quvchiga maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir o'lchovi, muloqotning mahsuldor muloqot uslubini o'rnatish ko'nikmasi. Pedagogik takt o'quvchilar bilan muloqotda oxirgi holatga (choraga) yo'l qo'ymaydi.

Hurmat erkalash, talabchanlikni ham talab etadi. O'quvchiga munosabat ularning yosh xususiyatlariga ham bog'liq bo'ladi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarga munosabatda o'qituvchi bolani quchog'iga olishi, boshini silashi, erkalab chaqirishi mumkin. Katta o'quvchilar bilan bunday holatga ayrim sharoitlarda yo'l qo'yiladi. O'spirinlar bilan bunday munosabatda bo'lishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ularni o'zini katta, mustaqil deb bilishadi.

O'qituvchi takti darsda, sinfdan tashqari ishlarda va boshqa joylarda namoyon bo'ladi.

Darsdagi pedagogik takti. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tahlili shuni ko'rsatadiki, buning muhim sabablaridan biri-o'qituvchining taktsizligidir. Ba'zi o'qituvchilar "nimaga jim o'tirolmaysan, tagingda mix bormi?" kabi ogohlantirishlarni normal holat deb hisoblashadi. Ba'zi o'qituvchilar darsga kirib o'quvchini ko'chada ko'rganligi kim bilan yurganligi va nima kiyinganini kesatib aytib beradi. Ba'zan shundan qarama-qarshiliklar boshlanadi.

Nazokat (takt) darsning barcha etaplarida zarur. Ayniqsa, o'quvchilar bilimini baholash vaqtida bunga alohida e'tibor berish kerak. Javob berayotgan vaqtda gapni bo'lish "hech narsa bilmaysan", "bu gaplar nima kerak?" kabi so'zlar bilan ularni to'xtatish mumkin emas. Ba'zi duduq o'quvchilar nazokatli o'qituvchi darsida yaxshi gapira olsa, taktsiz o'qituvchi darsida javob berishda qiynaladilar.

Barcha o'quvchilar ularning javobini e'tibor va hurmat bilan tinglovchi o'qituvchiga javob berishni xoxlashadi. O'quvchi gapirayotganda o'qituvchi ularni qo'vvatlab, qarashi, mimikasi bilan ma'qullab turishi ke rak. Javobni befarq tinglasa yoki mensimay e'tibor bermasa o'quvchi shu o'qituvchiga javob berishdan qochadi.

Baho qo'yish vaqti ham muhim. ba'zan o'qituvchi avval yaxshi javob bermagan yaxshi gapirib qolsa: "Sen meni hayron qoldirding, senga "4" baho

qo'yishga majburman",-deydi. Aslida u o'qituvchi muvaffaqiyatidan mamnun bo'lishi kerak edi.

Pedagogik takt o'qituvchi xulqining moslashuvchanligi-taktikani talab etadi. Chunki o'qituvchi bolalar oldida turlicha nazokatni talab qiluvchi turli rolarda chiqadi.

Sinfda darsga tayyor bo'lmaganda qat'iylik va muomalaning sovuq bo'lishi yuz beradi. Sinfdan tashqari ishlarda ko'ngil ochiqligi, majbur etmaslik, ayniqsa individual suhbat, sayohatlar, do'stona aloqa, bolalarga ishonch o'qituvchiga zaruriy holatdir. Shuning uchun muloqotning turli shakllari: yig'ilish, munozara, bo'sh vaqtlar turli muloqot uslubini talab etadi.

Muloqotda takti tanlash rol holatlarda foydalanish ko'nikmasi bilan bog'liq. Bunda 4 ta holat bor:

- yuqoridan qurilgan holat;
- pastdan qurilgan holat;
- yonma-yon holat;
- aralashmaslik holati.

Yuqoridan o'rnatilgan holatda o'qituvchi o'zining mustaqilligini, javobgarligini o'z ustiga olishini, hech kim bilan hisoblashmasligini ko'rsatadi. Bu holat "Ota-ona" holati deyiladi.

Pastdan o'rnatilgan holatda bo'ysunuvchan o'ziga ishonmaydigan shaxs namoyon bo'ladi. Bu "bolalar" holati deyiladi.

Yonma-yon qurilgan holat. bunda sharoitni hisobga olish, boshqalar qiziqishini tushunish, javobgarlikni o'zi va bolalar o'rtasida teng bo'lishi kabilarda ko'rinadi. Bu "Katta kishi" holati deyiladi. Bunda o'qituvchi, "Men sizlar bilan maslahatlashmoqchiman" yoki "birgalikda o'ylab ko'raylik" usulida ish ko'radi.

Ba'zan o'qituvchi passivlik holatini ko'rsatadi. Masalan "duskada adashadi", o'quvchilar esa katta quvonch bilan uni to'g'rilashadi. Bu holat o'quvchi mustaqilligini ko'rsatishiga kengroq imkoniyat beradi. umuman bu holatlarda o'qituvchi o'quvchilar bilan rol almashib turadi.

Pedagogik nazokatni egallash sharoitlari. Pedagogik nazokat pedagog mahorat bilan birga tarbiyalanadi va egallanadi. O'qituvchining ma'naviy yetuklik darajasi, bolalar bilan muloqot ko'nikmalarini egallashi uchun maxsus bilimlarni egallashida o'z ustida katta mehnat natijasida erishadi.

Avvalo bu bilimlar yosh psixologiyasini va bolalarning individual xususiyatlarini bilish bilan bog'liq.

Axloq asoslarini bilish, hatti-harakatlardagi axloqiy ma'noni ko'rish ham katta ahamiyatga egadir. Shu bilan birga o'quvchiga ta'sir etish yo'llarini bilish ular qobiliyatiga aylanishi lozim:

- bolalarni sevis, o'z muhabbatini ko'rsatish;
- bolalar xulqidagi ichki tushunchalarini ko'rish va kuzatish;
- sharoitga moslashish;
- hamkorlikni maqsadga muvofiq yo'lini tanlash;
- bolalar bilan suhbat.

To'g'ri muloqot uslubini tanlashda o'zini boshqara olish, adolatlilik, boshqalar tajribasiga ijobiy yondashuv, pedagogik texnikni rivojlanishi, hazil-mutoyibaga moyillik ham katta ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi bolalarni hurmat qilishi va o'z qadrini saqlashi muhimdir.

Pedagogik faoliyatda turli konfliktlar pedagogik vaziyatlar uchrab turadi. Shuning uchun yosh pedagoglar qator qoidalarini bilishi lozim.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Pedagogik nazokat me'yorlari o'qituvchidan nimani talab qiladi?
2. O'qituvchi hulq-atvorida pedagogik nazokat qanday shakllanadi?
3. Yosh o'qituvchi qiyin vaziyatlarda pedagogik nazokatning qanday holatlariga rioya qilishi kerak?
4. Pedagogik nazokat tuyg'usi qanday xususiyatlarga ega?
5. Pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyati bo'lgan dilkashlikka ta'rif bering?
6. Yosh o'qituvchining kasbiy faoliyatida dilkashlik qanday namoyon bo'lishi lozim?
7. O'qituvchining dilkashligini namoyon qiluvchi tarkibiy xususiyatlar?
8. A.V.Mudrik ta'rif bo'yicha o'qituvchining xushmuomalalilik bilan muloqotga kirishish mezonlari?
9. Pedagogik dilkashlikning tarkibiy qismlari?
10. O'qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo'lgan pedagogik taktga ta'rif bering?
11. Kasbiy-pedagogik dilkashlikni o'rganish dasturini o'qing va javob yozing?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq", 1997, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq", 1997, 31-61 betlar.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: "O'zbekiston", 2009.-176 b.
4. Ананев Б.Г. Человек как предмет познания,- Л.: ЛГУ. 1968,-340 с.
5. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov.-To'ldirilgan 2-nashri.-T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2000.-248 b.
6. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi-T.: O'zbekiston, 1999.-29 b.
7. Мудрик А.В. Введение в социальную педагогику,- М.: Ин- т практ. психологии, 1997.- 368 с.
8. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar)-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007.-380 b.
9. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.
10. Самуйленков Ф. Мастерство, педагогический такт — это авторитет учителя.-М.: Просвещение, 1990.- 254 с.
11. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.-149 b.

8-MAVZU: PEDAGOGIK NIZOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH TEKNOLOGIYASI

Reja:

1. Pedagogik nizolarning asosiy sabablari.
2. Pedagogning perseptiv (o'quvchi, talabalarni tushunish) xatolari.
3. Pedagogning o'quvchi-talabalar bilan ish yoki shaxsiy ish yuzasidan bo'ladigan kelishmovchiliklarni va ularni bartaraf etishning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Yosh pedagoglar faoliyatida odatda yo'l qo'yiladigan xatolar va ularni yengish yo'llari.
5. O'zaro uchraydigan nizolarni bartaraf etish texnologiyasi.

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'qituvchilik kasbini Yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq darajada turadigan faxrli kasb hisoblaydi. A.Navoiyning fikricha, gohida bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga o'jizlik qiladi. Muallim esa, bir guruh bolalarga ilmu-adab o'rgatadi. Bu jarayonda muallim ko'p aziyat chekadi, mashaqqatlarni o'z boshidan kechiradi. Shu bois shogirdlar ustoz olidda umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari darkor. Shogird podsholik martabasiga erishsa ham, muallimga qulluq qilsa arziydi deydi. Hazrat A. Navoiy bolalarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik sha'ni, qadr qimmatini, o'qituvchilik ma'suliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchan va adolatli bo'lishi o'qituvchining ma'naviy qiyofasi halolligi, pokligi, rostgo'yligi kabilar o'qituvchi axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirishi bulajak o'qituvchi uchun katta amaliyot ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimiz doimo yaxshi niyat, yaxshi orzu-istaklar bilan yashaganlar. O'zlaridan yaxshi nom qoldirishga intilganlar.

Pedagogik konflikt psixologik nuqtai-nazardan olib qaraganda pedagogika va psixologiya fanlari bir-biriga o'zviy bog'liqdir.

O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi kelishmovchilik, tortishuv, mojaro bular pedagogik konfliktidir. Pedagog har tomonlama tarbiyalangan, aqliy, ahloqiy, ma'naviy bo'lib, bilim doirasi keng, nutqi ravon, pedagogik bilim mahorat egasi bo'lishi lozim. O'qituvchining pedagogik bilim mahorati asosan sinf, auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi. O'qituvchi bilan o'quvchi, talabalar o'rtasida o'zaro jonli til, fikr almashuv, samimiy munosabat, hurmat izzat, asosiy maqsadga erishishga hamkorlik lozim. Pedagog o'z guruhida nechta bola bo'lsa, ularning har birining xarakterini, oilaviy muhitini, psixikasini, xulqi-atvorini, bilim saviyasini yutug'i va kamchiliklarini o'rganib, keyin shunga qarab har bir bolaga qanday yondashishi lozimligini bilishi kerak. O'quvchining bilim saviyasini hamda xulqini baholashda ham o'qituvchidan adolatli bo'lish talab etiladi. O'qituvchi ma'suliyatli bo'lishi, va uning zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash ma'suliyati yuklanadi. Pedagog mana shu yuqoridagilarga rioya qilib ish olib borgandagina o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida konflikt paydo bo'lmaydi.

Pedagogik konfliktlar o'z o'zidan kelib chiqmaydi.

Konflikt holati sekin-asta ochiqchasiga konfliktga aylanadi. Bunday holat uzoq davom etishi va konfliktga aylanmasligi mumkin. Buning uchun insident

bo'lishi lozim. *Insident* – bu tomonlar bevosita to'qnashuvining boshlanishi uchun rasmiy sabab, hodisadir. Insident nogahon ro'y berishi mumkin, yo bo'lmasa uni konfliktning sub'ekti (yoki sub'ektlari) qo'zg'ashi mumkin.

Insident hodisalarning tabiiy rivojlanishi natijasi ham bo'lishi mumkin.

Ehtimoli bo'lgan “begona” konfliktida o'z qiziqishlarni ko'zlagan uchinchi kuch ham insidentni tayyorlashi va qo'zg'ashi mumkin.

Vujudga kelish xarakteriga ko'ra konfliktli holat va insidentning to'rtta turi ajratiladi:

1. Obyektiv bir maqsadga yo'naltirilgan (Masalan: ta'limning yangi shakllari tatbiq etilishi bilan o'qitish tarkibidagi yangi o'zgarishlarga yoki o'qituvchilar tarkibidagi o'zgarishlar zaruriyat tug'iladi).

2. Obyektiv bir maqsadga qaratilmagan (Ishlab chiqarishning tabiiy rivojlanish yo'li mavjud mehnatni tashkil qilish usuliga zid keladi).

3. Subyektiv bir maqsadga qaratilgan (inson o'z muammolarini hal qilish uchun konfliktga boradi).

4. Subyektiv bir maqsadga qaratilmagan (bir yoki bir necha tomonlarning qiziqishlari nogahon to'qnashadi).

Insident konfliktning yangi sifatga o'tishini ifodalaydi.

Yuzaga kelgan holatda konfliktga kirishayotgan tomonlar xulqining uch varianti mumkindir:

1. Tomonlar yuzaga kelgan qarama-qarshilikni bartaraf qilishga va kompromiss topishga harakat qilishadi.

2. Tomonlardan biri o'zini “xuddi hech nima bo'lmaganday” tutadi (konfliktidan o'zini olib qochish).

3. Insident ochiqchasiga qarama-qarshilikni boshlanishiga signal bo'ladi.

U yoki bu variantni tanlash ko'pincha tomonlarning konfliktli (maqsad, umid, hissiy oriyentatsiya) yo'nalishlariga bog'liq bo'ladi.

Konfliktning rivojlanishida uch davr ko'zda tutiladi:

1. Konfliktning latent (yopiq) holatdan tomonlarning ochiqchasiga kurash holatiga o'tishi.

2. Kurashning keyingi eskalatsiyasi. O'z maqsadlariga erishish va raqib harakatlarini to'sish uchun tomonlar yangi resurslarni kiritadilar.

3. Konflikt o'z cho'qqisiga yetadi hamda mumkin bo'lgan barcha kuch va vositalarni qo'llovchi yoppasiga urush shakliga kiradi.

Me'yoriy boshqarilish darajasiga ko'ra konfliktlar quyidagicha tasniflanadi:

✓ kontiniumning bir uchi institutsionallashtirilgan (duel ko'rinishida), boshqasi esa absolyut konflikt (raqib to'liq yakson qilishgacha bo'lgan kurash).

Konfliktning yechim pog'onasida hodisalar rivojlanishining quyidagi variantlari mavjud:

1. Tomonlardan birining ustunligi unga zaifroq bo'lgan tomonga urushni to'xtatish uchun o'z shartlarini qo'yish imkonini beradi;

2. Kurash tomonlardan birining to'liq yakson bo'lishigacha boradi;

3. Resurslarning yetishmasligi tufayli kurash cho'ziq, sust xarakter kasb etadi;

4. Tomonlar o'z resurslarini tugatib va aniq yoki potensial g'olibni aniqlamasdan turib o'zaro murosaga kelishishadi;

5. Uchinchi kuchning bosimi ostida konflikt to'xtashi mumkin.

Konfliktni to'xtatish usullari asosan eng konfliktli holatni o'zgartirishga yo'nalgandir.

Konfliktli holatni o'zgartirish usullari:

1. Konflikt ob'ektini yo'qotish.

2. Bir ob'ektni boshqasi bilan almashtirish.

3. Konflikt ishtirokchilarining bir tomonini yo'qotish.

4. Konflikt ob'ekt va sub'ektlarining xarakteristikasini o'zgartirish.

5. Tomonlardan birining pozitsiyasini o'zgartirish.

6. Ob'ekt haqidagi yangi ma'lumotlarni olish yoki qo'shimcha sharoitlarni yaratish.

7. Ishtirokchilarning bevosita yoki bilvosita o'zaro munosabatga kirishlariga yo'l qo'ymaslik.

8. Konflikt ishtirokchilarining bir qarorga kelishi yoki har qanday shartga ko'nish sharti bilan arbitrga murojaat qilish.

9. Konfliktni tugatishning majburiy uslublaridan biri – bu ko'ndirishdir.

Konfliktning yechimi pog'onasidagi yakunlovchi davr muzokaralar o'tkazishni va erishilgan bitimlarni rasmiylashtirishni ko'zda tutadi.

Konfliktlarning kelib chiqish sabablari guruhdagi har bir shaxsning fe'l atvoridagi xatti-harakatlarida shaxsga mansub bo'lgan millat, xalq xudud xususiyatlarida namayon bo'ladi.

Pedagogik konfliktologiya fanining yuzaga kelishining ruhiy madaniy asoslari bilan tanishish ya'ni pedagogik ziddiyatlarni kelib chiqish sabablarini bilishi, shu o'rinda turli pedagogik ziddiyatlarni kelib chiqish sabablarini bilishi, shu o'rinda turli pedagogik ziddiyatlarni oldini olishi va bartaraf etish usullari haqidagi nazariy bilimlarni amaliyotda keng tadbiiq etishlari talabalar bilimlariga quyilgan asosiy talablardan biri sanaladi. Pedagogik konfliktologiya fanining kelib chiqish sabablaridan yana biri pedagogik madaniyatni rivojlantiradi. Pedagogik konfliktlarni yuzaga keltirmasligi uchun ziddiyatlarni, muammolarni oldini olishda o'qituvchi pedagogika qobiliyat va mahorat o'qituvchilik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallashlari zarur. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning qo'yidagi turlar mavjud bo'lmog'i lozim. Bilish-qobiliyati o'z mutaxassisligini kuchli bilishi, o'z fani sohasida kashfiyotlarni hamisha ko'zatib borishi kerakdir. Tushuntira olish qobiliyati- o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib yetkazib bera olish muammoli ziddiyatli mavzularni hayotiy misollar asosida tushuntirib berish: kuzatuvchanlik qobiliyati-o'quvchining tarbiyalanuvchining ichki dunyoga kira olishi, o'quvchi shaxsini va uning vqtinchalik ruhiy holatlarini yaxshi tushinish bilish bilan bog'liq bo'lgan kuzatuvchanlikka ham e'tiborini qaratish.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi konfliktlarni yuzaga keltirmasligi uchun o'quvchini yosh va individual xuchuchiyatlariga ham e'tibor berish lozim. Har bir guruh talabalarini xarakteri, tempromentga qarab munosabatga kirishsa, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida konfliktlar yuzaga kelmaydi.

O'zaro munosabatlarni keskinlashtiruvchi pedagogik vaziyat.

Pedagogik vaziyat ta'lim-tarbiya jarayonida yuz beradigan turli xil shart-sharoitlardir. Pedagogik vaziyatda shunday holatlarga duch kelishimiz mumkin. Ta'lim jarayoni olib borilayotgan ya'ni o'qituvchi ma'ruza o'tayotgan paytda talabalarimiz tushunmagan narsalarni o'z vaqtida domlaning fikrini to'xtatib savolini beradi. Agar pedagog o'z fanini puxta egallagan bo'lsa, savolga javob berib, keyin ma'ruzani davom ettira oladi. Bunday pedagogik vaziyatda ayrim pedagoglarimiz fikrim bo'lindi deb talabalarga tanbeh beradi. Bu vaziyatdan chiqishga qiynalib qoladilar. Ayrim gurug'larda iqtidorli talantli talabalarimiz borki, ularning fikrlari juda keng turli hil mavzudagi savollarni o'rtacha tashlaydilar, bunday vaziyatda o'qituvchi nima qilishi kerak o'qituvchi biladi lekin talabaga kengroq umumiyroq tushuntirma yana savol beraveradi. Bunday vaziyatda o'qituvchi darsni bahs munozara tarzda tashkil qilsa, guruh talabalaridan yangi yangi fikrlarni eshitishi va so'ng umumiy xulosa qilib o'z fikrlarini bildirishi lozimdir. Pedagogik vaziyatlarda ham pedagogik konfliktlarni ko'rishimiz mumkin darsni bahs munozara shaklida qarama-qarshilik tafovut, mojoralarni oldini olishda talabalar bir-biri bildirayotgan fikrlarini ba'zan umuman rad qilib tashlaydila. Pedagogik vaziyatda har talabani ham fikrlarini qaysidir tomonlama to'g'riligini ta'kidlash pedagogni pedagogik vaziyatdagi yutug'idir.

Pedagogik vaziyatlar va konfliktlar turi. Konfliktogen pedagogik vaziyat omilari orasidan quyidagilarni ajratish mumkin:

✓ *faoliyat* vaziyat yoki konfliktlar, o'quvchining o'quv vazifalarini bajarishida, o'zlashtirishida, ta'limdan tashqari faoliyatida yuzaga keladi;

✓ *hulq* vaziyatlar yoki konfliktlar, o'quvchining maktabda o'zini tutish qoidalarini darsda, maktabdan tashqarida buzganida yuzaga keladi;

✓ *Munosabatlar* vaziyati yoki konflikti, o'qituvchi va o'quvchilar hissiyotli-shaxsiy munosabatlar sohasida, pedagogik faoliyat jarayonidagi ularning muloqotlari sohasida yuzaga keladi.

faoliyat vaziyatlari va konfliktlari. O'quv faoliyati bo'yicha vaziyatlar ko'pincha darsda o'qituvchi va o'quvchi, o'qituvchi va o'quvchilar guruhi orasida yuzaga keladi va o'quvchining o'quv mashg'ulotni bajarishni rad qilishida namoyon bo'ladi. Bu turli sabablarga ko'ra ro'y berishi mumkin: charchoq, o'quv materialini o'zlashtirishdagi qiyinchilik, uy vazifasini bajarmaslik, ko'pincha ishdagi qiyinchilikda o'qituvchi yordam berish o'rniga noto'g'ri tanbyuyeh berganida.

O'qituvchilar hammasini ham qo'llayvermaydilar, ammo ulardan ba'zilarini eslatamiz:

✓ *"Ism"*. O'quvchidan jahlingiz chiqib turgan taqdirda ham unga ismini aytib murojaat qiling. Bu unga qilingan murojaatga muloyim-talabchan xarakter baxsh etadi. Shuni ham e'tiborga olish lozimki, aynan o'smirlar o'zlarining ismlarini ko'p eshitmaydilar. Maktabda ularga ko'pincha familiyalarini ay tib murojaat qiladilar: "Sen, Valiyev, yana bezorlik qilyapsanmi!", "Bugun Xo'jayeva javob beradi". O'smirlar bu yoshda bir-birlarini laqamlarini yoki ismlarini chala aytib chaqiradilar, ota-onalar esa quyidagicha shaklda o'smirga murojaat qiladilar: "Menga qara, darsingni qildingmi?", "Uyalmaysanmi, doim senga o'z vazifangni

eslatib turish kerak!” va h.k. Axir har bir kishi o'zining ismini leksik boylikdagi eng yaxshi so'z deb hisoblaydi, va uni eshitib, o'quvchi darhol inson bilan ishonchli muloqotga kirishadi.

✓ Muloqotning “*noverbal*” vositalari va tinglash ko'nikmasi. O'qituvchining o'quvchi bilan muloqotida nutqning mazmuni bilan birga mimika, ohang, nutq intonatsiyasi ham katta ahamiyat kasb etadi, mutaxassislarining ta'kidlashicha, kattalar bilan muloqot intonatsiyasi 40% axborotga ega ekan, bola bilan muloqotda esa intonatsiyaning ta'siri ortadi. Bola kattalarning o'ziga qaratilgan murojaatining intonatsiyasiga qarab, ularning o'ziga bo'lgan munosabatlarini bilib oladi, u “hissiy eshitish”ga ega, unga qarab bola aytilgan so'zlarning mazmun, ma'nosini hamda kattalarning munosabatini bilib oladi. So'zlarni idrok qilganda u avvalo intonatsiyaga javoban harakat qiladi, shundan so'nggina u aytilgan so'zning ma'nosini ilg'aydi. Intonatsiyada kattalarning bolaga qaratilgan nutqidagi kechinmalar namoyon bo'ladi va bola unga javoban harakat qiladi. O'qituvchining qichqirishi va bir tUSDagi nutqi o'zining ta'sir ko'rsatuvchi kuchini yo'qotadi, chunki o'quvchining sensor sezgilari qichqiriq bilan yoki beqilgan, yoki u umuman hissiy kuzatuvni ilg'ay olmaydi, bu esa so'z va iboralar qanchalik aniq va to'g'ri bo'lmasin, befarqlikni yuzaga keltiradi. Bunday nutq o'quvchilarning kechinmalarini uyg'otmaydi, va o'qituvchi kechinmalar orqali o'quvchi ongiga o'tishning haqiqatdan ham ishonchli “ko'prigini” yo'qotadi.

✓ “*Tinglash*”. O'qituvchi ham o'quvchini tinglashi va eshita olishi lozim. O'qituvchi nutqining samaradorligi o'quvchining tinglay olish ko'nikmasiga bog'liq bo'ladi. Buni esa bir qator sabablarga ko'ra bajarish oson emas: birinchidan, o'quvchidan bir maromdagi va bir-biriga bog'langan nutqni kutish qiyin, shunga ko'ra kattalar uni ko'pincha bo'ladilar, shu bilan uning iboralarini yanada qiyinlashtiradilar (“Mayli, hammasi tushunarli, bor!”), ammo u o'zi uchun eng asosiysini hali gapirmagan bo'ladi. Ikkinchidan, o'qituvchining, o'quvchi gapirishni istaganda, tinglash uchun har doim ham vaqti bo'lavermaydi, o'qituvchi nimanidir bilmoqchi bo'lganda esa, o'quvchi o'zining suhbatga bo'lgan qiziqishini yo'qotgan bo'ladi, ha, tinglamaydiganlar bilan gaplashish kimni ham qiziqtirardi.

✓ “*Ta'na*”. Bolaning yaqinlarini yuziga solib, ta'na qilmang! Hech qachon o'quvchini, ayniqsa o'smirni, oilasidagi notinchliklarni, ota-onasi, aka-ukasi, opa-singillarining ahloqini yuziga solib, malomat qilmaslik kerak – buning uchun o'quvchilar o'qituvchilarni hech qachon kechirmaydilar! O'qituvchi bunda qo'pol xatoga yo'l qo'yadi, o'quvchining ko'z odida o'zining o'qituvchi va katta kishi sifatidagi obro'sini yo'qotadi. Ammo, afsuski, ushbu qoidaning buzilishi tez-tez uchrab turadi. Har bir kishi ota-onasi qanday bo'lmasin, ularga nisbatan muqaddas hislarga ega bo'ladi.

✓ “*Hissiyotlarning qaytarish*” usuli orqali konfliktning oldini olish va muvaffaqiyatli hal qilish mumkin. O'zining kasbiy nuqtai nazarini anglash, o'quvchi xulqi motivlarini tushunish o'qituvchiga o'zining shaxsiy hissiyotlari asiridan chiqish (bu esa oson emas) va bola kechinmalariga hamdard bo'lishga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda shaxs yuksalishining har

bir davrini “boshdan kechiradi”, ularning omadsizliklariga kuyinadi, muvaffaqiyatlaridan xursand bo’ladi, xulq va ishilarining barbod bo’lganidan xafa bo’ladi, bag’rikenglik bilan ularni kechiradi – bularning hammasi o’qituvchining obro’sini to’kmaydi, balki ularning nuqtai nazarlarini hissiy yaqinlashtiradi, bir-birlarini tushunishlariga olib keladi, o’quvchilar bilan munosabatlardagi stereotiplardan qutulishga yordam beradi. Bularsiz pedagogik hamkorlik o’z ma’nosini yo’qotadi. Bunda o’qituvchi eng yomon o’quvchining ham yaxshi tomonini ko’ra oladi, uning tuzalishiga umid qiladi. Kunlardan birida matematika o’qituvchisi o’qituvchilar xonasida, xursandchilik va hayrat bilan Tolib (jud “og’ir” bola)ning ishini ko’rsatdi: “Qaranglar Tolib darsda grafik chizdi. Bilasizlarmi, sezdirmay sekin yuziga qaradim: diqqati jamlangan, mehrli va chiroyli. Bu daqiqada u o’zgacha edi. Balki, biz uni erta “og’ir”ga chiqarib qo’ygandirmiz, a?” O’quvchilar o’zlari bilan xursandchiliklarini bo’lisha oladigan o’qituvchilar bilan bo’lgan munosabatni qadrlaydilar. Bunday munosabatlarda konfliktlar ham ro’y berib turadi, ammo ularni hal qilish osonroq, munosabatlar konfrontatsiyagacha yetib bormaydi. Pedagogik konfliktlarda oxirigacha “haq” va “nohaq”lar, g’olib va yutqizganlar bo’lmaydi – har bir pedagogik muvaffaqiyatsizlikda, o’quvchining og’ir taqdirida o’qituvchining ham aybi bor.

✓ “Jazo”. O’qituvchi konfliktni hal qilganda jazoni asosiy ta’sir vositasidan biri deb hisoblaydi. Ularning fikricha, shu bilan xulqning takrorlanmasligiga erishiladi, bu o’quvchini qo’rqitadi. Ammo, bola jazolangandan so’ng uning ruhida qanday kechinmalar iz qoldiradi: nadomat, g’azab, uyat, qo’rquv, xafagarchilik, aybdorlik, agressiya? A.S.Makarenko yozgan edi: “Tarbiyalanuvchi qanday qattiqqo’llik bilan jazolanmasin, berilgan jazo doim konfliktni hech qanday qoldiqsiz, oxirigacha hal qilmog’i lozim. Berilgan jazodan bir soat o’tib, tarbiyalanuvchi bilan normal munosabatlarda bo’lish lozim”. Jazo alohida konfliktni hal qilmog’i va yo’qotmog’i hamda yangi konfliktni yuzaga keltirmasligi lozim, chunki ularni hal qilish qiyinlashib ketadi, axir bunda konflikt cho’zilib, kengayib ketadi. Keyingi vaqtda keng qo’llanayotgan jazo choralaridan biri – ota-onani chaqirish va ularga o’quvchining ayblarini ta’na qilmoqdir.

Tanaffus vaqtida o’qituvchilar xonasida sinf rahbari VII sinf o’quvchisining onasi bilan uning o’qishi, xulqi va h.k. haqida suhbatlashardi. O’quvchi boshini egib turardi. Ona o’zining o’qituvchi oldidagi aybini bilib, o’g’lining xulqini to’g’rilashdagi ojizligidan yig’lardi. O’qituvchilar xonasiga kirgan o’qituvchilar ushbu suhbatni ko’rib, o’quvchining barcha “gunohlarini” eslab, sanab o’tishardi. O’qituvchilardan hech biri hamdardlik bildirmadi, yaxshi so’z aytmadi. O’smirning boshi yanada egildi, ammo endi uning yuzida afsus emas, balki hayrat va g’azab bor edi. SHunda sinf rahbari so’radi: “Tushundingmi, qayoqqa qarab ketayotganingni, o’qituvchilarning munosabatiga qara, onangni, qara, qanday ahvolga solding?! U yig’layapti, senga esa baribir!”. U sinf rahbariga jahl bilan qaradi va o’qituvchilar xonasidan yugurgancha chiqib ketdi. O’qituvchilar bunday “suhbat” bilan faqatgina o’smirni g’azablantirdilar: axir u o’zining ko’pchilik odlida hissiy “ezilishini” kechirmaydi. Qiziq, ushbu vaziyatni mashg’ulotlarda eshitgan o’qituvchilar va maktab rahbarlari bu hodan kuyindilar, ammo uni favquloddagi holat deb hisoblamadilar va: “Uchrab turadi...” deb qo’ya qodlilar.

“Uchinchi” taklif qilish. O’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi munosabatlar qarama-qarshi kurash holatiga o’tganda, ba’zan “uchinchi” kishini taklif etadilar. “Uchinchi” kishini chin dildan o’quvchiga yordam berishni hoxlashi, konfliktning sabablarini chuqur tushunishi lozim. Ota-onalar, o’qituvchilardan kimdir tengdoshlari shunday kishi bo’lishi mumkin. Asosiysi, “uchinchi” kishi o’quvchi uchun ahamiyatli inson bo’lishi lozim. Ko’pincha konfliktni hal etishda maktab direktori yoki rahbariyatdan kimdir jalb qilinadi.

“YOsh o’qituvchi endigina ish boshlaganida o’z fani yoki usluviy ishlar bo’yicha qiyinchiliklarga duch kelsa, biz unga yordam beramiz,-deydi maktab direktor,-maktabda doim tajribali fan o’qituvchisi yoki uslubiy qo’llanma bor. Ammo o’qituvchi o’quvchilar bilan to’g’ri munosabatlar o’rnata olmasa, ular bilan doim konfliktga borsa, unga yordam berish juda qiyin:axir bu narsa uning o’ziga, uning nuqtai nazariga bog’liq, bizning o’zimiz ham usullarni yaxshi bilmaymiz”.

O’qituvchi hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar-yosh bolalar bilan muloqotda bo’ladi. O’qituvchining biror tasodifiy xatti-harakati natijasida o’quvchilarda u haqda sodir bo’lgan fikr ham ta’lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir etishi, o’qituvchining ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda, bunday ziddiyatlar uzoq davom etadi va o’qituvchi foydasiga hal etiladi. O’qituvchi obro’sini saqlayman deb, kattalar ba’zan o’quvchining qadr-qimmatini yerga uradilar, o’quvchidan kechirim surashni talab etadilar, vaholanki bu nizoga o’qituvchining noto’g’ri hatti-harakati sabab bo’lgan. O’qituvchining ishi axloqiy tarbiya talablariga to’g’ri kelmaydi. Bolalar bilan muomola va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondashish lozim. Agar o’qituvchi va o’quvchi bir-birini tinglasa, o’z-o’ziga ham tarbiyalaydi. Demak, tinglash jarayoni ko’pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon esa. Tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar g’oyalarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ma’ruzachi professorning har bir chiqishi va ma’ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglasa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

9-

MAVZU: PEDAGOGIK TEXNIKA HAQIDA TUSHUNCHA. PEDAGOGIK TEXNIKANI SHAKLLANTIRISH USHLBLARI.

R E J A:

1. Pedagoglar texnikasi o’qituvchi faoliyatini tartibga soluvchi shakl sifatida. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari.
2. Pedagogik texnika malakalarining xususiyatlari
3. Pedagogik texnikani egallash yo’llari.
4. Maqsadga qaratilganlik va pedagogning tashqi ko’rinishi.

Tayanch tushunchalar:

Pedagogik texnika; imo-ishora; ma’noli qarash; istehzoli tabassum; tarbiyalanuvchi obyekt; aktyorlik san’ati; integratsion usullar; ilg’or va novator

o'qituvchilar; ma'naviy va estetik qiyofa; "Mehnat professiogrammasi", kommunikativ malakalar; gnostik malakalar; pedagogik ijodkorlik; "Murabbiylik shartlari"; mimika; pantomimika; hissiy holat; o'qituvchining anatomik—fiziologik xususiyati; ijobiy tarbiyaviy ta'sir; nutq tempi; ovoz diapazoni; relaksatsiya usullari; integratsion bilimlar; o'qitish samaradorligi.

Pedagogik texnika o'qituvchiga o'quv faoliyatida ham o'qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi.

Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida o'qituvchining nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etishi, o'z fikr va his -tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakasini aytib o'tish mumkin.

Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi pedagogning mimik va pantomimik ifodaligidir. Aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta'sir ko'rsatishda ko'p so'zli tushuntirish yoki e'tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muomila vositalari bo'ladi.

Pedagogik texnika tushunchasi 2 guruh komponentlarini o'z ichiga oladi.

Birinchi guruh komponentlari o'z xulqini, yurish turishini boshqarish malakalari bilan bog'liq. O'z organizmini boshqarish (mimika, pantomimika); hissiyoti, kayfiyatini boshqarish; ijtimoiy perseptiv qobiliyatlar (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol); nutq texnikasi (nafas, ovozni qo'yilishi, diksiya, nutq tempi).

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari shaxsga va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini yoritadi: didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ, qobiliyatlar; talab qo'yish, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish, pedagogik muloqotni boshqarish va boshqalar.

Ikkinchi guruh komponentlari mavzularda o'tilyapti. SHuning uchunbiz o'qituvchining yurish turishi bilan bog'liq pedagogik texnikalarga to'xtalib o'tamiz.

Pedagogik maqsadga yo'naltirilganlik va o'qituvchining tashqi ko'rinishi. Tarbiyachi tashqi ko'rinishi estetik ma'no kasb etgan bo'lishi lozim. Tashqi ko'rinishga e'tiborsiz qarash va haddan tashqari e'tibor berish ham to'g'ri kelmaydi.

O'qituvchining kiyinishi ham yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash ishiga samarali ta'sir ko'rsatishi lozim.

O'qituvchi yuzidan mehribonlik, harakatida, yurishidan bosiqlik, tabiiylik bilinib turishi kerak.

Sinfga qanday kirasiz, qanday qaraysiz, qanday salomlashasiz, stulni qanday surasiz, sinfda qanday yurasiz bular hammasi bolaga ta'sir qiladi.

Yosh o'qituvchi o'zini ruhiy jihatdan darsga tayyorlashi kerak, har xil qo'rquvdan qutilishi, o'zini erkin tutishi, birinchi darsdagi muvaffaqitsizlikdan o'zini yo'qotmasligi, o'z ustida ishlashi psixik tayyorlanishi kerak.

Pantomimika-gavda, qo'l, oyoq harakati. O'qituvchi darsda o'quvchilar oldida to'g'ri turish meyorini shakllantirishi kerak. Gavda, qul, oyoq harakati ham joyida bo'lishi kerak.

Mimika-o'z fikri, kayfiyati, sezgisini yuz muskullari harakati orqali aks ettirish san'ati. Qarash va yuz holati ba'zan o'quvchilarga so'zdan ko'ra ko'proq ta'sir qiladi. Ayniqsa kishining ko'zi ko'proq ifoda kasb etadi.

Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishda o'qituvchining o'z hissiy psixik holatini boshqarish, o'zida eng qulay hissiy (ijodiy) jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, xayrixolik kayfiyatini saqlash o'zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim rol o'ynaydi. Bu mahorat pedagogning kasbiy jihatdan o'z-o'zini nazorat qilishni ta'minlaydi. Ko'p yillar davomida sog'lom asab sistemasini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zerikishdan o'zini tiyishga yordam beradi. Shunday qilib, o'qituvchining pedagogik texnikasi-bu shunday bir malakalar yig'indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi. Bolalar bilan bevosita muomala qilishda pedagogning xuddi ana shu malakalari uning xulq atvorida namayon bo'ladi. A.S.Makarenko ularni nazarda tutib, "tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishini bilishi lozim. U o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin" deb yozgan edi.

Pedagogik texnika o'qituvchini malakalarining xuddi shunday yig'indisidirki, u o'qituvchining eng yaxshi ijodiy xulq atvoriga, boshqacha qilib aytganda har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga samarali ta'sir ko'rsatishga yordam beradi. Mukammal pedagogik texnika pedagogning vaqti va kunlarini ijodiy ish uchun bushatib beradi, pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatish jarayoida bolalar bilan muomala qilishda zarur so'zni topish yoki muvaffaqiyatli chiqmagan gap ohangini tushuntirishga o'z fikrini chalg'itmaslik imkonini beradi. Pedagogik texnikani egallab olgan o'qituvchi ovozi bo'g'ilgandan yoki o'zining ish bilan bog'liq bo'lmagan qandaydir kechinmalarini unutishni bilmaslikdan azoblanib yurmaydi. Demak, pedagogik texnikani egallash o'qituvchining o'z kasb faoliyaidan qanoatlanish darajasini o'sishiga olib kelishi mumkin va lozim.

Pedagogik texnikaning hamma uchun umumiy bo'lgan malakalarni tadbiq etish sohasini pedagogning bolalar bilan bevoista muomalasini qayd etib o'tamiz. Bundan tashqari xaqiqiy pedagog ta'sir ko'rsatishda o'qituvchining pedagogik texnika sohasidagi barcha malakalari bir vaqtda namayon bo'ladi. Nutq, imo-ishora, mimika, harakat bilan birga sodir bo'ladi. Uzluksiz o'zini tuta bilish ta'sirchan vositalarni tanlashga muvaffaqiyatli ravishda tuzatish kiritib borish imkonini beradi va hakoza.

Individual pedagogik texnika pedagogning yoshi, mijozi, f'el atvori, sihat salomatligi, anatomik fiziologik xususiyatlariga ancha bog'liq bo'ladi.

Pedagogik texnikani shakllanishi shaxsning unchalik payqash sifatlariga ham rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, nutqning ifodali, sof, savodli bo'lish ustida ishlash, fikrlashning ravon bo'lishiga ta'sir qiladi. Psixik faoliyatni mustaqil tartibga solish usullarini egallash fe'l atvor belgisi bo'lgan hissiy vazminlikning rivojlanishiga olib keladi. Pedagogik texnika malakalarning shakllanish darajasi ma'lum darajada pedagogning umumiy madaniyat darajasini,

ya'ni shaxsning pedagogik imkoniyatlarini aks ettiradi, desak to'g'ri bo'ladi. Agar pedagogning nutqi qashshoq va tartibsiz bo'lsa, agar u bular bo'lmas sabablar bilan o'z hissiyotlariga erk bersa, didi past, estetik jihatdan omi bo'lsa, u holda "eng to'g'ri" so'zlar ham "eng kerakli" tadbirlar ham tarbiyalanuvchilarning na aql idrokiga, na xissiyatiga ta'sir qiladi.

Pedagoglarning o'quvchilar bilan bevosita muomalasini maqtab o'quvchilarning muomilasiga pedagogik ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos vositasi deb qarash mumkin.

Pedagogik texnika xususiyatlari. Avvalo pedagogik texnikaning hamma uchun umumiy bo'lgan malakalarni tadbiq etish sohasini pedagogning bolalar bilan bevosita muomalasini qayd qilib o'tamiz. Xuddi ana shu narsa pedagogik texnika malakalarining namoyon bo'lishini ma'lum darajada vaziyat taqozosi bilan, ichki sabab natijasida vujudga keladigan-aytish mumkinki, to'satdan bo'lgan narsaga aylantiradi. Rivojlangan pedagogik texnika o'qituvchiga o'quvchilar bilan muomala qilinganda zarur so'z, gap ohangi, qarash, imo ishorani tez va aniq topish, eng o'tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda osoyishtalikni va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini yuklab qolish imkoniyatini beradi.

Pedagogik texnika malakalarining boshqa muhim xususiyati shundan iboratki, ularning hammasi aniq ifodalangan individual-shaxsiy tusda bo'ladi, ya'ni pedagogning individual-psixik fiziologik xususiyatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika pedagogning yoshi, jinsi, mijozi, fe'l-atvori, sihat-salomatligi, anotomik-fiziologik xususiyatlariga ancha bog'liq bo'ladi.

Pedagogik texnikaning shakllanishi shaxsning unchalik payqab bo'lmagan sifatlariga ham rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Chunonchi nutqning ifodali, sof, savodli bo'lishi ustida ishlash fikrlashning ravon bo'lishiga ta'sir qiladi. Psixik faoliyatni mustaqil tartibga solish usullarini egallash fe'l-atvor belgisi bo'lgan hissiy vazminlikning rivojlanishiga olib keladi.

Pedagogik texnikaning uchinchi muhim xususiyati shuki, pedagogik ta'sir ko'rsatishdagi xuddi ana shu malakalar orqali pedagogning ma'naviy va estetik nuqtai nazarlari tarbiyalanuvchilarga yanada to'laroq ochib beriladi. Pedagogik texnika malakalarining shakllanishi darajasi ma'lum darajada pedagogning umumiy madaniyat darajasini, ya'ni shaxsning pedagogik imkoniyatlarini aks ettiradi desak to'g'ri bo'ladi. Agar pedagogning nutqi qashshoq va tartibsiz bo'lsa, agar u bo'lar bo'lmas sabab bilan o'z hissiyotlariga erk bersa, didi past, estetik jihatdan omi bo'lsa, u holda "eng to'g'ri" so'zlar ham, "eng kerakli" tadbirlar ham tarbiyalanuvchilarning na aql-idrokiga, na hissiyotiga ta'sir qiladi.

Pedagogik texnikani egallash yo'llari. Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar va mustaqil ishlashdir. Pedagogik texnika malakalarining individual shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir o'qituvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol' o'ynaydi, deb aytish mumkin. Kasbiy ideal sari bu harakatda ham pedagogik texnikani egallash muhim rol' o'ynashi lozim.

Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruhli yoki ketma-ketlikda o'tkazilishi mumkin. Masalan, zarur bilimlar ma'ruzalarda yoki tegishli adabiyotni mustaqil o'qishda egallanishi mumkin. Avtomatlashtirishga doir oddiy harakatlar ketma-ket ko'rsatilishi mumkin. Tegishli kunikmalarni ishlab chiqish individual ishlashni dastlab o'qituvchining nazorati va rahbarligida keyin esa mustaqil ishlashni talab qiladi.

Malaka axborot jarayonidir. Axborot ikki yo'nalishda boshqarish sub'ektidan boshqarish ob'ektiga boradi va aksincha ob'ektdan sub'ektga boradi. Pedagog bevosita shaxslararo muomaladan o'z tarbiyalanuvchilari, umuman kollektiv haqida, undagi ichki jarayonlar haqida g'oyat xilma xil axborotga ega bo'ladi va hokazo.

O'z navbatida pedagog o'z tarbiyalanuvchilariga ham maqsadga qaratilgan axborotni, ham uning o'quvchilarga murojaatida tom ma'no tarzida botinan kirib boradigan axborot ma'lum qiladi.

Pedagogik muomila vositasi orqali qanday axborot rolini qarab chiqar ekanmiz, o'quvchining shaxsi haqidagi axborotning muhimligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bevosita muomala shaxsning g'oyat xilma xil sharoitlarda va ko'rinishlarda urganishga imkon beradi. U faqat shaxsning xulq atvorida namoyon bo'ladigan erkin va eng ta'sirchan tashqi belgilargina qayd etish imkonini berib qolmaydi. Pedagog o'quvchilar bilan muomala qilar ekan, juda mayda detallarni ham anglab olishga qodir bo'ladi. Bu detallar sirdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmay, shaxsda sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlari bo'yicha bo'lishi ham mumkin. Bu hol shaxsni chuqur tushunish imkonini beradi, tashqi qatlam ostida boshqa usullar bilan aniqlab bo'lmaydigan narsalarni topish imkonini beradi.

Pedagoglik faoliyati kishini o'zi duch keladigan hodisalarni tahlil etish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitiladi. Bu esa o'z sheriklari ahvolini fahmlab bilib olish va ular haqida hukm yuritish qobiliyatini oshiradi. Nihoyat pedagogning o'quvchilar bilan kundalik muomilasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarni hatti-harakatlaridagi chuqur ma'no va haqiqiy sababni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida uzi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o'quvchilarning xulq atvor usullaridan foydalaniladi. Bu narsa pedagoglik faoliyatida ayniqsa sezilib turadi. Bu qonuniy bir holdir. Chunki "Biz kundalik hayotda odamlar bilan muomalada bular ekanmiz ularning xulq atvorini bilib olamiz, chunki biz uni guyo o'qiganday" bo'lamiz, ya'ni xulq atvorning tashqi ko'rinishlari ahamiyatini tushunib olamiz va shu tariqa kontekstda hosil bo'lgan o'zining ichki psixologik rejasiga ega bo'lgan tekstning ma'nosini ochib beramiz. Bu "o'qish" yo'l-yo'lakay bo'ladi, chunki atrofimizdagilar bilan muomila jarayonida bizda ularning hulqiga doir ma'lum darajada avtomatik tarzda mavjud bulgan psixologik tag ma'no hosil bo'ladi".

O'qituvchining o'quvchilar bilan muomilasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi o'rnini to'ldiruvchi vazifasini ham bajaradi. Bolalar kiradigan turli kollektivlar, unga nisbatan tarbiyaviy vazifani bajaruvchi katta yoshdagi kishilar, unga ta'sir etuvchi tevarak atrofidagi voqealikning ketma-ket omillari bir-birlari bilan etarli darajada aniq vaqtda ishlab chiqilgan aloqa sistemasiga ega emas. har bir

o'quvchiga har xil ta'sirlar oqimi etib borgan, ular bir-birlari bilan unchalik mos kelmasligi va ma'lum darajada biri ikkinchiga zid kelishi mumkin. Pedagogning o'z tarbiyalanuvchilarga ko'rsatiladigan turli tuman ta'sirlarining xususiyatidan xabardorligi, yana shu ta'sirini birlashtirish, o'rnini to'ldirish va unga tuzatish kiritishga intilish, uning shaxsiy sifatlari o'quvchilarga munosabati va pedagogik mahoratiga qarab, boshqarish vositasi bo'lgan muammolarning samaradorligi ko'p yoki oz darajada bo'lishi mumkin. Pedagogik qobiliyatlar strukturasi kiradigan yordamchi xislatlar va xususiyatlardan ayrimlarini qarab chiqamiz. Bu avvalo, aql idrokning xislatlarini hozir javoblik, tanqid ko'z bilan qarash, sobit qadamlik va boshqa bir qator xislatlardir. O'qituvchining nutqi: notiqlik qobiliyatining mavjudligi so'z boyligi va hakazolar ham muhim rol' o'ynaydi.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyat samarali bo'lishining shartigina emas, balki ko'p jihatdan o'qituvchining muvaffaqiyatli ishlashining natijasi hamdir. Shu munosabat bilan o'qituvchining o'zida pedagogik qobiliyatlarining aniq maqsadni ko'zlab tarkib topishi va rivojlanishi katta rol' o'ynaydi. Tajriba va maxsus tadqiqotlar buning batomom haqiqiy narsa ekanligini ko'rsatmoqda, masalan shaxs perseptiv xususiyatlarining eng muhim elementi bo'lgan kuzatuvchilik o'qituvchining pedagogik tajriba hosil qilishiga ham, uning maxsus kuch-g'ayrati natijasida ham rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'zining sosial psixologik kuzatuvchanligini, ya'ni o'qituvchilar turli xarakter xususiyatlari va mayillari payqab olish qobiliyatigina emas, shu bilan birga ularning paydo bo'lish vaziyatiga muvofiq baho berish mahoratini va hokazolarni rivojlantirishga qodirdir. Agar o'qituvchida o'quvchilar bilan munosabatlarning ishonch asosida qurilishiga yo'l-yo'riqlar bo'lsagina, bunday muloqot ro'y beradi. Tarbiya tajribasida bunday yo'l-yo'riqni amalga oshirish qiyin ishdir, lekin bunga butunlay erishish mumkin. Albatta katta yoshdagi kishining bolalar muhitiga uzviy ravishda qo'shilib ketishi nihoyatda qiyin narsa. Lekin bu muhitga u yaqinlasha oladi, ancha yaqinlashib boradi.

Pedagogda bolalar bilan o'zaro ishonch va do'stlik munosabatlari vujudga kelgandagina bunga erishish mumkin.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat?
2. Pedagogik texnika tushunchasi ikki guruhga bo'linib o'rganiladi, ularga ta'rif bering?
3. Pedagogik texnikaning muhim hususiyatlari nimalardan iborat?
4. "O'qituvchi-murabbiy professiogrammasi"da talqin etilgan pedagogik hislatlari?
5. O'qituvchi harakatlarida aktyorlikka xos xususiyatlarga ta'rif bering?
6. O'qituvchining tashqi ko'rinishida pedagogik texnikaning qanday holatlari muhim ahamiyat kasb etadi?
7. O'qituvchining pedagogik faoliyatida mimik va pantomimik harakatlar qanday ahamiyatga ega?
8. O'qituvchining o'z hissiy holatlarini nazorat qilishida qanday faoliyat turlari muhim rol o'ynaydi?
9. Yosh o'qituvchilar o'z shaxsiy pedagogik texnikasini takomillashtirish uchun nimalarga e'tibor berishlari lozim?

10. Pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini takomillashtirish jarayoni?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq", 1997, 20-29 betlar.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: "O'zbekiston", 2009.-176 b.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat-Toshkent, TDPU, 2003.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.-T.: O'zbekiston, 1999.-29 b.
1. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar)-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. -380 b.
2. Макаренко А.С. О воспитании //Золотой фонд педагогики,- М.: Школьная пресса, 2003,- 192 с.
3. Самуйленков Ф. Мастерство, педагогический такт - это авторитет учителя.-М.: Просвещение, 1990,- 254 с.
4. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005,- 149 b.

10-MAVZU. NUTQ TEXNIKASI VA MADANIYATI

R E J A:

1. Til va nutqning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
2. Til va nutq madaniyati haqida buyuk mutafakkirlar va pedagoglarning fikrlari
3. Pedagogik nutq va uning shakllari.
4. Pedagogik nutqning funksiyalari va xususiyatlari.
5. Nutq texnikasi, nafas olish, talaffuz.

Tayanch tushunchalar:

Notiqlik san'ati; qadimgi Yunoniston; "San'atlar shohi"; suhbat metodi; ideal notiq; ovoz ritorikasi; nutq odobi; suhango'ylar; nutq texnikasi; til va nutq; nutqning ravonligi; nutqning ta'sirchanligi; grammatik norma; nutqning mantiqiyliigi; nutqning tozaligi va ifodaliligi; dialektizm va varvarizm; jargon; tashqi nutq; ichki nutq; o'qituvchining nutq madaniyati; metonimiya; metafora; monologik nutq; dialogik nutq; kommunikativ nutq; tovush; diapazon va tembr; fonotsional nafas; diksiya; ritmika; artikulyatsiya; diafragma ishtirokida nafas olish; dialogik nafas olish.

Tabiat kuchlarini bilish va egallashda juda qisqa vaqt maboynda g'oyat katta muvaffaqiyatlarga erishuvchi odamning hamma boshqa jonzorlar-hayvonlardan farqli tomoni ularda tilning mavjudligidir. O'zining ongi-tili va nutqi bilan inson hamma narsadan ustun turadi.

Til jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi kuch va millatning mavjudligini ko'satuvchi belgilardan biri hamdir.

Barcha rivojlangan davlatlarda bo'lganidek bizda ham o'z milliy tilimizni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. O'zbek tili bizda davlat tili deb e'lon qilingan va shunga amal qilinmoqda.

Yurtboshimiz I.Karimov o'z nutqlarida chet tillarni o'rganishning ahamiyati muhimligini ko'rsatish bilan birga yana shunday deydi: "Ammo shunga alohida urg'u berishimiz zarurki, chet tillarni o'rganish, minba'd ona tilini esdan chiqarish hisobiga bo'lmaligi lozim.

O'z fikrini mutloqo mutaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalombor, rahbar kursida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin" ("Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori").

Til aloqa vositasi yoki qurolidir, nutq esa aloqa jarayonining o'zidir.

Nutq faoliyati-odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish yoki o'z harakatlarini rivojlantirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir.

Nutq qanchalik chiroyli, mazmundor bo'lsa kishilarni o'ziga shunchalik jalb etadi. Bu masalaga kishilar qadimdan qiziqib kelishgan. Qadimgi Yunoniston va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratilgan. Notqlik san'at darajasiga ko'tarilgan. Ularda etuk inson bo'lish uchun notqlik san'atini egallashlari shart bo'lgan. 335 yilda Aristotelning "Ritorika"si yaratiladi. Siseronning "Notiq haqida", "Notiq"asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning "Notiq tayyorlash to'g'risida" asari ham notqlik san'ati haqidadir.

Sharqda, jumladan Movarounnahrda ham va'zxonlikka katta e'tibor berilgan. Va'zxonlik notqlik san'atining o'sib borishi bilan nutq oldiga qo'yilgan talablar ham mukammallashib boradi. Buyuk allomalar Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Maxmud Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Kaykovus va boshqalar tilga, mantiqshunoslik va notqlikka oid asarlar yaratdilar.

Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida farzandini yoqimli, muloyim, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. "Xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening suz bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar ...", deb yozadi alloma. U yana notiq xalq tilini, uning fikri va ruhiyatini bilishi kerak deydi.

Yusuf hos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham til odobi va notqlik madaniyati haqida juda qimmatli fikrlar bayon etiladi. U qisqa so'zlash, so'zlarga iloji boricha ko'proq ma'no yuklash haqida gapiradi. Til insonning qadr-qimmatini oshiradi yoki shu til orqali inson yuz tuban ham ketishi mumkin, deydi adib.

Omonlik tilasang agar sen o'zing,
Tilingdan chiqarma yaroqsiz so'zing.
Qizil til qilar qisqa yoshli seni,
Omonlik tilasang avayla uni.

Alisher Navoiy turkiy tilda go'zal nutq tuzish bayroqdoridir. U o'z ijodi bilan o'zbek adabiy tiliga asos soldi. Bu tilning boyliklarini namoyon etdi. Navoiyning "Muhokamatul-lug'atayn", "Mahbubul-qulub", "Nazmul javohir" asarlari o'zbek tilida nutq tuzishning go'zal namunalari bo'lishi bilan birga uning

yuksalishiga ham katta hissa qo'shdi. "Mahbubul qulub" asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq madaniyati haqida muhim fikrlar briladi.

"Tilga ixtiyorsiz-elga e'tiborsiz". "Tilini tiyolgan odam-donishmand oqil; so'zga erk bergan odam-beandishaa va pastkash. Til shirin va yoqimli bo'lsa yaxshi, til bilan dil bir bo'lsa yana yaxshi".

Navoiydan keyingi qator adib, allomalarimiz, jumladan jadid ziyolilari ham til va nutq, til va nutq madaniyati haqida o'zlarining muhim qarashlarini bayon etganlar.

O'qituvchi, tarbiyachi madaniyatini egallamasa hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, yomon ma'nodagi eski usuldan, bir qolibdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi. O'qituvchi nutqi, o'quvchilar bilan muoamala qilishi uning o'z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Buning uchun esa u gapirishni bilishi lozim. Gapirishni muloqot olib borishni doimo o'rganib borish kerak.

Pedagogik jamoa bilan, bolalar guruhlari, ayrim o'quvchilar bilan gaplasha olishi kerak. U darsni samarali olib borishi uchun gapirishni bilishi, suhbat, leksiya, hikoya qilish kabi usullardan foydalanishi lozim. Birinchi navbatda o'qituvchi suhbatni boshlaganda, gapni masalaning qo'yilishidan boshlashi mumkin. Bu masalada bo'lajak suhbatning ma'nosi mujassamlashga bo'ladi. Mavzuga diqqatni tortishga urinib ko'rish ham mumkin, bunda gapni erkin, qiziqarli faktni ma'lum qilishdan boshlasa bo'ladi. Suhbatni tugallash ham muhim ahamiyat kasb etadi. U turlicha bo'lishi mumkin. Asosiy g'oyalarni yana bir marta qisqacha bayon qilib berish mumkin uni she'riy satrlar bilan tugallasa ham bo'ladi.

Bu qoidalarga rioya etish pedagogning so'zlari o'quvchilarga zarur ta'sir ko'rsati uchun shart-sharoit yaratadi. So'z bilan ta'sir ko'rsatishni amalda qo'llanish o'z hissiyotlarini, ijodiy ta'sirlanishini boshqarish ko'nikmalariga va o'z his-tuyg'ularini ifodalash uchun aniq shaklni topa bilishga asoslanishi lozim. Bu sohada aktyor ishi osonroq ekanligini e'tirof qilish kerak. Ta'lim-tarbiya ishi rahbarning doimiy tutgan yo'li ba'zan pedagogika his-tuyg'ular va fikrlarni so'z bilan ifodalashda qolibda ish tutishga olib keladi. Ko'pincha so'z bilan ifodalashning bir kolibdaligi o'qituvchi hayajonlanganda va jiddiy ayb, gunoh qilgan o'quvchilarni qoralash lozim bo'lganda yaqqol ifodalanadi.

Imo-ishora yuz harakatlari bilan ta'sir ko'rsatish mumkin. Bunda ham imo-ishoralar so'z-tovush nutqini to'sib qo'ymasligi kerak. Og'zaki ta'sir qilish mazmuni ta'sir qiluvchi ta'sir ko'rsatishning aniq turiga bog'liq. Agar biz ta'sir qiluvchi nasihatdan foydalansak, nutqimiz nihoyatda muxtasar bo'lishi lozim. ta'sir qiluvchi ta'sir ko'rsatish uchun o'ziga xos narsa faqat narsaning mazmuni emas, balki nutqning ohangdorligi, bo'yog'i hamdir.

hatto oddiy nutqda ham agar kuchli ta'sir qiluvchi ta'sir ko'rsatish vazifasi qo'yilmasa, faqat axbortoning mazmuni emas, gapiruvchining so'zlashish ohangi ham idrok etiladi. Nutq texnikasini takomillashtirish uchun o'z ovozi chetdan turib eshitish muhimdir. Bu o'rinda magnitafon o'qituvchilarga bebaho yordam beradi. Og'zaki ta'sir qilishning har xil turlarini magnit lentasiga bir necha marta yozib olib, eshitib ko'rish zarur, shunga erishish kerakki, u galdan bu galga ovoz

ohangi tobora aniqroq bo'lib borsin, hal etilayotgan vazifaga tobora mos kelib, so'zlovchining individual xususiyatlarini juda mukammal ifodalaydigan bo'lsin.

Pedagogik jarayonda qo'llanadigan uzaro fikr almashishining asosiy shakllari tahlil qilish va ularga ta'rif berish darsni vaqtda bo'lajak o'quvchining kasb-koriga o'z-o'zini tarbiyalashi uchun ham. pedagogik muomala madaniyatini takomillashtirish uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Tilshunoslik bolalar nutqni kattalarga taqlid qilish yuli bilan egallab olishlarini isbotlab beradi. O'qituvchi nutqi o'quvchilar uchun namuna va ularga ta'sir etish vositasidir. Kichik sinf o'quvchilarining nutqlari uncha o'smaganligi sababli kattalar nutqidagi yaxshi jihatlariga ham, yomon tomonlariga ham bir xilda taqlid qilaveradilar. O'qituvchi nutqining xususiyatlariva nuqsonlari tarbiyalanuvchilar nutqining xususiyatlari va nuqsonlariga aylanib qoladi. Shuning uchun o'qituvchilar nutqiga g'oyat katta talablar qo'yiladi. O'qituvchining nutqi adabiy til mezonlariga javob berishi va bolalarning yoshiga mos, ularga tushunarli bo'lishi kerak, o'qituvchi o'z nutqida ko'proq sinonimlardan antonimlardan foydalanish kerak.

Buning uchun u shoshilmasdan. duduqlanmasdan, ona tilidagi hamma tovush so'zlarni to'g'ri, aniq, burro, orfografiya normalariga rioya kilib talaffuz eta bilishi kerak. O'qituvchi ko'pincha bolalarga berilgan savolni bir necha marta takrorlaydi, bu berilgan savolni to'g'ri tushunib olishga, vujudga kelgan pauzani to'ldirishga yordam beradi. Bu vaqtda uqituvchi bolalarga birgina fikrning o'zi turlicha bayon etilishi mumkinligini ko'rsata olish imkoniga ega bo'lishi kerak.

O'quvchilarni uz fikrlarini to'g'ri shaklda bayon etishda o'rgatib borish kerak. Avvalo, to'g'rilash, aytib berish, keyinchalik bolaga o'z xatosini mustaqil to'g'rilash imkonini berish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirish borasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga katta ahamiyat berilgan. O'quvchilar nutqini o'stirish vositasi asosan ona tili o'qitish, tabiat, matematika va boshqa fanlarni o'qitish orqali amalga oshiiladi O'quvchilar nutqini o'stirish uchun ko'proq ertak, hikoya, she'r, rasmlar o'rganti yo'li bilan erishiladi. Nutq o'stirishda ikki usul davr talabidan biri bo'lishi mumkin. O'qituvchilar har bir darsni boshlashdan oldin 5 minut suhbat o'tkzishadi. Bu usulni boshlang'ich sinf o'qituvchilarining hammalari ham amalda qo'llay bermaydilar. har bir o'qituvchi har kungi birinchi soatlarida, o'qish darslarida turli mavzular tanlab dars boshlashdan oldin 3-5 minut kirish suhbat o'tzkazishsa foydadan holi bo'lmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilarning og'zaki nutqlarini muntazam o'stirib borishda, ularning atrof muhitni kuzishlari va qayta tasavvur qildirish orqali bog'lanishli nutq, matnlar tuzutishlariga amaliy yordam beradi. Bunda o'qituvchi erinmay ishlab borishi lozim.

Yosh avlodni tabiat, jamiyat rivojlanishi qonuniyatlari bilan, kishilarning o'zaro axloqiy munosabatlari bilan tanishtirishda o'qituvchi nutqi katta rol o'ynaydi. Har bir o'quvchi o'z sevimli o'qituvchisining tovush, nutqiy xususiyatlari, o'quvchilarga murojaat qilish, savollarga javob berish usullarini doimiy eslay oladi.

O'qituvchi nutqi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish vazifasini bajarishi kerak. Shuning uchun unga faqat umummadaniy emas balki kasbiy va pedagogik talablar ham qo'yiladi. O'qituvchi o'z so'zining mazmuni, sifati va oqibati uchun ijtimoiy javobgardir. Shuning uchun o'qituvchi nutqi pedagog mahoratining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'qituvchi nutqi deyilganda o'qituvchining og'zaki nutqi ko'zda tutiladi. Og'zaki nutq-bu o'qituvchining gapirish vaqtida tuziladigan nutqi.

Pedagogning nutqi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- pedagog va uning tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabati va mahsuldor muloqotini;

- ta'lim jarayonida bilimni to'la qabul qilinishi, anglashi va mustahkamlanishini;

- o'quvchilar faoliyatiga undagi insinktni shakllantirish maqsadida ular ongi va hissiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish;

- o'quvchilarning o'quv va amaliy faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish.

"Pedagogik nutq" tushunchasi o'qituvchining kommunikativ xulqi tushunchasi bilan uzviy bog'liq. O'qituvchining kommunikativ xulqi deyilganda faqat uning gapirish va axborot berish jarayonigina emas balki pedagog va o'quvchi muloqoti uchun emosional psixologik muhit yaratishga, ular o'rtasidagi munosabat va ish uslubiga ta'sir ko'rsatuvchi nutqni tashkil etish va unga mos o'qituvchining nutqiy nazokati ham ko'zda tutiladi.

O'qituvchining og'zaki nutqi monolog yoki dialog shaklda bo'ladi. Monologik nutqning keng tarqalgan shakli hikoya, maktab ma'ruzasi, sharx kabilardir. Dialogik nutq turli suhbat, savol-javob shaklida bo'ladi.

Pedagog vazifani muvaffaqiyatli bajarishi uchun o'qituvchining nutqi ma'lum talablarga javob berishi, ya'ni kerakli kommunikativ sifatlarga mos bo'lishi kerak. Nutq bir necha normalarga mos bo'lishi kerak: zamonaviy normalarga, ifodali, adabiy til normalariga.

Pedagog nutqning tug'rilik, aniqlik, moslik, leksik boylik, ifodalilik va tozalik kabi kommunikativ sifatlari o'qituvchi nutqining madaniyatini belgilaydi.

Maqsadga muvofiq pedagogik nutq o'zining mantiqiyliги, ishonchligi, qo'zg'atuvchanligi bilan xarakterlanadi.

Pedagogik nutqning funksiyalaridan biri-bilimni to'liq holda berilishini ta'minlashdan iboratdir.

O'qituvchi nutqining kommunikativ o'ziga xosligi bilan bilimni o'quvchilar tomonidan qabul qilinishi va esda qolishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa bor. Nutq buni ta'minlashi yoki qiynlashtirishi mumkin.

O'qituvchining nutqi faqat axborot berib qolmay, o'quvchining ongi, sezgisiga ta'sir qilishi, ularni o'ylash faoliyatiga undashi kerak.

O'qituvchi nutqi ikkinchidan o'quvchining samarali o'quv faoliyatini nutqi avvalo darsda samarali o'quv eshituvchini ta'minlashi kerak.

O'quvchi o'qituvchi nutqini eshita turib qator operasialarni bajaradi: berilayotgan axborotni ko'rgazmali shaklda aniqlashtiradi, o'zidagi bilim bilan unga munosabat bildiradi, eslab qoladi, nutq mantiqini, fikrlar rivojini kuzatib boradi.

Ovoz tonining balandligi, tovushning yuqoriligi, bir xilda gapirish bolalarni charchatadi. O'quv-biluv jarayonning samarali bo'lishiga darsda o'qituvchi tanlagan kommunikativ xulq uslubi ham ta'sir qiladi. O'qituvchi ko'pincha "o'chir", "jim o'tir", "o'tir", "tugat", "yop" kabi norozilikni bildiruvchi so'zlarni ishlatadi, o'quvchi javobini bo'ladi, "har doimgidek hech narsa bilmaysan", "sen buni qaerdan ham tushunarding" kabi gaplarni aytadiki, bo'lar o'qituvchi o'quvchi munosabatini buzilishiga, aqliy faollik pasayishiga olib keladi.

Pedagogik nutqning uchinchi funksiyasi-o'qituvchi o'rtasidagi maxsuldor o'zaro munosabatni ta'minlashdan iborat.

O'qituvchi nutqi o'quvchi-o'qituvchi munosabatini boshqarish rolini ham bajaradi. Bu erda hamma narsa ahamiyatli: o'qituvchi o'quvchilarga qanday murojaat qiladi, salomlashadi, talablarini qanday qo'yadi, qanday ogohlantiradi, hoxishini qanday bayon qiladi; nutqi impotensiyasi, yuz ifodasi, qarashi, ham bolaga ta'sir ko'rsatadi. Darsdan tashqari muloqotda bularning ahamiyati yanada katta bo'ladi. Ko'p narsa o'qituvchining individual muloqot uslubiga ham (qurquvga asoslangan, o'yinga, do'stona aloqaga asoslangan), muloqot doirasidagi sosial xarakterlariga ham bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi nutqining xususiyati u avvalo o'quvchilarga qaratilgan va yo'naltirilgan bo'ladi. O'qituvchi monologi ham o'quvchilar bilan ichki dialog shaklida bo'ladi. Uning nutqida birgalikdagi ish uchun gapirish bo'ladi: "Birgalikda o'ylab ko'raylik", "O'ylaymanki, bu ishlar qiziqtiradi", "siz albatta esladingiz" va boshqalar.

O'qituvchi og'zaki nutqining yana bir xususiyati, uning mazmuni o'quvchilar tomondan ikki kanal orqali tovush va vizual yo'l bilan qabul qilinadi. Vizual harakatlar o'qituvchi nutqining ta'sirchanligi, ifodaliligini oshiradi, u o'qituvchining kayfiyati haqida ham o'quvchilarga axborot beradi. SHuning uchun yosh o'qituvchi muloqotda o'zining tashqi ko'rinishini boshqara olish ko'nikmasini shakllantirishi kerak.

Og'zaki nutqning yana bir xususiyati uning improvizasiya xarakterida ekanligidir. Tajribali o'qituvchi tekstga yoki konspektga qaramasdan gapiradi, o'quvchi uni tinglay turib, so'z va ifodalar birdan tug'ilayotganligini ko'radi. SHunday holat vujudga keladiki, geyoki o'qituvchi bu haqiqatni fikrlarini birinchi marta o'quvchilar bilan ochayotgandek bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchini takomillashtirish. Nutqni takomillashtirishni quyidagi yo'nalishlarini ko'rsatish mumkin: o'z-o'zini nazorat va nutq madaniyatini rivojlantirish; nutqiy muloqotning barcha holatlarida adabiy nutq qoidalarini egallash uchun o'ziga sharoit yaratish.

O'z-o'zini nazorat va ifodali nutq malakalarini rivojlantirish. O'z nutq inpotensiyalarini kuzatish: u jonli, xilma-xil, hissiy buyoqlimi yoki bir xil monoton-mi?

Nutq tayyorlash jarayonida o'zingizcha quyidagi savollarga javob toping: tinglovchilarda qanday fikr o'yg'otmoqchisiz? Ularda qanday kayfiyat yaratmoqchisiz? Nutq mazmuni va sharoiti qanday intonasiya va ritm talab etadi? Bir necha bor nutqingizni qaytarib ko'ring.

Nutqingizni badiiy adabiyotdagi lavhalarga o'z taassurotlaringizni qo'shgan holda qayta to'ldiring.

Kommunikativ nutqning muvoffaqiyatli bo'lishi o'qituvchida qator maxsus qobiliyatlar rivojlanishini talab qiladi: sotsial-perseptiv qobiliyati, ijtimoiy tasavvur qobiliyati, o'zini boshqara olish qobiliyati, muloqotda o'zining ruhiy holatini boshqara olish qobiliyati, irodaviy ta'sir ko'rsatish, ishontira olish qobiliyati.

Nutq malakalari va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun sharoit yaratuvchi kishining umumiy ruhiy-jimoiy xususiyatlarini rivojlantirish, bunda tasavvurni, obrazli xotira va fantaziyaning rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Tovush. Ba'zilarga tovush tug'ma berilgan, lekin bu ham mashq qilib turilmasa buziladi. Kishi tovushini kuchli, egiluvchan, jarayonli qila olishi mumkin.

O'qituvchi tovushining o'ziga xosligi nimada?

Avvalo bu tovushning kuchliligi. Uning kuchli nutq aparati organlarining aktivligiga bog'liq.

Tovush eshutilishining poletnost(uchuvchan)ligi, bu ovozni masofaga moslay olish, tovushni boshqara olishdir. Gibkost (egiluvchanlik) va podvijnost (harakatchanligi) tovushning uni yengil o'zlashtira olish, tinglovchilarga moslashdir.

Diapazon-tovushning hajmi. Uning chegarasi juda yuqori va past ton bilan aniqlanadi.

Tembr-tovush buyog'i, yorqinligi, shu bilan birga uning yumshoqligi, iliqqligi, o'ziga xosligi.

O'qituvchida kasbiy kassallik kelib chiqmasligi uchun tovush gigenasiga amal qilish kerak. O'qituvchi ish vaqtining 50% davomida gapirib turadi. Pedagog ish vaqti tugagach 2-3 soat davomida uzoq vaqt so'zlashishdan qochishi kerak. Zarur bo'lib qolsa qisqa va sekin gapirishi kerak.

Dars jadvali qo'yilishida shunga e'tibor berish kerak. 3-4 soat darsdan so'ng nutq apparati charchaydi, shundan so'ng 1 soat tovush dam olishi kerak. Ko'p stajli o'qituvchi 2-3 soatda charchaydi va 2 soat dam olishi kerak. Yuqori nafas yo'llari, nerv sistemalari, ovqatlanish rejimiga e'tibor berish kerak.

Diksiya-so'z, bo'g'in, tovushning aytilishidagi to'g'ri va aniqlik. Diksiyani takomillashtirish nutq organlarining harakatini qayta ishlash bilan bog'liq. Maxsus mashqlar boshqariladi.

Ritmika-ayrim bo'g'inlarni aytishdagi to'liq davomiylik, shu bilan birga nutqni tashkil qilish etapi. Bu nutqning muhim elementi bo'lib, ba'zan intonatsiya va pauza o'ziga so'zdan ko'ra kuchli emotsional ta'sir qiladi.

Nutq tezligi o'qituvchining individual sifatiga, uning nutq mazmuni va muloqot holatiga bog'liq bo'ladi. Turli millatlarda nutq tempi turlicha bo'ladi. Ruslarda minutiga 120 so'z atrofida, inglizlarda 120-150 so'zgacha. Tadqiqotlarga ko'ra 5-6 sinflarda o'qituvchi minutiga 60 so'z, 9-11 sinflarda 75 so'z gapirishi to'g'ri bo'ladi.

Materialning murakkab qismini o'qituvchi past tempda. Keyin esa tezroq gapirishi kerak. Qoida, qonunlar aytganda, xulosada nutq sekinlashadi.

Nutq texnikasi. O'quv vaqtining ko'p qismi (1/4, 1/2) da o'qituvchining nutqi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'quv materialini o'quvchilar tushunishi o'qituvchi nutqi mukammalligi bilan bog'liqdir.

Ba'zilar tovush va uning temбри tug'ma deb bilishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovushni to'liq qayta qurish mumkinligini aniqlamoqda.

Tarixdan ham ma'ulumki, ba'zi kishilar o'zlarining nutq, tovushlarini takomillashtirib borganlar. Masalan, Demosfen o'zining bu sohadagi kamchiliklarini tugatib borib Qadimgi Gretsiyaning siyosiy oratorlaridan biriga aylangan. Yoki Vladimir Mayakovskiy ham 20 yoshdan o'zini rasmiy chiqishlari uchun tayyorlagan, og'ziga toshchalar olib, Rion daryosi bo'yida nutqlar tayyorlagan.

Bugunda nutq texnikasi bo'yicha ishlashning teatrli pedagogika tajribasi asosida nutqiy nafas, tovush, diksiya, ritmika kabi komplekslarini ishlash ko'zda tutiladi.

Nafas. Nafas organizmga hayot ta'minlab turishi bilan birga u nutqning energiya bazasi sifatida ham faoliyat qiladi. Nutqiy nafas fonotsiol nafas deyiladi (fono-tovush). Kundalik hayotda nutqimiz dialogik tarzda bo'lib, nafas qiyinchilik tug'dirmaydi. Lekin darsda o'qituvchi ko'p gapirgan, ma'ruza o'qigan vaqtlarda o'zgarmagan nafas gapirgan, ma'ruza o'qigan vaqtlarda o'rganmagan nafas qiyinchilik tug'diradi: yuz qizarib ketishi, tez-tez qisqa nafas olish bo'lishi mumkin.

Nafas jarayonida qaysi muskullar ishtirok etishiga qarab nafasning 4 ta tipi ajratiladi:

1. Yelka va ko'krak qafasining yuqori qismini ko'taruvchi muskullar ishtirok etadi. Bu kuchsiz, yuqori nafas bo'lib, o'pkaning faqat yuqori qismi faol ishlaydi.

2. Ko'krak orqali nafasni qovurg'alar orasidagi muskullar amalga oshiradi. Diofragma kam harkatda bo'lib, nafas chiqarish kuchsiz.

3. Diafragmali nafas-ko'krak hajmining o'zgarishi, diafragma qisqarishi hisobiga bo'ladi.

4. Difragma va qovurg'a orqali nafas-diafragmaning har tomonlama hajmi o'zgarishi, qovurg'alar orasidagi va qorindagi nafas muskullari ham qatnashadi. Shu nafas to'g'ri bo'lib, bu nutqiy nafas uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Notqlik san'atining paydo bo'lishi tarixi?
2. Sharq mutafakkirlarining notqlik san'ati haqidagi fikrlari?
3. Nutq texnikasida nutqning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Nutqning to'g'riligi va ravonligi, aniqligi va ta'sirchanligiga ta'rif bering?
5. Nutqning mantiqiyligi deganda nimani tushunasiz?
6. Til va nutq bir-biridan qanday farqlanadi: ularning qiyosiy tahlili?
7. O'qituvchi nutqiy faoliyatining komponentlari nima, ularni izohlang?
8. O'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish vositalari?
9. Nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligi qanday namoyon bo'lishini ta'riflab bering?
10. Tajribali o'qituvchi nutqida namoyon bo'luvchi holatlar?

11. O'qituvchi nutqining funksiyalarini izohlab bering?

12. Bolajak o'qituvchi nutqiy faoliyatini qanday takomillashtirishi mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotini poydevori. -Toshkent; "Sharq", 1997, 20-29 betlar.

2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent; "Sharq", 1997,31-61 betlar.

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.T.: "O'zbekiston", 2009.-176 b.

4. Apresyan G.Z. Oratorskoe iskusstvo. M., Izd-vo Mosk. universiteta, 1978.-280 s.

5. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov. H.Saidov, R.Ahliddinov.-To'ldirilgan 2-nashri.-T.: "O'zbekiston milliy ens iklopediyasi", 2000.-248 b.

6. Kaykovus. Qobusnoma (Forschadan Muhammad-Rizo Ogahiy tarjimasi).: S.Dolimov.-T., O'qituvchi, 2006.-208 b.

7. Mahmudov N. M. o'qituvchi nutq madaniyati. Darslik.-T.: O'zb. Milliy kutubxonasi, 2007.-185 b.

8. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati.-T.: O'qituvchi, 1995.

9. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. Asarlar 15-tom.- T.: "Fan" 2005.

10. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T.: "Iqtisod-moliya". 2009.-240 b.

11. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar)-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. -380 b.

12. Husanov B. G'ulomov V. Muomala madaniyati. Darslik.-T.: "Iqtisod - moliya" 2009.- 156 b.

11-MAVZU. O'QITUVCHINING TA'LIM JARAYONIDAGI MAHORATI.

R E J A:

1. O'quvchilarning bilish, anglash faoliyatini boshqarishda o'qituvchi mahorati.
2. Darsga o'quvchilar diqqati, qiziqishni uyg'otish va faolligini oshirishda o'qituvchi tutadigan yo'l va ko'rgazmalardan foydalanish.
3. O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda o'qituvchi mahorati.
4. O'quvchilar bilim malakalarini tekshirish va baholashdagi o'qituvchi mahorati.
5. O'qituvchining darsgacha, dars davomidagi va darsdan keyingi ijodiy holatini tashkil etish.

Tayanch tushunchalar:

Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash; zamonaviy o'qituvchi; samimiylilik; dars jarayoni; pedagogik ta'sir ko'rsatish; ma'naviy - axloqiy sifatlar; dars turlari; aralash darslar; nazariy bilimlar; tashkiliy va yakuniy bosqich; ta'limiy faoliyat; tarbiyaviy faoliyat, ta'limning rivojlantiruvchi

talablari; ijodiy kayfiyat; pedagogik ijodkorlik; o'z-o'ziga ta'sir qilish; kasbiy omilkorlik; individual kasbiy xususiyatlar; pedagogik madaniyat; texnologik madaniyat; o'quv harakatlari; tashxislash; bashoratlash; loyihalashtirish.

O'qitish bilan bolalarning aqliy rivojlanishi yagona, bir-biri bilan bog'liq jarayondir. O'qitishda bilimlar va faoliyat usullarining doimo murakkablashib borishi o'quvchilarning rivojlanishini belgilaydi. Ammo o'qitish natijasida rivojlanish ro'y beribgina qolmay, uning o'zi ham rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib, uning yutuqlariga tayanadi. O'quvchilar nimaga tayyor bo'lsalar o'sha narsanigina o'rgana oladilar.

Psixolog va didaktiklarning tadqiqotlarida shu narsa isbotlandiki, "O'qitishning mazmuni, ya'ni bolaga beriladigan bilimlar va faoliyat usullarini o'zgartirib, bolaning rivojlanishini ham ancha o'zgartirish mumkin".

O'qitish jarayonida o'quvchilarning doimo intellektual o'sishi va rivojlanishini ta'minlamoq uchun o'qituvchi rivojlanishning u yoki bu darajasini, o'quvchilar rivojlanishining bir darajasidan ikkinchisiga o'tishni payqay olishi muhimdir. Agar u maktab o'quvchilari aqliy rivojlanishining ayrim belgilaridan xabardor bo'lsa, bu ishni qila oladi.

Aqliy rivojlanish belgilaridan biri bilimlar sistemasining mavjudligidir. Biroq bilimlar har xil yo'llar bilan olinadi. Bilim olish usullaridan biri-yodlashdir. Ammo, bilimlarni o'zlashtirishning bu usuli o'quvchi faoliyatida asosiy o'rinda bo'lib, u boshqa usullardan xabardor bo'lmasa, bu holda o'quvchi juda oddiy masalani-biror qoidani tasdiqlash uchun misol keltirish haqidagi vazifani bajarishda boshi berk ko'chaga kirib qoladi.

Demak, aqliy rivojlanishning belgisi bilimlagina emas, balki bilimlarni o'zlashtirish jarayonidan, bilim faoliyatining usullaridan ham iboratdir.

O'quvchilar oldiga bilimlarni mutaql egallash va ularni amaliyotga tatbiq etish zarurati qo'yilsa, ularning aqliy rivojlanishi muvaffaqiyatliroq boradi. Topshiriqlarni bajarish vaqtida o'quvchilar murakkab aqliy ish qilishlari kerak bo'ladiki, bu ish kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, o'quv topshiriqlarini hal etish uchun qoidalarni tatbiq etish singari bir qancha harakatlarni o'z ichiga oladi. Agar o'qituvchi asosan ikki harkatni-tinglash va yodlab qolishnigina talab qiladigan bo'lsa, makta o'quvchilari faqat ana shu harakatlarni bajarishga o'rganib qolib, natijada oddiy dars vazifasini ham hal eta olmaydilar. Demak, o'quvchilarning tayyorgarligisiz o'qitishga ijodiy yondoshish mumkin emas. O'quvchilarni fikr yuritishi, aqliy operatsiyalarni bajarishga o'rgatish lozim.

Aqliy operatsiyalarni bajarish ko'nikmasini egallash darajasi o'quvchilar rivojlanishining muhim belgisidir.

Ammo buning o'zi kifoya qilmaydi. Aqliy operatsiyalarni bajarish ko'nikmasi barqaror bo'lishi kerak. O'quvchi har qanday sharoitda, fanda ham uni tatbiq eta olishga erishishi lozim.

O'quvchi xilma-xil intellektual ko'nikmalarni egallagach, material mazmunigagina emas, balki bilish jarayonining o'ziga ham qiziqish bilan qaray boshlaydi. U qiyin vazifalarni hal etishni yoqtiradi. Bilishga qiziqish rivojlanib va

takomillashib, o'quv materialini egallash usullarini takomillashtirish ehtiyojiga aylanadi.

Bilimga qiziqish va bilimlarga chanqoqlik-aqliy rivojlanishning muhim belgilaridir.

O'qituvchi dars o'tish jarayonida o'zi bayon qilayotgan nazariy material to'grsida o'ylashi va ayni vaqtda o'quvchilarning aqliy mehnatini kuzatib borishi, ularning diqqat e'tiborini, qiziqishini irodaviy kuch-g'ayrat, aqliy mehnatga va o'quvchiga munosabatini kuzatib, tahlil qilib borishi lozim. Pedagogik mehnatning ana shu ikki tomonini uyg'unlashtirish turli narsalar to'g'risida o'ylay bilish va murakkab o'qish-o'qitish jarayonini har tomondan tahlil qila bilish -pedagogik mahoratning eng nozik sohalaridan biridir.

O'quvchi bilan o'qituvchining aqliy mehnatidek jonli, doim o'zgarib turuvchi, jo'shqin hech narsa yo'q. Basharti o'qituvchi ayni vaqtning o'zida ham dars materiali to'g'risida, ham bolalar to'g'risida o'ylay olsa, basharti u belgilangan dars rejasini har bir lahzada o'zgartirishga tayyor bo'lsa va bunday o'zgartirish birdan bir oqilona ish bo'lsa, sinf uning ixtiyorida deyavering.

Dars samarali bo'lishi uchun avvalo o'qituvchi suhbatni qanday boshlash; o'quvchilarning diqqatini qanday qilib darhol o'qituvchining gaplariga qaratish, ularni qiziqtirish mumkin? Bunda gapni masalaning qo'yilishidan boshlash mumkin, bu masalada bo'lajak suhbatning ma'nosi mujassamlashgan bo'ladi. Mavzuga diqqatni tortishga urinib ko'rish ham mumkin. Bunda gapni yorqin, qiziqarli faktni ma'lum qilishdan boshlasa bo'ladi. Tegishli maqola yoki sitata keltirish ham muvaffaqiyatli bo'lib chiqishi mumkin. Bundan tashqari darhol bolalarga bo'lajak suhbat ularning qiziqishlari bilan bog'liq ekanligini aytib o'tsa ham bo'ladi.

Suhbatga bolalarning diqqati jalb qilindi. Endi uning mavzusini qisqa, lekin etarli darajada aniq qilib ochib berish lozim. Bunda shunday variant bo'lishi mumkin. Dastlab pedagog o'quvchilar ongi va hissiyotiga yetkazmoqchi bo'lgan asosiy fikr qisqacha bayon etiladi. So'ngra u ochib beriladi. Buning uchun faktlar, misollar va illyustrasiyalar sistemasi bayon qilinadi. Bunda yorqin taqqoslashlar, kutilmagan o'xshatishlardan foydalanish ham foydali bo'ladi. Shundan so'ng xulosa chiqarish, ya'ni suhbatning asosiy fikrini boshqacha so'zlar bilan takrorlash mumkin.

Suhbat bolalarda doimiy qiziqish uyg'otish uchun bir qator murakkab bo'lmagan usullardan foydalanish zarur, eng muhim so'zlar va iboralarni intonasiya bilan ajratib ko'rsatish va aksincha, intonasiyani o'zgartirish, unchalik muhim bo'lmagan tekstni bayon qilish kerak, ovoz va nutq ohangini o'zgartirish lozim.

Suhbatni tugallash ham turlicha bo'lishi mumkin. Asosiy g'oyalarni yana bir marta qisqacha bayon qilib berish mumkin. Uni she'riy satrlar bilan tugallasa ham bo'ladi. Agar pedagog bolalarning o'zlari eshitgan narsalari haqida fikr yuritishlarini xoxlasa, javobsiz savol bilan ham tugallash mumkin.

Pedagog eski fikr uchun yangi so'zlar izlashi va topishi lozim. Bunday qilmasa quyidagi vaziyat hosil bo'lishi mumkin: yaxshi grammafon yozuvini birinchi bor eshitib ko'rganda kutilmagan bir hodisa bo'ladi, ikkinchi marta

tinglaganda-nasihat, keyingi eshitib ko'rishda esa ichki, ba'zan esa tashqi qarshilik keltirib chiqaruvchi zo'rlik bo'ladi.

Dars samarali bo'lishi uchun o'qituvchi o'quvchini o'ziga moyil qilib olishi lozim. Buning uchun o'qituvchi o'quvchi bilan o'zini shunday tutishi kerakki, unda MEN pedagog uchun ahamiyatliman degan hissiyot paydo bo'lsin. Shunday hissiyot uyg'otish uchun har bir o'quvchida ustun afzal tomonlarni. boshqalardan farqni topish muhimdir, faqat topishgina emas, shu bilan birga buni aytish ham kerak.

Yangi materialni o'quvchiga etkazishda, uning oldingi to'plagan bilimlariga tayana olishiga, undan samarali foydalana olishiga erishish kerak. Tushunarli bo'lmagan narsalarni tushuntirish uchun o'quvchilarning bilimini yaxshi bilish kerak.

Darsda aqliy mehnatning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining yangi material bilan ilgari o'zlashtirilgan material nisbatini qanday belgilay olishiga bog'liq. Qachonki yangi material yaxshi ma'lum bo'lgan materialga puxta mahkamlansa u mustahkam o'zlashtiriladi.

O'quvchi o'kuv materialni qanday egallaganligini bilish o'quvchi uchun ham o'qituvchi uchun ham muhimdir. Bunga bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish yordamida erishiladi.

Tekshirish bilimlarni puxta o'zlashtirish uchun ham muhim vositadir.

Tekshirish jarayonida o'qituvchi bolalar bilimlarini qanchalik o'zlashtirib olganliklarinigina emas, balki ular materialni qanchalik to'g'ri idrok etayotganlarini, ular fikrlash va xotirada saqlab qolishni bilish-bilmasliklarini aniqlashga intiladi.

Tekshirish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati yana shunda namoyon bo'ladiki, o'qishni nazorat qilish sistemasi ijobiy yoki salbiy baho o'quvchini sistemali ishlashga rag'batlantiradi, unda mehnatsevarlikni tarkib toptiradi.

O'zlashtirish va tekshirishga didaktik talablar. Avvalo, bilimlarni tekshirish ularni aniqlashdan farq qiladi. Bilimlarni aniqlash tekshirishning boshlang'ich bosqichidir. Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchi material ustida ishlagan-ishlamaganligini aniqlaydi. Tekshirish har tomonlama nazoratni, bilimlar hajmi va chuqurligini, ko'nikma va malakalrning puxtaligini va aniqlab olinganligini anglatish o'quvchilar aqliy ongining borishi va natijalarini nazorat qilishni taqozo etadi.

Bilimlarni tekshirish vaqtida e'tibor va tirishqoqlik hisobga olinadi, ammo u asosiy mezon bo'lmaydi. Avvalo bilim, ko'nikma va malakalarning sifati va chuqurligi hisobga olinishi kerak.

Bilimlarni tekshirishda individual hissiyotlarni ham hisobga olish kerak.

Bizda tekshirishning 3 ta turi: kundalik, davriy va yakunlovchi tekshirishdan foydalaniladi. Tashkil etish usuliga ko'ra individual va frontal tekshirish bo'ladi.

Kundalik tekshirish keng tarqalgan nazorat jarayonida axborotni olish jarayoniga ko'ra nazoratni: og'zaki, yozma, laboratoriya nazoratlariga ajratiladi. Nazoratni o'qitishning asosiy bosqichlaridagi o'rniga ko'ra-joriy, oraliq va yakuniy nazoratga ajratiladi.

Og'zaki nazorat individual va frontal so'rash yo'li bilan amalga oshiriladi. Individual so'rashda o'qituvchi o'quvchilar ma'lum vaqt davrida egallagan tushuncha, konun, nazariya hamda dalillarni qay darajada egallaganliklarini aniqlaydi. Frontal so'rashda vaqtni tejash uchun doskaga birdan 2-3 o'quvchi chiqariladi.

Dars vaqtida o'qituvchi nazokatsizligi natijasida ayrim fojealar ham yuz berganligiga oid misollar bor. shulardan birini keltiramiz.

Bir o'qituvchi darsni o'z vaqtida boshlab o'tayotgan vaqtda bir o'quvchi darsga kechikib keladi va salom berib o'tirishga ruxsat so'raydi, o'qituvchini darsni buzganligi va o'quvchilarni diqqatini bo'lganligi o'quvchiga uqtiriladi, bir necha so'zlar bilan haqoratlaydi, nimalar deb unga laqab qo'yadi. O'qituvchining shuncha tanbehlari-yu, laqablarini, qo'polliklarini u qulog'iga olmaydi. Seni kasringga shuncha dars o'tib ketdi,-deb uni o'tirishga ruxsat beradi. O'qituvchi darsni davom ettiradi. Lekin o'quvchi qulog'iga hech narsa kirmaydi.

Dars tugashi bilan o'qituvchining stoliga u qisqagina xat tashlab chiqib ketadi. Lekin bu bilan o'qituvchi va maktab ma'muriyati qolaversa ota-onalar hech qanday chora topa olmaydilar, buni iloji ham yo'q edi ...

Xatda o'quvchi o'qituvchidan uzr so'rab o'zidan o'tgan yomonliklardan va uyda bo'lgan ayrim sabablarga ko'ra 5-10 minutga kechikib qolganligi uchun uni o'rtoqlari oldida haqoratlaganligi u nomusga chiday olmaganligini xatga tushurgan edi. Lekin bu xat o'qituvchining qo'liga tushgan vaqtda u hayotdan ko'z yumgan edi. Endi bu o'quvchi o'qituvchi va ota-onalari orasida bo'lmaydi.

O'qituvchi o'sha vaqt maboynida o'quvchini o'tirishga ruxsat berganda edi yosh qalb bizni hayotimizdan ketmagan bo'lar edi.

Yaxshi kishi o'z o'rnini har joyda topa oladi. O'qituvchi avvalom bor aktyor bo'lishi kerak. Sinfga kirganda o'qituvchi o'zini yaxshi tuta bilishi kerak. O'quvchilarga qanday munosabatga bo'lishni bilishi, darsni qanday o'tishi kerakligini bilishi kerak. O'qituvchi o'quvchini oldida o'zini yaxshi tuta bilishi, darsni qanday o'tishi kerakligini bilishi kerak. O'qituvchi o'quvchini oldida o'zini qanday mohirligini, ustaligini ko'rsata bilib dars o'ta bilishi kerak. Ayrim o'qituvchilar sinfga kirgandan keyin o'zini tutishi avvalom bor o'quvchilarni bo'lar-bo'lmasga haqoratlamasligi lozim. O'qituvchi qanchalik o'quvchilar oldida qadrli bo'lsa o'quvchilar ustozini shunchalik yaxshi ko'radi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik fazilati qanday bo'lishi kerak?
2. Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan talablar mazmuni nimalardan iborat?
3. Yosh o'qituvchining darsda pedagogik-psixologik jihatdan tayyorgarligi?
4. O'qituvchi individual nutq madaniyatiga ega bo'lishi uchun nimalarga e'tibor berishi kerak?
5. Pedagogik - psixologik muloqot jarayonining asosiy mohiyati nimalardan iborat?
6. Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida o'tiladigan dars turlari haqida fikringiz?
7. O'qituvchi zamonaviy darslarning qanday kombinatsiyalarini bilishi lozim?

8. Dars jarayonida asosiy maqsadga erishish uchun qanday talablar qo'yiladi?
9. Zamonaviy ta'limda o'qituvchilarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
10. Ijodiy kayfiyat nima va u ta'lim - tarbiya jarayonida qanday shakllantiriladi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq", 1997, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent; "Sharq", 1997,31-61 betlar.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: "O'zbekiston", 2009.-176 b.
4. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. — To'ldirilgan 2—nashri. — T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2000. - 248 b.
5. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar)-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007.-380 b.
6. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b.
7. O'qituvchi ish faoliyatini baholash va uni rag'batlantirish mezonlari (Metodik tavsiyanoma). - T.: 1993. - 34 b.
8. G'aybullayev N.R., va boshqalar. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. - T.: O'zMU, 2005. - 176 b.
9. G'ozdiyev E. Psixologiya. - T.: O'qituvchi, 1994. - 224 b.

12-MAVZU. O'QITUVCHINING TARBIYACHI SIFATIDAGI MAHORATI

R E J A:

1. Tarbiyachi mahoratining mohiyati.
2. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning milliy va nazariy asoslari.
3. Tarbiyachi mahoratining tizimi: ijtimoiy, estetik, axloqiy, texnologik. Sinf rahbari ishlari mazmuni.
4. Pedagogik tashkilotchilik faoliyatining mohiyati.

Tayanch tushunchalar:

Yuksak malakali kadrlar; ong mahsuli; tarbiya jarayoni; tarbiyaning maqsadi; komil inson tarbiyasi; o'qituvchining tarbiyachilik mahorati; tarkibiy qismlar; shaxsning umumdaniyat unsurlari; texnologik tizim; ijtimoiy psixologik tizim; o'z-o'zini tarbiyalash; ixtiyoriylik; o'z-o'zini anglash; inson kamoloti; tarbiyalash metodlari; ko'p qirrali jarayon; obyektiv omillar; subyektiv omillar; tarbiyaning uzluksizligi; tarbiyaviy ish rejasi; tarbiyaviy tadbirlar; tarbiyalanganlik natijalari.

Men Abdulla Avloniyning "tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir"-degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdur. Chunki ta'lim tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan

omildir. Binobarin ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad, ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi degan edilar,- prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlarida.

Darhaqiqat yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni har tomonlama kamolga etgan barkamol inson qilib tarbiyalashda ularning ma'naviy qirralari: imon, e'tiqod, mehr, vatanparvarlik, do'stlik, insonga cheksiz muhabbat, muruvatlilik, qanoatlilik va sabr-toqatlilik, saxiylik, milliy g'urur kabi fazilatlarni shakllantirish juda muhimdir. Bu mislsiz tengi yo'q ishda o'qituvchilarning, tarbiyachilarning, ta'lim sohasida mas'ul xodimlarning xizmati benihoya kattadir.

Tarbiya tarixiy va ijtimoiy hodisadir. Tarbiya avlod-ajdodlarimizdan bizga etib kelgan buyuk meros bo'lib, u komil insonni voyaga etkazishda muhimdir. Tarbiya insonlarning faoliyati jarayonida ularning ongi va irodasini o'stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga tarbiya ijtimoiy hodisa bo'lib, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'ziga xos mazmun va amalga oshirish shakliga egadir. Tarbiya haqida Shayx Sa'diy o'zining "Guliston" asarida shunday deb yozgan: "Kimdakim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo'lgach baxtli bo'la olmaydi".

Adibning yuqoridagi so'zlariga amal qilgan holda o'quvchilarning ma'naviy boy, jismoniy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash maqsadida dastlab ularning tarbiyaviy darajasini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun o'quvchilar qalbini odob-axloq nurlari bilan yoritmoqchi bo'lgan tarbiyachi o'qituvchi chuqur bilim keng mahorat va tarbiyachilik san'atini egallamog'i kerak. Tarbiyachilar yoshlarni tarbiyalashda quyidagi manbalardan foydalanishlari mumkin:

1. Umumiy qadriyatlar.
2. Islom ta'limoti.
3. O'zbek milliy urf odatlari.

Tarbiyaviy jarayon ongli, mas'uliyatli faoliyat bo'lib unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni komil inson qilib etishtirishda unda har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyalash jarayonida tarbiyachi o'quvchilar mahorati tarbiya jarayoniga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'quvchilar jamoasining tarbiyaviy darajasini o'rganib, unga ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lishi, tarbiyaviy tadbirlarni o'quvchilarning ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish, takomillashtirishi, tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda o'z bilimini tarkibiy ravishda boyitib borishi lozim.

Yurtimizda tarbiyaviy ishlarini tashkil qilishning asosiy maqsadi milliy istiqloq g'oyasi talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan ekan, ayni paytda bu niyat tarbiyachi o'qituvchilarga katta mas'uliyatni yuklaydi. Pedagogik faoliyat yuritish davr talabiga javob bermog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 5 moddasida xuddi shu xususda to'xtalgan: "Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega ...".

Tarbiya 3 narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga va mashqqa degan edi ulug' olim Arastu. Ana shu g'oyalarga asoslangan holda tarbiyachilar quyidagi qoununlarga bo'ysunmoqlari lozimdir:

•tarbiya ulug'lanayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e'tiborda tutilishi;

•milliylikning o'ziga xos an'ana va vositalariga tayanish, lekin tarbiyaning milliy bunyodkorligi yosh avlodning yashashi lozim bo'lgan ko'p millatli va jahon madaniyati boyliklarining qiziqishlarini intilishlarini inkor qilmaslik lozim;

•o'quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, zarur, qiziqarli, to'laqonli bolalar yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy foydali, ijtimoiy ko'ngil ochar va shunga o'xshash tadbirlar tashkil etish lozimki, natijada o'quvchilar o'zlari xoxlagan ishga qo'l ursinlar, muvaffaqiyat hissini to'yib, o'zlariga ishonchlari orsin, axloqan barqaror bo'lsin.

O'qituvchi tarbiyachilik mahoratini oshirib borar ekan, o'zaro munosabatlarning quyidagi qirralariga e'tibor qilishi lozim:

- vatanga muhabbat va insonparvarlik;
- ma'naviy tarbiya (odob va axloq);
- iqtisodiy tarbiya;
- ekologik tarbiya;
- go'zallik tarbiyasi;
- jismoniy tarbiya;
- ota-onalar bilan ishlash.

Demak, o'qituvchi jamiyat hayotida yetakchi o'rin tutuvchi murakkab shaxs strukturasi ega bo'lgan insonning kasbiy qiyofasidir. Ijtimoiy turmushning barcha sohalarida erishilgan yutuqlarning zaminida uning mehnatining natijalari yotadi. O'qituvchilar tayyorlash jarayonida, ularning ham pedagogik, ham psixologik tayyorgarligi va bilimli, muomala madaniyati, milliy va milliy psixologik omillarni e'tiborga olish kerak. Yuksak saviyali zo'r mahoratli tarbiyachilargina xalq orzusidagi barkamol insonni tarbiyalaydi. Ilm insonni yuksaklik sari olib borad. A.Avloniy aytganlaridek: "Ilm insonlarning madori, hayoti, porloq kelajagi, rahbari, najotiga aylangan. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdir. Shuning uchun avvalom bor ilmi, tarbiyali bo'lmoq har bir yosh insonning burchi. Bu maqsadda ko'ngliga eng oliy orzularni jamlab, o'qituvchi ter to'kib ishlaydi. Ularning mehnatini munosib hurmat qilib, imkonda bor bilimlarini egallamoq kerak. Behbudiy aytganlaridek: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir".

*"Kimga qanday pandu nasihat qilsang,
unga avvalo o'zing amal qil". Ibn Sino*

Xalqimizda tarbiyachilik san'ati qadimdan juda yuksak darajada rivojlangan. Sharq mutafakkirlari pedagogik olimlari barkamol insonni etishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning milliy va nazariy asoslari mavjud bo'lib o'qituvchilar o'zlarining tarbiyachilik faoliyati jarayonida shu manbalarga asosalar, tarbiya yanada mukammalroq natijaga erishadi.

Turkistonda milliy uyg'onishning vujudga kelishi quyidagi nazariy ta'limotlar asosida olib borildi:

- o'zbek xalqining mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lishi natijasida o'lkadagi milliy, diniy g'oyalarning keng ruyobga chiqishi;
- ma'rifatparvarlik yoki jamiyatni yangilashga intilish-jadidchilik;
- ona tilimiz uning sofliigi va xorijiy so'zlar, iboralardan ozod qilish uchun kurash.

Milliy uyg'onishda bunday nazariy yo'nalishlarning maqsadlari quyidagicha edi.

1. Turkiston xalqlarining avlod-ajdodlari yaratgan xalq og'zaki ijodiyotining milliy tarbiya vositasi sifatida qo'llanishini yuzaga chiqarish va keng foydalanish.
2. Xalqimiz yaratgan keng urf-odatlar va an'analarni tiklash.
3. Qur'oni karim va hadis sharifdagi inson kamoloti haqidagi g'oyalarni yoshlarga o'rgatish.
4. Ma'rifatparvar mutafakkirlar, milliy kahramonlar faoliyati ularning asarlarini o'rganish, ilg'or tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi ta'limotlarga amal qilish.

Yuqoridagi milliy tarbiyaning nazariy asoslaridan foydalanish orqaligina milliy tarbiya-xalq ruhi bilan bog'lanadi. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. O'tmish madaniy milliy merosimiz bu kun bizning hamrohimiz, yoshlarimiz tarbiyasi uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Muxmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati turk", Yusuf Xos hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Xibatul haqoyiq", Beruniyning hikmatlari,, Ibn Sinoning "Tadbir al-manozil", Alisher Navoiyning "Maxbubul qulub", husain Voiz Koshifiyning "Axloqi muxsiniy" va boshqa asarlarda farzand ota-onaning baxti, uning to'g'ri tarbiyalanishi esa hammaning baxti, degan umumiy xulosa chiqadi. Alisher Navoiyning tarbiyaning asosiy belgilaridan biri, bolaga yaxshi ism qo'yish, ilm odob o'rgatish ota onaga umuman kattalarga hurmat hissini singdirishdan iboratligi uqtiriladi.

Buyuk mutafakkir Ibn Sinoning aytishicha pokiza xulq odamiylik gavhari, kishini inson sifatida ulug'laydi, tuban axloq esa odamning umrini zavolidir. U odamlarni do'stlik, o'zaro chinakam axloqiy munosabatda bo'lishga chaqiradi, ota-onani hurmatlashda pastkashdan foyda ko'rmaslikni saxiylikni ta'ma qilmaslikni uqtiradi. Ibn Sino axloq haqidagi nasihatlarini quyidagicha yakunlaydi: "Nasihat bobida uch mingta so'z yozdim, uch mingttadan uch kalimani tanlab oldim. Bu uchttadan 2 tasini esda saqla va birini unutib yubor".

Yusuf Xos Xojib esa shunday deydi: "Donolik yo'li bilan bilim olish, bilimga erishib dono bo'lganlarning elga ham nafi ko'p tegadi. Tug'ilgan paytida uquvi bo'lmasa, uning tilaklari ham amalga oshmaydi." Yana u insonning ko'p so'zlarini odobsizlik va tarbiyasizlik deb atadi.

Ko'p so'zda ortiq foyda ko'rmadim. Yana takror so'zlashdan naf topmadim. Yana tarbiya sohasida ko'p ishlar qilgan kishilardan biri A.Yugnakiydir. U o'z asarlarida xushmuomala, odobli, kamtarin, mehnatkash, saxiy, bilimli bo'lishni targ'ib qiladi.

Shunday qilib boy adabiy merosimiz tarbiya jarayonida juda katta ahamiyatga ega ekan. Dostonlar ertaklar, hikmatlar, topishmog'u matallar bolalar ruhiyatiga juda katta ta'sir etib, ularning ma'naviy shakllanishiga turtki bo'ladi.

"Alpomish", "Go'ro'g'li", "Hotamnoma", "Siyovush" kabi dostonlar bolalarni chin inson sifatida kamol topishida yordam beradi. Masalan, ushbu hikoyatni olib ko'rylik: "Qadim zamonda bir kishi keksayib qolgan otasini toqqa etib tashlamoqchi bo'lib yo'lga o'tlanibdi. Tog'ning tepasiga chiqib charchabdi, otasini erga qo'yib o'zi bir xarsang tosh ustida o'tiribdi. Shunda otasi kulib, men ham bir vaqtlar otam qarigach xuddi shu erga keltirib, sen o'tirgan toshni ustiga o'tirgan edim, qaytar dunyo ekan-da debdi. Shunda o'g'li qilayotgan ishi nechog'lik gunoh, nechog'lik yomon ekanligini butun qalbi bilan tushunib otasidan kechirim so'rabdi va uni uyga qaytarib olib ketib hurmatini joyiga qo'yibdi".

"Dunyoda ilmdan boshqa najot yuq va bo'lmag'ay"

Imom al Buxoriy.

Xush yosh avlod tarbiyasi kabi mas'uliyatli ish topshirilgan o'qituvchi qanday bo'lmog'i kerak? O'qituvchining pedagogik faoliyatining samaraga ega bo'lmog'i uchun ko'p jihatdan shaxs xususiyatlarining shakllanganligi shaxs yo'nalishining aniqlanganligi va kasbiy mahoratning tarkib topganligi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitning murakkab tus olishi yoki ta'lim tizimida nisbatan yangicha talablarning yuzaga kelishi pedagoglarning o'z faoliyatlarini tubdan o'zgartirishga hamda izchil aql-zakovatini ishga solgan holda ish tutishni taqozo etmoqda. Bu bir tomondan davr talabi ekanini, ikkinchi tomondan, shart sharoitga nisbatan tub burilish hosil qilish yoki shaxs mazmuni, faoliyat yo'nalishida yangicha o'zgarish kiritish oson emasligini ko'rsatadi.

O'qituvchi shaxsiy xususiyatlaridan tashqari chuqur ilmiy saviyaga, so'zlash madaniyatiga, yuksak odob axloqqa ega bo'lishi kerak. O'quvchilar bilan o'tkaziladigan suhbatlarni yuqori saviyada tashkil qilishda o'qituvchi quyidagi madaniyat qirralariga ega bo'lishi kerak:

- ruhiyat madaniyati - o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlariga to'g'ri ta'sir ko'rsatish;

- mahorat madaniyati - har bir tadbirni zo'r quvonch va qalbdan tashkil qilish;

- siyosiy madaniyat - o'quvchilarning ijodiy, ma'naviy, badiiy faoliyatini tashki qilishdir.

Bundan tashqari o'qituvchi o'zining tashqi ko'rinishiga ham e'tibor berishi kerak. Toza, ozoda, ixcham kiyinishi kerak. Bundan tashqari oliy ma'lumotli, chuqur bilim egasi, o'zining fanini puxta biladigan yurt ravnaqi uchun jonini fido qilishga tayyor, o'quvchilardan bilimini, malakasini ayamaydigan, o'quvchilar bilan aziz do'st, sirdosh, maktabning fidokor xodimi bo'lmog'i kerak.

Avvalombor har bir tarbiyachi pedagogik tashkilotchilik mahoratiga ega bo'lishi kerak. Tarbiya jarayonini to'g'ri tashkillashtirish, darsdan so'ng o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlashi kerak. Bunda o'qituvchilar, ot-onalar bilan yaqin munosabatda bo'lishlari kerak. O'qituvchi yakka suhbatlarni quyidagi sharoitda olib boradi.

1. O'quvchining xarakter xususiyati, oiladagi o'rni, mavqei, ruhiy holatini o'rganishda.

2. Odob va axloqqa doir suhbat. Ota-ona shu borada qanday tadbirlarni amalga oshirishda sharqona urf-odat, rasm-rusumlar, yangi chiqqan adabiyotlar.

3. Tarbiyasi murakkablashgan o'quvchlarning ota-onalarini malakat berish o'qituvchini yakka-yakka suhbat puxta, asosli va mantiqan boy bo'lsa, ota-onani unga ishonishini oshiradi. Natijada erkin dil so'zlari, maslahat o'zaro yordam kabi bir hamkorlik holati vujudga keladi.

O'qituvchi ota-ona va o'quvchilar bilan yakkama- yakkama faoliyatini yo'lga qo'yish uchun sinf ota-onalar shaxsini, oilaviy ahvolini bilishi kerak. O'qituvchi ota-onalar haqida ma'lumotga ega bo'lgandan keyin ularning farzandlari haqida ma'lumotni aniqlab olishi muhimdir. O'qituvchi bolalarni to'liq o'rganishi tarbiyaviy tadbirlarini mukammal, ta'sirchan uyushtirishga imkoniyat yaratadi. O'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi lozim.

1. O'quvchilarda shakllanib kelayotgan fazilatlarni tavsiflash: sinfdagi o'quvchilarni ilm olishga, qiziqish, rostguy, ma'rifatli, mehrli, do'stlik, o'z-o'zini boshqarish, mehnatga munosabati zo'r o'quvchilar sonini aniqlash.

2. O'quvchilar ruhiy quvvati va temperament turlariga ajrata olish.

3. O'quvchidagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarni kuzatish va sababini o'rganish.

4. O'quvchida mavjud kamchiliklar: irodaviy xususiyatdagi befarqligi yolg'on gapirish, chaqma-chaqarliligi, hurmatsizligi va boshqalar salbiy sifatlarning sonini aniqlash.

Darslarning samaradorligi, ta'limiy rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi rolini oshirish bo'yicha qilinadigan ishlar quyidagilar:

- o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy o'sirish, ilmiy nazariy va metodik darajasini oshirish haqida g'amxo'rlik;

- pedagogik mehnat sifatiga, darsga tayyorlanishga mas'ul munosabatini belgilash;

- barcha o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha samarali nazoratni tashkil etish;

- o'quvchilarda o'qishga mas'ul munosabatni tarbiyalash bo'yicha ular bilan ish olib borish, bilimlaridagi nuqsonlarning oldini olish, bilim, malaka va ko'nikmalarning yuksak sifatiga ega bo'lishi uchun kurashish bu ishga o'quvchilarning o'zini faol jalb qilish kerak.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:

1. Jamiyat taraqqiyotida tarbiyaning o'rnini Prezidentimiz I.A.Karimov qanday izohlaydi?
2. Tarbiya - qanday hodisa (ta'rifini keltiring)?
3. Tarbiyaning mohiyati va mazmuni, maqsadi nimalardan iborat?
4. O'qituvchining tarbiyachilik faoliyati o'zida nimalarni mujassamlashtiradi?
5. O'qituvchi tarbiyachilik qobiliyatining asosiy mohiyatini Prezidentimiz I.A.Karimov qanday ta'riflaydi?
6. O'qituvchining tarbiyachilik qobiliyatiga zamin yaratuvchi jarayonlar?
7. O'qituvchi tarbiyachilik mahoratining tarkibiy qismlari?
8. Tarbiya jarayonida ixtiyoriylik nima?
9. O'z-o'zini anglash va tarbiyalash tushunchalariga ta'rif bering?
10. Pedagogik faoliyatda "Tarbiyaviy ishlar rejasi" haqida fikr - mulohazalaringizni bildiring?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent, "Sharq", 1997, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent, "Sharq", 1997, 31-61 betlar.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent, "O'zbekiston", 2009.-176 b.
4. Abdullayev H. Yashil daftar hikmati. -Toshkent, O'qituvchi, 2000.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent, O'zbekiston, 1992.-160 b.
6. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent, "Sharq", 1997. - 63 b.
7. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1 qism. - Toshkent, Yozuvchi, 1996. -216 b.

13-MAVZU. O'QITUVCHI MEHNATINI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH

Reja:

- 1.O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda pedagogik mahoratning roli
2. O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etish vositalari
- 3.O'qituvchi mehnati asosida ma'naviy dtinyosini va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabatini takomillashtirish

Davlat va jamiyat hayotini modernizatsiyalash jarayonlarinmg harakatga keltiruvchi kuchi, O'zbekistonning bugungi va istiqboldagi izchil taraqqiyotining bosh omili bo'lgan insonning ma'naviyatini va kasbiy salohiyatini yuksaltirishda o'qituvchilarning tajribasi va mahoratini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi bugungi kunda ta'lim va tarbiya berayotgan shogirdlarining kamoloti bilan mamlakatimiz kelajagiga ulkan poydevor qo'yadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida o'qituvchi mehnatini yuksak baholab shunday deydi: *"Ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot — o'qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz. Biz yurtimizda yangi avlod yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini yaxshi tasavvur qilamiz"*. Demak, bugungi kun o'qituvchisi o'z ustida tinimsiz mehnat qiladigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda o'qituvchining pedagogik mahoratini yanada oshirish muammosi davr talabidir. Demokratik huquqiy jamiyat qurish jarayonida o'qituvchining o'zni, vazifalari yosh avlodni tarbiyalash ishiga javobgarligi muhim

ahamiyatga ega. Olib borilayotgan islohotlarning ijobiy natijalar berishini yetuk va malakali mutaxassislar ta'minlaydi. Ularni voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya berish, o'qituvchiga yuklatilgan talablarning kun sayin ortib borishi, ularni hal etish vazifasi o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq.

Hozirgi zamon o'qituvchisi o'z pedagogik mehnati jarayonida qator ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. U avvalo ta'lim muassasalari o'quv jarayonining asosiy tashkilotchisi. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida hamda darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilarning porloq kelajagi uchun javobgar shaxsdir. Ushbu ulkan mas'uliyat ijobiy natijalar berishi uchun o'qituvchi, avvalo, o'zining pedagogik mahoratiga tayanadi. Pedagogik mahorat shunday bir malakalar yig'indisidirki, uning natijasi o'qituvchi mehnatida va o'quvchilar xulqi, odobi, tarbiyasida, kelajakda yetuk mutaxassis kadr bo'lib yetishishida o'z aksini topadi. O'qituvchi o'zining qizg'in mehnati jarayonida pedagogik mahoratning quyidagi komponentlarini ma'lum darajada o'zlashtirishi lozim:

- ✓ yoshlar psixologiyasiga oid bilimlarga ega bo'lishi; nutq madaniyatining barcha turlari va metodlarini bilishi;
- ✓ o'qituvchi qobiliyati (empatiya, perseptiv, didaktik, konstruktiv, kommunikativ, anglash) ning mohiyatini anglashi;
- ✓ aktyorlik mahoratini (mimika, pantomimika, notiqlik san'ati) egallashi;
- ✓ o'z kayfiyatini (hissiy psixik holat) boshqara olishi; tarbiyalanuvchilar bilan muloqot va muomala madaniyatini o'zlashtirishi;
- ✓ pedagogik texnika uslublarini o'z o'rnida qo'llay olish san'atiga ega bo'lishi.

Ushbu pedagogik mahorat komponentlari mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy talablar mohiyatidan kelib chiqishi kerak. Milliy mafkura, umummilliy dastur talablari, urf-odat va an'analar pedagogik mahorat asosida tashkil etiladigan o'qituvchi mehnatning asosiy mohiyatida o'z aksini topishi kerak.

O'qituvchi mehnatining muvaffaqiyati va samarasi uni ilmiy jihatdan puxta tashkil etishga, mehnatni oqilona uyushtirishga ta'sir etadigan shart-sharoitlarga va mehnatni amalga oshirish yo'llarini to'g'ri belgilashga bog'liq. o'qituvchi mehnati doimo ijodkorlik bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun mehnatni amalga oshiruvchi o'qituvchi avvalo o'z mehnatini rejalashtirishda, o'zi puxta egallagan pedagogik mahoratiga va o'z ilmiga tayanishi lozim. Hozirgi zamon axborot kommunikatsion texnologiyalarining taraqqiyoti davrida o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish fan va texnika yutuqlarini o'qituvchi tomonidan qay darajada o'zlashtirilishiga ham bog'liq.

Shu bilan birga o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish uchun fanlar integratsiyasini, pedagogika va psixologiya fanlarining eng so'nggi yutuqlarini muntazam o'zlashtirib borish shart. Ushbu bilimlar axborot kommunikatsion texnologiyalari, matbuot, ilmiy jurnallar, ilmiy adabiyotlar asosida o'zlashtiriladi.

O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda vaqtdan unumli foydalanish, o'zining keng imkoniyatlarini hamisha hisobga olish, o'quv va tarbiya jarayonida har bir daqiqadan unumli foydalanish, vaqtni bekorga o'tkazishga yo'l qo'ymaslik muvaffaqiyat garovidir. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda avvalo:

- o'z ijodiy imkoniyatlariga ishonishi;

- ta'lim muassasalarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonini to'liq tasavvur eta olishi;

- har bir tarbiyalanuvchining ruhiy holatini puxta bilishi;

- o'z mehnati mexanizmini, qonuniyatlarini, cheklangan imkoniyatlarini yaxshi anglashi;

- ta'lim-tarbiya jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan unumli foydalanishni bilishi shart.

O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etish bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy-foydali mehnat bo'lib, u yuqorida ta'kidlab o'tilganlardan tashqari, aql va diqqatni, jismoniy kuchni, shijoat va g'ayratni talab etadi.

O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ularni mustaqil, erkin faoliyat ko'rsatishiga, o'z fikr-mulohazalarini aniq va mukammal bildirishiga, har tamonlama shakllangan komil insonni tarbiyalashga, o'z kasbini puxta o'zlashtiradigan yetuk mutaxassis tayyorlashga zamin yaratadi.

O'qituvchi mehnati ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishida o'quvchilar bilan olib borilayotgan faoliyatning quyidagi yo'nalishlariga e'tibor berish lozim:

- o'qituvchi va o'quvchilarning ikki tomonlama bir-biriga ta'siri natijalari;

- o'qituvchining o'quvchilar jamoasi bilan ishlay olish qobiliyati;

- sinf jamoasi faollari bilan olib boriladigan pedagogik faoliyatning ijobiy natijalari.

O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etishning quyidagi vositalarga e'tibor berish lozim.

O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etish vositalari

1. Mehnat faoliyatini to'g'ri rejalashtirish.

2. Belgilangan vazifalarni tashkil etish va amalga oshirish.

3. O'z mehnatini muntazam boshqarish va nazorat qilish

O'z-o'zini nazorat qilish (refleksiya)

O'qituvchi mehnatining ta'lim-tarbiyaviy mohiyati ijobiy natijalar berishi uchun, o'qituvchi sinf jamoasi bilan o'tkazilayotgan har qanday tadbirni belgilangan vaqtda amalga oshirishi, mehnat va dam olish uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalana olishi, o'z mehnati faoliyatida sog'ligiga, ruhiy holatiga e'tibor berishi lozim.

Ayniqsa, yosh o'qituvchilar mehnatini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etishda quyidagi boshlang'ich yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega:

1- yo'nalish. O'qituvchi kasbiga oid faoliyat:

a) o'z ishiga, mutaxassisligiga oid bilimlarni mukammal egallash;

b) mamlakatimiz Qonunlari, ta'lim sohasiga taalluqli hujjatlarni puxta bilishi;

v) pedagogika, psixologiya va o'z mutaxassisligiga oid eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lib borish;

' g) o'quvchilar jamoasi va har bir shaxs haqida ma'lumotlarni o'rganish;

d) ilg'or va tajribali o'qituvchilar mehnat faoliyatini o'rganish va o'z ishida tadbiq etish;

e) o'z ustida ishlash va o'z-o'zini tarbiyalash.

2- yo'nalish. O'z kasbiy mahorat elementlarini hosil qilish:

- a) pedagogik faoliyatga oid, shaxsiy pedagogik mahoratni takomillashtiruvchi ko'nikma va malakalarni egallash;
- b) o'z mehnatini va qobiliyatini me'yorida to'g'ri ishlata olishi;
- v) mutaxassislikka oid ma'lumotlardan to'g'ri foydalana olishi uchun diqqatni jamlay bilish.

3- ***yo'nalish. O'quvchilar guruhi bilan ishlay olish:***

- a) pedagogik faoliyatning shart-sharoitlari va guruh jamoasidagi ma'naviy holatni boshqara olish;
- b) guruh jamoasidagi psixologik muhitni doimiy nazorat qilish;
- v) ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga ijodiy yondashuv;
- g) pedagogik faoliyatga insonparvarlik va demokratik prinsiplar asosida yondashish;
- d) o'quvchilar xulqi va bilimini o'z vaqtida rag'batlantirib borish,
- e) jamoada shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishni to'g'ri tashkil etish;
- j) o'quvchilarning kundalik rejimga to'g'ri va doimiy rioya qilishini tashkil etish.

Pedagogik mehnatni ilmiy asosda to'g'ri tashkil etishda o'qituvchining kun tartibi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'zi uchun eng optimal bo'lgan va yuqori samara beradigan kun tartibini tanlay olishi lozim. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda qo'yiladigan talablar ilk bor I.P. Rachenko, R. Rasulova kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ularning tavsiyasiga ko'ra o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etishda eng muhim talablar deb quyidagilarni e'tirof etadilar:

I.P.Radchenko, R.Rasulova kabi olimlar tavsiyasiga ko'ra o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etishda eng muhim talablar.

- pedagogik faoliyatni aniq rejalashtirish;
- faoliyatni qizg'in uyushtirish va unda ishtirok etayotgan obyekt va subyektlarning imkoniyatlarini yagona maqsadga yo'naltirish;
- tarbiyalanuvchilar yutuqlarini muntazam rag'batlantirib borish;
- ta'lim-tarbiyaviy nazoratni bir maromda olib borish.

Rejalashtirishdagi asosiy e'tibor uyushtiriladigan barcha pedagogik faoliyat turlarini va unda ishtirok etayotgan jamoa va uning a'zolarini umumiy pedagogik maqsadga birlashtirishni nazarda tutadi. Bunda ta'lim va tarbiyaning yaqin, o'rta, uzoq maqsadlarini inobatga olish e'tirof etilgan.

Ta'kidlash joizki, *o'qituvchining kun tartibi* uning faoliyati va hayotini tartibga soluvchi asosdir. U yo'q joyda mehnat unumi ham past bo'ladi, asablar tez charchaydi, sog'likka putur etadi. Natijada o'qituvchi sarf qilgan kuchini qayta tiklay olmaydi, mehnat unumdorligi pasayadi, ish qobiliyati susayadi, oqibatda ta'lim-tarbiyaning sifati yo'qoladi. Demak, ilmiy asoslangan kun tartibi o'qituvchilarning o'z mehnatini to'g'ri va mukammal tashkil etish vazifasini hal etishga qo'yilgan ilk qadamdir desak mubolag'a bo'lmaydi. Pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etish shartlaridan yana biri ish o'mini tartibga solish va mehnat sharoitini o'z faoliyatiga moslashtirishdir. O'qituvchining ish joyi yashash jarayonining bir qismi bo'lib, mehnat unumdorligining yuqori bo'lishiga ta'sir etadi. O'qituvchining ish joyi, xususiyati, pedagogik mehnatning mazmuni va

xususiyati bilan belgilanadi.

Mehnat sharoiti, kun tartibi kompleks tushuncha. Unda o'qituvchining mehnat qilayotgan joyi, aniq vaziyatlar e'tiborga olinib quyidagi **tamoyillar** asosida takomillashtirilib boriladi.

Pedagogik mehnatning samaradorligi, maqsadi va faoliyat vazifasiga ko'ra aniq bir yo'nalishni belgilash o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning birinchi tamoyilidir.

Ikkinchi tamoyil mutaxassislikka oid bilimlarni chuqur o'zlashtirib qizg'in pedagogik faoliyat uslubini belgilash.

Uchinchi tamoyil pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etishda axborot va kompyuter texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanishni mukammal bilish tushuniladi. Bunda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik texnologiyalar ham e'tiborga olinadi.

To'rtinchi tamoyil ta'lim-tarbiya birligini ta'minlagan holda pedagogik faoliyatni rejalashtirish. Ushbu tamoyil reja asosida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tartibga solish, uning modelini yaratish, tayanch tizimlarni topish kabi masalalardan tashkil topgan.

Pedagogik faoliyatni aniq maqsadlar asosida rejalashtirmasdan turib shaxsni va jamoani tarbiyalash va ularni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash mumkin emas, bu esa jamiyatga ham ijtimoiy, ham iqtisodiy zarar keltiradi. Pedagogik mehnatni nazorat qilish va hisobga olish o'qituvchi faoliyatini muntazam kuzatib borish yutuq va kamchiliklarini aniqlash, muhimlarini ajratib olishni nazarda tutadi. Hisobga olishning eng maqbul yo'li statistik hisobga olishdir. Pedagogik nazoratda obyektivlik, omilkorlik, samaradorlik, muntazamlilik va oshkoralik talab qiladi.

O'qituvchi mehnatini nazorat qilish va hisobga olishning muntazamligi, izchilligi quyidagilardan tashkil topadi:

- o'quv materiallari va tarbiyaviy tadbirlarga tayyorlanishni o'zi tomonidan nazorat qilinishi;
- darsdan tashqari vaqtlarda ta'lim-tarbiyani nazorat qilish va o'zining yutuq va kamchiliklarini kuzatish;
- o'qituvchining darsdan tashqari vaqtini o'zi nazorat qilishi;
- ota-onalar va jamoatchilik bilan bajariladigan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni nazorat qilish;
- o'z ustida muntazam ishlash, ijod qilish.


O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda har jihatdan mukammal tashkil qilish mamlakatimizning mustaqillik prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir yosh avlodni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi o'zining qizg'in mehnatini pedagogik jamoa, ota-onalar, oila, mahalla qo'mitalari, turli jamoatchilik markazlari bilan o'zaro puxta hamkorlikda olib borgandagina ta'lim-tarbiyaning samaradorligi yanada oshadi.

Obyektiv-shaxsiy xususiyatlarning o'qituvchi mehnatiga ta'siri

O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilib o'rganish fan olamida yangi soha bo'lmasa ham, biroq so'nggi yillardagi global o'zgarishlar, fan va texnikaning, informatsion axborot texnologiyalarining jadal sur'atda rivojlanishi

bu sohaga ham har yili turli yangiliklarning olib kirilishini talab etmoqda. Bevosita o'qituvchi mehnatini o'rganuvchi fanlar, ya'ni pedagogika, psixologiya, pedagogik menejment, ijtimoiy pedagogika kabi fanlarning bu sohada o'zaro manfaatlari doimo bir-birlarini to'ldirib kelsada, olib borilayotgan ilmiy kuzatishlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ladiki, hali oldinda echimini kutayotgan muammolar yetarli. Hozirgi zamon ilmiy nazariy va metodologik tizimlariga tayangan holda ta'kidlash joizki, o'qituvchi mehnatiga ta'sir qiluvchi hamda ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan muhim yo'nalishlardan biri o'qituvchining *obyektiv-shaxsiy xususiyatlaridir*.

O'qituvchi mehnatiga ta'sir qiluvchi hamda ko'plab holatlarda uning sifat va samaradorligini oshirilishini belgilovchi ushbu xususiyatlar quyidagi omillarni o'zida mujassamlashtiradi:



O'qituvchi mehnatining sifat va samaradorligini belgilovchi xususiyatlar.

Ta'kidlab o'tilgan omillarning har biri o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi va ular o'qituvchi mehnat faoliyatini tashkil etuvchi o'zining bir-biri bilan o'zaro aloqador ichki tizimlariga va o'zaro ta'sirlarni shakllantiruvchi mustaqil tizimni tashkil etuvchi elementlariga ega.

Yosh o'qituvchining kasbiy mahorati obyektiv-shaxsiy xususiyatlar tizimining yetakchi omillaridan biri bo'lib, uning tarkibiy tizimlari nihoyatda rang-barangdir. Pedagogikada yosh o'qituvchining kasbiy mahorati olimlarimiz tomonidan "Pedagogik faoliyatda belgilangan vaqt ichida o'qituvchining optimal natijalarga erishishida namoyon bo'luvchi oliy darajadagi mehnati" sifatida, "O'qituvchining tinimsiz mehnati va izlanishlari natijasida doimiy takomillashtirilib boriladigan muhim ta'lim va tarbiyaviy san'ati namunasi", yoki

“o‘qituvchining ilmiy bilimlarni, kasbiy ko‘nikma va malakalarni hamda metodologik bilimlarni o‘z mehnatida va kasbiy sifatlarida namoyon etishi” kabi fikrlar bilan ta’riflanadi.

T.Lixachev o‘qituvchining kasbiy mahoratini pedagogik san’atning noyob bir qismi sifatida ta’riflab, shunday yozadi: “o‘qituvchining kasbiy mahorati deganda uning yuksak pedagogik-psixologik bilimlari, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi, takomillashgan pedagogik fikrlash layoqati va rivojlangan ichki intuitsiyasi, hayotga nisbatan axloqiy-estetik munosabati, o‘z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat’iy irodasi tushuniladi”. Qator tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, quyidagi to‘rtta komponent yosh o‘qituvchi kasbiy mahoratining asosiy tashkil etuvchi komponentlari hisoblanadi:

- o‘z kasbini sidqidildan sevrishi;
- o‘z fanini va uni o‘qitish metodikasini mukammal bilishi;
- pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi;
- pedagogik texnikani mukammal bilishi, notiqlik san’atini o‘z o‘rnida qo‘llay olishi.

Ushbu komponentlar o‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etilishida o‘z kasbiga boigan mehr-muhabbati, ijobiy munosabati va uni takomillashtirish istagini paydo qiladi. Yosh o‘qituvchining kasbiy mahorati shakllantirilgach, u shaxsning kasbiy xususiyatiga aylanadi va refleksiv qobiliyatining rivojlanishiga ham ta’sir qiladi, natijada pedagogik mehnat faoliyatining samaradorligi oshadi.

Yosh o‘qituvchining iqtidori va qobiliyati rivojlanganligi o‘z mehnatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Pedagogikada o‘qituvchi qobiliyati-bu ulkan imkoniyatdir, uning mohirligi, mehnatsevarligi faqatgina o‘qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. O‘qituvchi qobiliyati zehning o‘tkirigidan dalolat beradi. Iqtidor, iste’dod, daholik-o‘qituvchining ijodiy mehnati jarayonida erishiladigan natijalarining rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar, inson xarakteri kabi, shaxsning faqatgina ma’lum faoliyatidagina mavjud bo‘lgan sifatlardir.

Psixologiyada qobiliyatga-insonning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror hioliat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi deb ta’rif beriladi. Demak, o‘qituvchining iqtidori va qobiliyati uning mehnatini har tomonlama mukammal shakllantirib, ilmiy jihatdan ijodkorligini to‘g‘ri tashkil etishga ta’siri cheksiz ekanligidan dalolat beradi. Iqtidor va qobiliyat o‘qituvchining mehnat faoliyatida:

- o‘z kasbiga bo‘lgan munosabati asosida kasbiy ehtiyojini kuchaytiradi;
- kasbiy faoliyatga chinakam qiziqish namunalarini rivojlantiradi;
- pedagogik mahorat asoslarini egallashda bir maqsad sari intiluvchanlikni shakllantiradi;
- o‘z ilmiy mehnati uchun ahamiyatga ega bo‘lgan ijodkorlik sifatlari majmuasining yuzaga kelishini ta’minlaydi.

O‘qituvchining iqtidori va qobiliyati psixologik texnologiyalar bilan kuchaytirilib modifikatsiyalanadi va o‘qituvchining mehnat faoliyatida bu muhim ahamiyat kasb etadi: muloqot qilish (kommunikativ), voqealarni oldindan ko‘ra

olish, eshitish va his qilish, o'zligini bilish, tushunish va his qilish kabi qobiliyatlar o'qituvchi mehnatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtidor va qobiliyat o'qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli o'qituvchilar pedagogik mehnat faoliyatida qobiliyati past o'qituvchilarga qaraganda ko'proq ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi. Qobiliyatli, ammo noshud o'qituvchi ko'p narsaga erisha olmaydi.

Iqtidor va qobiliyat o'qituvchining amaliy va nazariy bilimlarni chuqur egallashda tezroq siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Qobiliyatli bo'lajak o'qituvchi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori natijalarga erishadi hamda ishlab chiqarishda, fan va texnika jarayonlariga yangilik kiritadi.

O'qituvchining iqtidori va qobiliyati-N.V.Kuzminaning fikricha, pedagogik faoliyat talablariga javob beruvchi va ta'lim-tarbiyada belgilangan maqsadga osonlikcha erishishni ta'minlovchi hamda mehnat unumdorligini oshiruvchi xususiyatlar majmuasidir. N.V.Kuzmina iqtidor va qobiliyat o'qituvchining mehnat faoliyatiga, izlanayotgan natijalarni egallashning eng samarali usullarini topishga o'ziga xos sezgirlikdan iborat individual, turg'un xususiyatlar deb ta'rif beradi va pedagogik qobiliyatlarning refleksiv darajasi uchxil turdagi sezgirlikni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi:

- ✓ tarbiyalanuvchi obyektni his qilishi;
- ✓ me'yori va xushmuomalalikni his etish;
- ✓ o'z kasbiga nisbatan javobgarlikni his qilish.

O'qituvchining pedagogik texnikasi-nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun mehnati faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalarining yig'indisidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari-pedagogik faoliyatda uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, o'z his-tuyg'ularini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabi o'qituvchining mahoratini belgilovchi qizg'in mehnatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi mehnatida pedagogik texnika qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika o'qituvchining ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil qilishida, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday ahamiyat kasb etishi doimo dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

O'qituvchi mehnatida pedagogik texnika uning shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa, o'z-o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi:

- o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);
- o'z hissiyatini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmasligi;
- ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini bilishi va o'z o'mida qo'llay olishi.

Pedagogik texnika o'qituvchi mehnatida shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini ham qamrab oladi:

- ta'lim va tarbiyaviy rejalar asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;

- o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan har qanday ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;

- o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

O'qituvchi mehnatida aktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlar, ya'ni mimik va pantomimik qobiliyatlar muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega ekanligi, uning butun o'quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lab, zamonaviy integratsion usullar asosida o'quvchilar ongiga yetkazishida, sinf jamoasida o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni yarata olishida, har bir o'quvchining shaxsiy psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib mashaqqatli mehnati bilan ulkan mas'uliyatni his etib, uni yuqori saviyada bajarishida namoyon bo'ladi.

Demak, pedagogik texnika o'qituvchining mehnat faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisiki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishida, asablarining bir maromda harakatlanishi va saqlay olishida, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilish va boshqarishida yuksak natijalarga erishishi uchun asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Ixtisosligi bo'yicha egallagan bilimlar darajasi. O'qituvchining ko'p yillik pedagogik mehnati kasbiy mahorat bo'la olmasligi mumkin. O'qituvchining kasbiy mahorati ixtisosligi bo'yicha egallagan bilimlar darajasi va kasbiy tajribalari asosida paydo bo'ladi. Kasbiy tajribalar o'z kasbidan qoniqmagan, biroq yillar davomida o'zining xizmat majbu-riyatlarini sidqidildan bajaruvchi o'qituvchida ham yuzaga kelishini unutmash kerak. F.G.Ziyatdinova ma'lumotlariga ko'ra 80 foiz o'qituvchilar u yoki bu darajada. 20 foiz o'qituvchilar esa to'liq o'z ishlaridan qoniqmaydilar. Bunday o'qituvchilarda-hatto ixtisosligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lsalar ham, pedagogik mahoratning muhim elementlaridan biri-ixtisosligi bo'yicha bilimlar darajasini ko'rsatuvchi "ijodkorlik tuyg'usi", o'qituvchining o'ziga xos ruhiy va jismoniy holati sifatida shakllanmaydi.

Bilim va ixtisoslik-nafaqat o'qituvchining mehnat faoliyatiga ta'sir qiluvchi, balki uni, ham to'liq, ham qisman kasbiy mahoratini belgilovchi obyektiv-shaxsiy omillar tizimidagi prinsipial elementlardir. O'qituvchining bilimi uning kasbini belgilovchi diplomi, sifati bilan, ya'ni ta'lim muassasalaridagi mehnati jarayonidagi xususiyatlari va yutuqlari bilan aniqlanadi. Bilim va ixtisoslik-bu qizg'in mehnatga tayyorgarlik sifatida ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning o'zidir. Bilim va ixtisoslikning birligida mehnat, o'qituvchining tashkilotchiligi va mazmun jihatidan mukammal pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Ixtisoslik o'zgaruvchan va harakatchan jarayondan iborat. Pedagogik amaliyotda bu bog'liqlikning o'zaro ta'siri haqida yetarlicha turg'un tasavvur yuzaga kelgan: chunonchi, oliy ta'lim-oliy ixtisoslik. O'qituvchilarda fanni o'qitishning nazariy muammolariga, butun fanlarning metodologiyasiga va

texnologiyalariga ko'proq qiziqish mavjud. O'qituvchilarning chorakdan kaifiroq qismi bilimlar egallash darajasiga hayotiy qadriyat sifatida qaraydilar, undan ham kamrog'i, ya'ni 10 foizi-mukammal kasbiy tayyorgarlikni, pedagogik mehnat nufuzini oshirishda hal qiluvchi jarayon deb hisoblaydilar.

Bu muammoni his qilgan o'qituvchilarning bir qismi o'z ixtisosliklari bo'yicha o'qitishning mustaqil ijodiy dasturini tuzish yo'liga o'tadilar va bu bilan ta'lim va tarbiya berish komponentini kengaytiradilar. Mehnatda ma'no va ahamiyatni birlashtiruvchi "jonli bilim" tushunchasi ana shundan paydo bo'lgan. Bunda ma'no tushunchasi "inson turmushida individual ongning chuqur joylashganini" bildiradi (ushbu tushuncha G.G.Shpet tomonidan ta'riflangan), ahamiyat tushunchasi esa-ongning jamiyatga, millat ma'naviyati va mafkurasiga jalb etilganligini bildiradi.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchining yosh xususiyatlari va mehnat staji. O'qituvchining yoshi va ish staji-mehnatga ilmiy yondashish jarayonining turli bosqichlarini aks ettiruvchi, unda ijodiy energiyaning yuzaga kelishidan tortib yetilishigacha va so'nishigacha bo'lgan obyektiv-shaxsiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Sotsiologlar bu xususiyatlarni keksayishni hamda g'ayrat va optimizmni yo'qotishni tan olmaydigan pedagogik mehnatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'lab o'rganish zarurligiga e'tiborni qaratishadi. O'qituvchining yosh ko'rsatkichi-bu keksayish emas, balki yoshlik hislatlarini va shijoatini saqlab qoluvchi, har bir yangi avlod dunyoqarashiga ko'nikma hosil qilib, o'ziga singdira oladigan, ularni tushunadigan, hayotiy tajribalar asosida donishmandlik mohiyatini ko'rsatuvchi holat ko'rsatkichidir. Tadqiqotchilarning aniqlashicha, yosh o'qituvchilar ko'p holatlarda 50 dan oshgan yoki nafaqa yoshidagi tajribali o'qituvchilarga taqlid qilish uchun ularni o'zlariga obyekt sifatida tanlashlari tasodifiy hoi emas. Bu ularni pedagogik faoliyatda uchraydigan ko'plab ziddiyatlardan oson chiqib ketishni ta'minlaydi.

O'qituvchining mehnat faoliyatida yosh muammosining ahamiyati ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarida keng yoritilgan. Ushbu tadqiqot ishlari o'qituvchining kasbiy "cho'qqilarni zabt etishi", pedagogik krizislarni boshidan kechirishini, o'z mehnatidan ko'ngil sovushlarini, ba'zida "tinchlanish" davrini o'tagan yuzlab yosh mutaxassislarining o'qituvchilik kasbiga "singib ketishi" naqadar murakkab va shiddatli jarayon ekanligini aks ettiradi. Gap bu erda ish stajida ham, o'quvchilar yoki o'qituvchilar jamoasida ham emas, balki shaxs hayotiy faoliyatining turli tomonlariga obyektiv ta'sir qiluvchi yosh xususiyatlarida bo'lib, bu xususiyatlar hayot va kasbga munosabatlarni, o'zining ruhiy qadriyatlarini va risolalarini o'zgartiradi. Ushbu muammolar bevosita o'zining keyingi tadqiqotlarini kutmoqda, uning amaliy mazmuni ham muhim: ta'lim muassasalariga butun umrini bag'ishlagan keksa otaxon va onaxon o'qituvchilarni qanday qilib saqlab qolish. O'qituvchiga esa yosh bo'lib qolishga qanday yordam berish mumkin. Qo'yilgan muammo tabiiy holda mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning demokratik jamiyat qurish uchun naqadar dolzarb ekanligini yana bir bor bildiradi.

Pedagogik faoliyatga ta'sir qiluvchi obyektiv-shaxsiy omillar guruhida **yosh o'qituvchining kasbiy turg'unligi** ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchining kasb tanlashida o'z tanlovining to'g'riligiga va asosililigiga ishongan

holda uzoq vaqt davomida faoliyat ko'rsatishidir deb talqin qilinadi. Mehnat jamoasini tadqiq qilishda kasbiy turg'unlik kadrlarning aniq va bir maromda potensial oquvchanligiga asosan aniqlanadi. O'qituvchi kadrlarning potensial o'quvchanligida - ishini yoki o'z kasbini o'zgartirishni xohlovchi pedagoglarning miqdoriy va sifat darajasi tarkibi hisobga olinadi. Bunda ta'lim muassasasida, yoki biror lavozimda uzoq vaqt mehnat qilgan xodimlarning miqdoriy va sifat ko'rsatkichi hisobga olinadi.

Kasbiy turg'unlikning ahamiyati o'qituvchilarning mehnat faoliyatini aniq bir qolipga solib o'rganishda muhim rol o'ynar ekan, uning quyidagi jihatlariga e'tibor qilinishi lozim:

- o'qituvchida ish joyini yoki kasbini o'zgartirish istagining mavjudligi va ifodalanganlik darajasi;
- o'qituvchining o'z kasbini o'zgartirishiga turtki bo'lgan sabablar yoki shart-sharoitlar;
- boshqa biror kasbni tanlab, unda ishlash istagi turtki bo'lgan hodisalar yoki voqealar;
- o'qituvchining bir joyda uzoq vaqt pedagogik faoliyat olib borishining asosiy motivlari va sabablari;
- yangi kasbni tanlab, unda muvaffaqiyatli faoliyat olib borishga turtki bo'lgan motivlar va sabablar.
- o'qituvchilik kasbini o'zgartirishni istamagan holda, pedagogning o'z ish joyini tez-tez o'zgartirish holatlari alohida tahlil qilinadi.

O'qituvchining kasbiy turg'unligi ko'pincha "ta'lim muassasasiga bog'lanib qolganlik" iborasi bilan izohlanadi. O'z kasbiga nisbatan mehr-muhabbati tufayli ta'lim muassasasiga bog'lanib qolish-bu o'qituvchilar jamoasi bilan birlashib ketish tuyg'usi, ta'lim muassasasiga dahldorlik, javobgarlik hissi, ta'lim muassasasini qadrdon uyi sifatida qabul qilganligi uchundir. Intellektual darajada ta'lim muassasasiga bog'lanib qolish o'qituvchilar jamoasining qadriyatlarini, uning istiqboi reialarini rivojlantirish g'oyalarini ongli ravishda qabul qilish, ta'lim muassasasi ma'muriyatining obro'-e'tibori, yutuq va kamchiliklarini o'zini deb bilish, jamiyatimiz tomonidan ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni ta'lim muassasasi hayotiga tatbiq etish, ta'lim muassasalarida zamonaviy talablar darajasida integratsion yangiliklarni, axborot texnologiyalarini joriy etishga intilish, sog'lom turmush tarzini yaratishga urinishda, bolalarga mehr qo'yib ular bilan ishlash istagida va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Ta'lim muassasasiga qiziqish bilan bog'lanib qolishlik ishga kirishuvchanlikni, mehnat faolligini oshirishni, o'z kasbiga sadoqatli bo'lishni, qiziqishni talab etadi. Ayniqsa, faollik-bu o'qituvchining atrof-muhit bilan hayotiy muhim aloqalarini ijodiy yo'naltirish yoki o'zgartirishni amalga oshiruvchi xususiy dinamikasidir. O'qituvchining faolligi uning subyektivligi ifodasi sifatida ikki yo'nalishda olib boriladi: me'yoriy holatlarni yuzaga keltiruvchi jamiyatimiz talablariga tez moslashuvchanligi (adaptivlik), har qanday salbiy, ziddiyatli holatlardan chiqishda, qiyinchiliklarni mustaqil ravishda o'zi engishida, o'z tajribasiga va bilimlariga tayangan holda yangiliklar yarata olish imkoniyatini beruvchi kreativligida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining ijodkoriigi va mehnatda faolliigi. Ijodkorlik-o'qituvchining o'z mehnati jarayonida mustaqil faoliyat olib borishi. Kasbiy faoliyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatlari o'qituvchining ijodkorligida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik-bu o'qituvchining ta'lim va tarbiya jarayonida sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror ilmiy yangilikni paydo qiluvchi faoliyatidir.

O'qituvchining mahsuldor ijodkorligida belgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi, ijod qilishga layoqati bo'lgan o'qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlar namoyon bo'ladi.

O'qituvchining evristik ijodkorligi, jahonda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatiga oid yangiliklarni dadil o'zlashtirish va targ'ib qilishni anglatadi, ya'ni uning asosida g'oyalar (farazlar) hosil qilish jarayonini intensivikasiya qilish va ularning haqiqatga yaqinligini (ehtimolligini, ishonchliligini) izchil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi.

O'qituvchining kreativ ijodkorligida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi nazariyalarni yaratish mujassamlashgan, u o'zining mustaqil g'oyalari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o'qituvchilargina bunga erishishi mumkin.

Yevropalik sotsiologlar o'qituvchining mehnatdagi ijobiy holatlarini "oqimni his qilish", ya'ni o'z faoliyatiga to'liq kirishib ketish va faoliyat jarayonidan qoniqish hosil qilish deb atashadi, bu esa o'z navbatida o'qituvchining yuqori ichki refleksiv holati kuchli bo'lishi haqida guvohlik beradi. O'z kasbi jarayonida ijodkorlikni va mehnatidan qoniqishni his qilmaydigan o'qituvchilarning mehnat faoliyati ko'pincha harakatsizlikka, asablarining tez charchashiga va g'ashlikka olib keladi.

Mehnatda faollik-bu o'qituvchining mehnat sohasida olib boradigan mustaqil harakatidir. Pedagog mehnat faolligining o'ziga xos tomoni-o'qituvchining ta'lim va tarbiyaviy faolligini oshirishga qaratilganligida namoyon bo'ladi. Bunda o'qituvchi faqat o'z fanini puxta bilishi yetarli bo'lmasdan, pedagogik-psixologik malaka va ko'nikmalarni, ta'lim va tarbiyaviy texnologiyalarning keng spektrini, har qanday pedagogik vaziyatlarni hal qilishda mustaqil faoliyat olib borishni unutmasligi kerak. Bu talablar pedagog mehnatining muhim o'ziga xos tomonini tashkil qiladi. O'qituvchi doimo o'zining boy bilimi va tajribalari asosida yig'ilgan shaxsiy pedagogik resurslariga tayanib butun o'qituvchilik faoliyati davomida mehnat qiladi. U ta'lim va tarbiyada o'ziga yoqqan metodlarni, vosita va usullarni tanlaydi, yangilikka intiladi. Barcha pedagogika oliy o'quv yurti talabalari buni yetarlicha aniq tushunishadi. Agar birinchi kurs talabalarining 59 foizi o'qituvchilik kasbini o'zining iste'dodi deb hisoblasa, to'rtinchi kursga kelganda bunday talabalar soni 2,5 barobarga kamayadi.

Sinf jamoasining psixologik o'zgaruvchan tarkibi, jamoa a'zolarining birlari bilan o'zaro munosabati, o'quvchilar ruhiy holatining xilma xilligi o'qituvchi mehnatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda sinf jamoasining xarakterini, psixologiyasini o'qituvchi o'zi xohlaganidek ijobiy tomonga rivojlantirishi, o'zgartirishi hamisha mumkin bo'lavermaydi. So'nggi yillarda o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishi, bilim olishga nisbatan passivligi sezilmoqda. Iqtidorli,

qobiliyatli o'quvchilarni to'liq mustaqil o'qish bilan band qilishda ba'zi o'qituvchilarning ojizligi noroziliklarga sabab bo'lmoqda. Bu muammo allaqachon ta'lim muassasalarida o'qituvchilar faoliyatiga tegishli bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik hodisa sifatida tan olingan. Ta'lim muassasalari oldida turgan ushbu muammolar, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning bajarilishiga to'sqinlik qilmasligi uchun ta'lim va tarbiyaning asosiy ijrochisi: bo'lgan o'qituvchining mehnat faolligini oshirish, ijodkorligini hozirgi zamon talablari darajasida yanada kuchaytirish lozim.

Ko'p yillik ilmiy tadqiqotlar natijasida o'qituvchining o'rtacha yoshiga nisbatan mehnat layoqatini oshirishda quyidagi holatlarga jiddiy e'tibor berish lozimligi aniqlandi:

1. Mehnatga nisbatan faollikning bir xil sikldagi xususiyati, mehnat va dam olish tartibining o'zgarmasligi.
2. Mehnatga layoqatlilik darajasi, o'z kasbini mukammal egallagan o'qituvchilarning ishlash dinamikasi.
3. Mehnat unumdorligini pedagogik tajribalar asosida uzluksiz oshirib borishi.
4. Mehnat jarayonida yuzaga keladigan turli holatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni funksional qulaylik, ruhiy charchash, ruhiy zo'riqish, his-tuyg'ularga berilish, bir xil o'zgaraydigan faoliyat, doimiy xavotir, loqaydlik holati tez-tez tashxis qilinishi lozim.
5. Mehnatda reproduktivlikning va ijodkorlikning o'zaro munosabati, me'yordan ortiq ishlash darajasi, ijodkorlikda "tavakkal"ning mavjudligi.
6. Mehnat unumdorligini oshirishda mustaqil intilishning o'ziga xos xususiyatlari.
7. Ichki va tashqi cheklanishlarni, qarama qarshiliklarni yengib o'tish, irodaning mustahkamligi, o'z mehnati natijalarini oldindan ko'ra bilish. mumkin bo'lmagan holatlarda faollikning o'zgarishi.
8. Innovatsiyalarning mavjudligi (faollikning yangi shakllarini o'zlashtirish).

Mehnat faolligini oshiruvchi omillar orasiga, mehnatga ijobiy munosabatda bo'lish, kasbiy jarayon yoki mehnat turiga qiziqish, ko'p holatlarda shaxsning qadriyatlarga nisbatan munosabatiga bog'liq bo'lgan uning onglilik darajasi ham kiradi.

O'qituvchi mehnati asosida ma'naviy dunyosini va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabatini takomillashtirish

O'qituvchi mehnati faolligining unumdorligini oshiruvchi xususiyatlar, uning mehnatga erkin va ijobiy munosabatda bo'lishi, pedagoglik kasbi bilan bog'liq boigan barcha mehnat turlariga qiziqishi, o'qituvchi ma'naviy dunyosining boyligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga boigan munosabati va onglilik darajasi bilan ham belgilanadi. Hozirgi zamon sotsiologik tadqiqotlarida o'qituvchilarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga nisbatan qiziqishlariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda, chunki har qanday jamiyatda belgilangan me'yoriy qonuniyatlar tizimi bo'lib, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar yetakchilik qiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shunday izohlaydi: "Xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala,

balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz. Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik..., bu tushunchalar kimdir shunchaki o'ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so'zlar emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ongu shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasidir ”.

Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida bilim umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishning kaliti ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ilm-ma'rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. *“Ilmning foydasi ochko'zlik bilan oltin kumush to'plash uchun bo'lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo'lishdir”* deb yozadi alloma. (Abu Rayhon Beruniy.: O'ylar, hikmatlar, naqlar, she'rlar, 44—bet).

O'qituvchi qanday umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishi mumkin, tadqiqotlarimiz jarayonida o'qituvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qildik: *“Shaxsan Siz dars jarayonida o'quvchilarga qanday nasihat qilgan bo'lardingiz?”*. *“Nasihatlar”*ning asosiy mazmuni noaniq, ularda pedagogning individualligi va mavzuni tez tanlash intuitsiyasi sezilmasdi. Dars jarayonida o'qituvchi doimo mazmunan bir xil nasihatlar beradi. Ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

- sidqidildan o'qish zarurligini eslatish;
- mehnatsevarlikka undash, vijdoniylikka chaqirish;
- barkamol shaxs sifatida shakllanish zarurligi haqida eslatish;
- insoniylikni yo'qotmaslikka chaqirish.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining pedagogik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi umumbashariy qadriyatlar o'qituvchining qizg'in mehnati evaziga shakllanib boradi va quyidagi muammolar o'qituvchi uchun bugungi kunda ham eng muhim ahamiyatga ega:

- o'qituvchi mehnatida jamiyatga xos umumbashariy qadriyatlarni o'z maqsadlarining asosi deb bilishi;
- o'qituvchi mehnatida maqsadli qadriyatlarni samarali uzatish istagining mavjudligi va imkoniyatlari;
- o'quvchilar maqsadli qadriyatlarni qabul qilishi uchun o'qituvchi tomonidan zarur shart-sharoitlarning yaratilishi.

Bunday yo'naltirilganlik mazmunida jamiyatning ta'lim sohasida olib borayotgan islohotlari mazmuni va mohiyati ifodalangan. Shuning uchun o'qituvchi mehnatining mohiyatida uning ma'naviy saviyasini ko'rsatadigan intellektual ong, yuksak ma'naviyat, asriy an'analarga va umumbashariy qadriyatlarga tayanadigan, zamonning ilg'or yutuqlaridan oziqlanadigan milliy dunyoqarash va e'tiqod kabi mezonlar mavjud bo'lishi kerak.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. O'qituvchi mehnati respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan qanday ta'riflangan?
1. O'qituvchi mehnatida pedagogik mahoratning asosiy komponentlari nimalardan iborat?

2. O'qituvchi o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil etishi uchun nimalarni bilishi shart?
3. O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan tashkil etish vositalariga ta'rif bering?
4. Yosh o'qituvchilar mehnatini tashkil etishda qanday boshlang'ich yo'nalishlarni bilishi kerak?
5. O'qituvchi mehnatini to'g'ri tashkil etishda uning "Kun tartibi" qanday ahamiyatga ega?
6. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish qanday tamoyillar asosida takomillashtiriladi?
7. O'qituvchi qanday umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilishi lozim?
8. O'qituvchining obyektiv shaxsiy xususiyatlari qanday omillarni o'zida niujassamlashtiradi?
9. O'qituvchi mehnatida iqtidor va qobiliyatning o'rne nimalardan iborat?
10. O'qituvchi o'z mehnati faoliyatida kasbiy turg'unlikning ta'siri haqida o'z fikringizni bildiring?
11. Pedagog olimlar tomonidan e'tirof etilgan pedagogik qadriyatlarga o'z munosabatingizni bildiring?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2009.- 176 b.
2. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov.- To'ldirilgan 2-nashri.-T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi", 2000.-248 b.
3. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: "Sharq", 1997.-63 b.
4. "Barkamol avlod yili" davlat dasturi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Adolat" gazetasi, 2010 yil, 29 yanvar.
5. Коджаспирова Г.М. Теория и практика профессионального педагогического самообразования,- М.: МГОПИ, Алфа, 1993,- 120с.
6. Кузмина Н.В. Способности, одаренность, талант учителя. Л.: Знанийе, 1985,- 32 с.
7. Кухарев Н.В. На пути к профессиональному совершенству: Книга для учителя.- М.: Просвещения, 1990.- 159 с.
8. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. — T.: O'qituvchi, 1996.-192 b.
9. Ochilov M. Muallim qalb me'mori: Saylanma.-T.: O'qituvchi, 2000.
10. Раченко И.П. Диагностика развития педагогического творчества учителя.- Пятигорск, 1992,- 196 с.
11. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat.-T.: Nizomiy nomli TDPU, 2005,- 149 b.

15-MAVZU:SHAXSIY PEDAGOGIK TAJRIBANI TO'PLASH TIZIMI

R E J A:

1. Pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy tamoyillari. Pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati.
2. Pedagogik faoliyatda maqsadning qo'yilishi, uning izchilligi. Pedagogik faoliyatni rejalashtirish.

3. Ta'lim jarayonida o'z-o'zini boshqarish. O'z o'ziga ta'lim-tarbiya berishda ilg'or o'qituvchilarning usul va uslublaridan foydalanish.
4. Pedagogik mahoratni takomillashtirishda shaxsiy pedagogik ilmiy izlanish.
5. Umumiy o'rta ta'limni standartlashtirish. Davlat ta'lim standartining mazmuni.

Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Hozirgi sharoitda ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga etishish, o'qituvchilarning xilma-xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqloli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Uzluksiz pedagogik ta'lim g'oyasi amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan o'qituvchilar malakasini ishirish va ularni qayta tayyorlash ishi davlat va jamoatchilik diqqat markaziga qo'yildi.

O'qituvchilik sharaflidir, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o'qituvchi bo'lishi uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina etarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar umumlashtirilgan, usuliy g'oyalar bayon etiladi. O'qituvchilarning yosh individlarga xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi.

Maktab hayoti amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Shuning uchun ham mustaqil O'zbekiston davlatining umumiy ta'lim maktabida ishlaydigan o'qituvchi

- pedagogik faoliyatga qobiliyatli ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol;
- O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan e'tiqodli fuqaro;
- ixtisosga doir bilimlarni, psixologik pedagogik bilim va mahoratli shuningdek, nazariy ishlarni mukammal egallagan bo'lishi kerak.

Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar jo bo'lishi kerak. Pedagogik o'qituvchilik faoliyatini yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, ota-onalar va bolalarni izzat-hurmatiga sazovor bo'lishi uchun ham kishida qobiliyat, mahorat, qiziqish bo'lmog'i lozim.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

Yuksak mahoratli o'qituvchi uchun eng avvalo qobiliyatli, malakali va uddaburo bo'lishi kerak. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa iste'dod layoqat va zehn, ya'ni inson nerv tizimida anatomik fiziologik xususiyat ham bo'lishi zarur.

Mahoratli o'qituvchi dars materialini bayon etish jarayonida o'quvchilarning qator belgilar asosida payqab oladi va zarur hollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi. SHuningdek o'qituvchi o'quvchilarni savodli o'zlashtirishlari uchun zamin tayyorlab, ularni dam olishdan ishga o'tishlari, bo'shashish, lanjlik, layoqatlariga barham berish uchun vaqt ajratish zarurligini hisobga oladi. U tegishli vaziyat yuzaga kelgunga qadar ish boshlamaydi. Masalan darsning haddan tashqari zo'riqish bilan va kuchli boshlanishi o'quvchilarg munozara qiluvchi tormozlanish deb atalmish holatga sabab bo'ladi. Miya faoliyati tumanlashadi va o'qituvchining so'zlari etarli darajada idrok qilinmaydi.

Tarbiya jarayonida pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati o'quvchiga u yoki bu yuksak axloqiy fazilatlarning mohiyatini anglatish jarayonida qo'llaniladigan o'qituvchining ish usullaridan biridir. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng samarali usullaridan ertaklar, dostonlar, she'rlar, maqollar aytishdir. Masalan: "Ota o'zining 10 yashar o'g'li bilan daladan qaytayotib, yo'l ustida tushib yotgan bir taqani ko'radi va unga deydi:-Taqani ol. - Eski taqa uchun egilib o'tiramanmi-deb gap qaytaradi o'g'li. Otasi indamasdan o'zi egilib taqani oladida, yo'lida davom etadi. Kun issiq edi. Bola chanqay boshladi. Bir oz yo'l yurgandan keyin olcha sotib o'tirgan baqqol ko'rinadi. Otasi boyagi taqani olchaga almashtirib belbog'iga tugib oladi. O'g'liga ko'z-ko'z qilib bir dona olchani og'ziga tashladi-da, bir donasini yerga tashladi. O'g'li darrov egilib olchani oladi va chanqoqini bostirmoqchi bo'lib og'ziga soladi. Otasi olchani ketma - ket tashlaydi. O'g'li 10-15 marta egilib olchalarni terib olib egandan so'ng nihoyat otasi to'xtaydi va belbog'ida qolgan olchalarni o'g'liga uzata turib deydi: "Ko'rdingmi o'glim, sen taqani ko'tarib olish uchun bir marta egilishga eringan eding, olchalarni terib olish uchun 10-15 marta egilding, agar yengil mehnat og'ir deb hisoblasang, undan battar og'iriga duch kelasan!"

Bu ertakning pedagogik ta'sirning salbiy va ijobiy ko'rinishlarini bolalarga izohlashda o'qituvchi quyidagi savollar orqali tarbiyaviy mahorat bilan aniqlanadi:

- Otaning talabi to'g'rimi yoki yo'qmi? Sababini ochib bering.
- Otaning bolaga mehnatdan bosh tortmasligi uchun tutgan ishi to'grimi?
- Bolaga dastlab o'z harakati bilan o'rnak bo'lib, so'ng xatosini tushuntiradi.

Bu borada sizning fikr-mulohazalaringiz qanday?

Tarbiya jarayonida tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning quyidagi usullaridan foydalaniladi: bolaga qo'yilgan talab, pedagogik ta'sir ko'rsatish, o'kuv tarbiya jarayonida o'qituvchi o'z maqsadiga erishish uchun doimo o'quvchilarga o'z talablari bilan yondoshadi. Ularni rag'batlantiradi, ogohlantiradi, tanbeh beradi.

O'qituvchining pedagogik asosda quyilgan talablarni tushuntirish nojuya harakatlardan bolalarni saqlash, ayniqsa kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini maktab va jamoada moslashguncha ketma-ket talablar quyiladi. YUqoridagi talablarning qanchalik ta'sir etishi tarbiyachining pedagogik mahorati va obruyiga bog'liqdir. talablarning qo'yilish shakllari:

•Tarbiyachi tomonidan talabni to'ppa-to'gri qo'yilishi. Bunday talab bolalar jamoasi bilan ishlashning dastlabki bosqichidir. ulug' pedagog A.S.Makarenko "samimiy, oshkora, ishonarli, qizg'in va qat'iy talab bo'lmasa jamoani

tarbiyalashni boshlab bo'lmaydi" degan edi. Bunday talablar jamoani bir maqsad yuliga boshlash uchun;

- talabni ijobiy va bolani hatti-harakatlariga to'sqinlik qilmasligi;
- talab aniq va tushunarli bo'lishi;
- qo'yilgan talab va vazifalarni natijasini bilish;
- talab ochiq chehra, samimiy, bir ohangda berilishi, iltimos maslahat yaxshi niyatga chorlash;
- talab bolalarning yoshi, bilim saviyaiga mos bo'lishi;
- talablarda kesatish, luqma, minnat qilish bo'lmasligi va boshqalar.

Kishilik jamoasi paydo bo'lgan davrdan boshlab inson hech qachon yolg'iz yashay olmagan. Jamoani tashkil qilishi va uning tarbiyaviy ta'sirini nazariy va amaliy asoslari, mutafakkir va olimlar tomonidan o'rganib, ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Tarbiyachining navbatdagi vazifasi bolalar jamoasini tashkil qilish, tarbiyalash va jipslashtirish borasidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib, ilg'or tajribalarga suyanib o'quvchilarni tarbiyaviy jarayonda o'rtoqlik, do'stlik, o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, o'z-o'zini tarbiyalash mahoratini o'zlashtirishdan iborat. Ular:

- sinf boshlang'ich jamosini tarbiyalash va ularda o'zaro munosabat aloqalarini yaratish;
- o'quvchilar kundalik faoliyatlarini hamma qirralari jamoada jipslashtirish;
- shaxsiy manfaatdan jamoa manfaatini yuqori qo'yishga o'rgatish;
- jamoada bir-biriga mehr oqibatli. muruvvat va saxiylik, do'stona hamkorlik mavjud bo'lsa, u katta tarbiyaviy kuchga aylandi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilar jamoalari tashkil qilishda o'qituvchidan turli tuman vositalardan mahorat bilan foydalanish talab qilinadi.

1. O'qituvchi jamoa a'zolarini yangi sharoitga moslashuv darsida ularga ishonch, hurmat, xushmuomalalik talablarini to'g'ri qo'ya bilish bilan birga o'qituvchini tushunish va eshita bilish mahoratiga ega bo'lishi kerak.
2. O'quvchilar jamosaida etakchi kuch tayanch o'zagini tanlash.
3. Jamoa a'zolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish.
4. Jamoada yangi an'ana, qonun qoidalarni dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish.
5. Jamoa istikbolini davr talabi bilan moslashgan holda belgilash talab qilinadi.

*Kishikim bo'lsa donishmand oqil
Bular ilm va hunarla ko'ngli moyil.*

Furqat.

har bir o'qituvchi pedagogik faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta'lim-tarbiyasini yanada samarali chiqishi uchun u o'z ustida muttasil ishlashi, bilimini, mahoratini o'stirishi kerak. O'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarni puxta o'ylab ularning ko'ngliga ozor yetkazmasdan ish olib borishi kerak. Muomala madaniyati o'zini tuta bilishini nazorat qilishi kerak. har bir tarbiyachining dunyoqarashi uning muomalaidan namoyon bo'ladi. Muomalaning sosiy vositasi

tildir. Xalqimizdan shunday naql bor: "Bola shirin so'zning gadosi". Bas shunday ekan tarbiyachi muomilasida juda ehtiyotkor bo'lishi kerak. A.Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahorati haqida shunday deydi: "Shirin so'z kungillar uchun bamisli asaldir".

Yana bi haqda husayn Voiz Koshifiy shunday deydi: "Nasihatli shirin so'z-u muloyimlik birla ibtido qilday, chunki bu zamonda yumshoqlik va xushruylik ko'rgazmayin nasihat korga kelmas".

Davlat ta'lim standartlarining muhim darajasi bo'lgan eksperimental tayanch o'quv rejasi va dasturlar har tomonlama puxta o'rganilishi zarur. Ushbu dastur va rejani yaratishda mamlakatimizdagi fan texnika ijtimoiy iqtisodiy sohalaridagi rivojlanishlar hisobga olingan. Unda avvalo o'quvchilarni psixologik fiziologik xususiyatlariga muhim o'rin berilgan.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari umumta'lim maktablari oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya mazmunini qaytadan mukammal ishlab chiqishlari lozim.

- ta'lim tarbiya shakllari usuli vositalarini jahon andozasi talablariga mos holda rivojlantirish;

- ta'lim madaniy-ma'rifiy muassasalarini yangi texnika va texnologiya asosida zamonaviy jihozlash;

- o'qituvchi murabbiylar ijodkorligini ta'minlash kasb mahoratlarini oshirishning samarali yo'llarini topish;

- oila, mahalla, maktabda ta'lim-tarbiya mazmunini mukammal ishlab chiqish amaliyotiga keng tadbiriq etish.

Shunday qilib o'qituvchining mehnatini ilmiy tashkil etish, davlatning bu haqdagi g'amxo'rliqi, barkamol avlodni tarbiyalashdek muqaddas vazifasini yorug' yuz bilan ado etish uchun kuchli turtki bo'ladi.

*Kishikim hayotdan olmasa ta'lim
Unga o'rgata olmas hech bir muallim.*

Buyuk kelajak taraqqiyoti tomon odim otayotgan mamlakatimizda kadrlar masalasi yosh avlod tarbiyasi birinchi o'rindagi muhim masalalar qatorida turibdi. Zeroki O'zbekiston ravnaqi kelajagi shu yoshlar, ya'ni kadrlar qo'lida ekan, jamiki e'tibor ularni hur fikrli bo'lishi, jahon ta'lim standartlariga mos kela oladigan ta'lim olishi buyuk kelajak uchun qo'yilayotgan mustahkam poydevordir. Jumladan, 1997 yil 27 avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'limni yana bir pag'ona ildamlatdi, desak xato qilmagan bo'lamiz. CHunki zamonaviy ta'lim olishning o'zi har bir yosh avlodga katta-katta mas'uliyatlar yuklaydi. Zeroki ta'lim tarbiya jarayoni shaxsini har tomonlama kamol toptirish, yuksak g'oyali, milliy g'ururli chuqur ma'lumotli, ma'naviy va jismoniy etuk qilib etishtirish maqsadini ko'zda tutadi va o'z ishlarini shu nuqtai nazardan yo'lga qo'yadi. Prezidentimiz mustaqillikning dastlabki yillarida-yoq mamlakaimizda yosh avlodni tarbiyalash, hayotda o'z o'rnini topish, demokratik davlat qurish vazifalariga bo'ysundirilishi lozim ekanligini uqtirib o'tgandi. Bugungi kunda zamonaviy ta'limni turli usullarda amalga oshirish

mumkin. Bularning barida butun mas'uliyat o'qituvchiga yuklatilmasdan o'quvchidan ham o'z-o'zini boshqarish talab etilmoqda.

O'qitish tizimida o'z-o'zini boshqarishning zarurligi, eng avvalo, butun o'quv yurtlari tizimining samarali, puxta ishlab chiqilganligidan dalolat beradi. Chunki o'z-o'zini boshqarish tufayli o'qitishdagi o'zaro munosabat o'qitishning borishini jadal boshqarish va kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatish keyingi darsga zamin va imkon yaratadi. O'z-o'zini boshqarish biz mustaqil ish jarayonlarida turli xildagi tadbirlar uyushtirish va o'tkazishda, tarbiyaviy soat darslarida ko'rishimiz mumkin. O'z-o'zini boshqarish mohiyati o'quvchilarda birinchi o'rinda o'zini mustaqil his qilishi va o'zi ko'proq darsni qabul qilishidan iborat. Agar o'qituvchi o'quvchilarga ma'lum bir mavzuni o'zlashtirishga qiziqtirib borsa o'qituvchi mavqei nima bilan o'lchanishini bilamiz. Uning mavqei o'z kasbiga muhabbati, o'quvchilariga nisbatan talabchanligi, o'kuv dasturi va darsliklardan to'g'ri foydalana bilishi, shuning bilan bir qatorda o'z ustida tinmay izlanib, o'z-o'zini tarbiyalashi bilan ulchanadi. Kelajagimiz yoshlar qo'lida ekan biz o'qituvchilar ana shu yoshlarni chin inson bo'lib etishishlari uchun qo'limizdan kelgan barcha mahoratimizni ishga solmog'imiz kerak.

O'qituvchilik nihoyatda mas'uliyatli kasb, Bu esa ko'proq o'z ustida ishlash, tajriba almashish, darsga tayyorgarlikni takomillashtirishga da'vat etadi. O'qituvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashlarida matbuot sahifalari bilan tanishishi ilg'or o'qituvchilarning tajribalariga suyangan holda dars tahlillarida qatnashishi, kollektivdagi kasbdoshlari bilan uslub almashish yuqori samara beradi.

O'qituvchi mehnatda, xulq-atvorda tirishqoqlik qilib, o'z imkoniyatlarini ishga solishi, o'ziga majburiyat olishi, o'zini nazorat qilishi, o'ziga-o'zi hisob berishi, o'ziga o'zi baho berishi singari o'z-o'zini tarbiyalashning elementlarini shakllantirib borishi lozim.

O'qituvchilarning toifalari ham har xil, ilmiy dunyoqarashlari, tajribasi ham turlicha bo'ladi. Demak, yosh o'qituvchilar mana shu har xil toifa o'qituvchlarning tajribalaridan, uslublaridan unumli foydalanishlari mumkin. O'qituvchilarni esa quyidagicha toifalashtirish maqsadga muvofiq:

Ijodkor o'qituvchi o'z kasbini sevadi, qobiliyatli, mahorati etarli, bilimdon, pedagogik psixologiya fanlarining rivojiga hissa qo'shuvchi o'quv dasturi, darsliklardan, ko'rgazmali qurollardan unumli foydalanish bilan larni takomillashtirish uchun yangi fikrlar bilan boyitadi. O'z tajribasi asosida maqolalar, metodik qo'llanmalar, darsliklar yozadi, ijod qiladi, o'ylanadi. Bunday o'qituvchilarning darsi namunali, o'quvchilari bilimli bo'ladi. Ularning darslarini kuzatuvchilar esa juda katta ma'naviy ozuqa oladilar hamda o'tilgan darslarni yuqori baholaydilar.

Tashabbuskor o'qituvchi-o'quv dasturi, darslik va metodik qo'llanmalarni talab darajasida amalga oshiradi. Ko'rgazmali qurollar yasaydi, texnik vositalaridan, ilg'or tajribalardan foydalanib, ularni hayotga tatbiq etishda tashabbus ko'rsatadi. Maktabdagi ta'lim tarbiya ishlarida o'z tashabbusi bilan maktab rahbarligiga yordam beradi. U doimo izlanuvchan, yangiliklar yaratuvchi hisoblanadi.

Ilg'or o'qituvchi-o'qitish va tarbiyalash usullarini mukammal egallagan, dars jarayonida o'quv dasturi, darslik va metodik qullanmalarni to'liq amalga oshiradi. Darsga qo'yilgan talablar, uning maqsad va vazifasini namunali bajaradigan o'quvchilarga puxta bilim va tarbiya bera oladigan, bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, eng yaxshi natijalarga erishuvchidir. Dars vaqtni to'g'ri taqsimlovchi, bir daqiqa vaqtning qadriga etuvchi, dars jarayonida o'quv dasturi qodalarini bajara oladigan qobiliyatga ega bo'ladi. Maktabning hamma ishlarida ilg'orlikka intiluvchan hisoblanadi.

Fidoyi o'qituvchi-kasbini sevgan, irodali, qiyinchiliklarga brdosh beradi, o'quvchilar bilan ishlash qobiliyatini mukammal egallagan. U hech qachon nolimaydi, hech kimni yomon demaydi, tinch osoyishtalik bilan o'tgan mazmunli kunllariga shukronalar aytadi. Bunday o'qituvchi o'quvchilarga namuna bo'ladi.

Oddiy o'qituvchi madaniyati, ko'rinishi ham, o'quvchi va odamlar bilan muomalasi ham oddiy dars jarayonida o'quv dasturi, darslik mazmunini oddiy va sodda holda tushuntirishga harakat qiluvchidir. har qaysi o'quvchi mavzuni yaxshi tushunayapti deb ishonuvchan, darsda vaqti-vaqti bilan "Tushundingizmi?", "Yaxshi" so'zlarini ishlatuvchi, ishonuvchan shaxs. Ta'lim-tarbiya ishida kim nimani taklif etsa unga ishonib, bajarishga harakat qiluvchi, o'zicha biror bir yangilik haqid o'ylamaydi, yangicha takliflar aytmaydi, izlanmaydi, eshitgan o'zi ko'rgan tajribalar asosida dars o'tkazaveradi.

Mutaxassisligi boshqa o'qituvchilarimiz ham bor. O'zi fizika, matematikadan dars beradi, tarixchi geografiyadan, tarixchi adabiyotdan, adabiyotchi boshqa bir fandan dars utmoqda. Yaxshi qobiliyatli, mahorati bor umumiy pedagogikada bilimi bo'lsa-yu, sharoitini hisobga olib boshqa fanlarni o'qitishga ruxsat berilgan. Lekin xalq ta'limi bo'limi xodimlari, maktab rahbarlari bunday o'qituvchilarningish faoliyatini nazorat qilishlari, ularga metodik jihatdan maslahat va yo'l yo'riqlar ko'rsatishlari shart.

Insonning sog'lom va baquvvat bo'lib tarbiya topishida buyuk mutafakkirlarimizning ugitalari muhim o'rin kasb etadi. Jumladan, A.Navoiy o'qituvchining talabchan, xushmuomala bo'lishiga undagani, amma har ikkalasida ham ma'lum me'yorni bilish zarurligini uqtiradi. tarbiya haqida gapirar ekan, "Qobiliyatlini trbiya qilmaslik zulmdir va qobiliyatsizga tarbiya xayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma, shunga tarbiyangni nobud qilma" deydi.

A.Navoiy tarbiyada insonning o'z-o'zini tarbiyalshga xato va kamchiliklarining anglab tuzatishga e'tibor beradi. YAngilish va yangilishni anglab ogohlangan kishi baxtli kishidir deydi. Navoiy ta'lim tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiyaviy jarayonlarni, vositalarni, talablarni ko'rsatadi. U ta'limda ilmiylikka asoslangan, tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. O'z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. U o'qituvchi haqida gapirar ekan, muallim o'z shogirdlarini ham o'zi ta'lim berayotgan fanni ham sevgan bo'lishi zarur deydi. O'ziga nisbatan ham, o'quvchiga nisbatan ham talabchan bo'lishni uqtiradi.

Iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi barcha islohotlarimizning maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib borishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal

rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ruyobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi. (Karimov I.A. 1995 yil fevral' Oliy majlis birinchi sessiyasidagi ma'ruza).

Respublikamiz hukumati xalq ta'lim sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. YA'ni iqtisodiy siyosatga o'tish sharoitida ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish o'qituvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli va e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

Islahotlar davrida o'zining fidokorona mehnati bilan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash sifatini oshirishga katta hissa qo'shayotgan ijodkor o'qituvchilar soni ortib bormoqda.

Uzluksiz pedagogik ta'lim g'oyasi o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarining amalga oshirishi pedagogik mahoratni takomillashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi, shuningdek maxsus bilimlar va malakalar, bolalarni kuzatish, ularning o'sishidagi muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy ijtimoiy g'oyalar bilan taqqoslash, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli vositalar tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining o'zaro bir-biriga o'tishini tahlil qilish pedagogik izlanishlar va yutuqlarini ilmiy jihatdan bir sistemaga solish malakalari zarur bo'ladi.

O'qituvchi talabchan bo'lishi yaxshi va mehribon bo'lishi, sabrli, bosiq bo'lishi va o'z kasbiga nisbatan e'tiqodli bo'lishi lozim. Bolani butun qalbi bilan sevadigan o'qituvchi ko'proq tabassum qiladi, kamroq qovoq soladi, shu tariqa professional pedagog bolalarni bilim berish bilan birgalikda ayni vaqtda ularga o'z xarakterini bera oladi. Ularga odmiylik namunasi bo'lib ko'rinadi.

O'qituvchining kasbga oid mahoratlarini shakllantirishda pedagogik-psixologik nazariyalarning ahamiyati kattadir. Chunki ma'naviyatimiz shakllanishida o'z-o'ziga ega bo'lgan ulug' insonlar ya'ni o'qituvchilar faoliyati to'g'risida ularga qo'yilayotgan talablar ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar to'g'risidagi nazariyalar sharoitida asosiy mahorat manbai bo'lib xizmat qiladi.

Bizga ma'lumki, hayotimizning barcha sohalarida islohotlarni o'tkazish o'zbek modeli deb nom olgan islohotlar siyosatining asoslari bo'lmish besh tamoyilning birida islohotlarni bosqichma-bosqich o'tkazish vazifasi qo'yilgan. O'n yillik mustaqil hayotimiz bo' muhim tamoyil bizning sharoitimizda naqadar to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi.

Shuning uchun ham ta'lim tarbiya sohasida belgilanayotgan islohotlarni hayotga tadbiq qilishda ana shu prinsip islohotlarni bosqichma-bosqich o'tkazish prinsipi qo'yilgan. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 9 moddasi Ta'lim tizimi to'g'risida bulib, ushbu tizimning faoliyat ko'rsatishini va rivojlanishini ta'minlash uchn zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy pedagogik muassasalaridir.

Ushbu muassasalar faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsad ta'lim sohasida yangiliklarni targ'ib etish, ommalashtirish va shu asosda ta'lim tarbiya sohasida ijobiy natijalarga erishishdan iborat.

Pedagogik mahoratni takomillashtirishda shaxsiy pedagogik ilmiy izlanishni ahamiyati kattadir. Ijtimoiy faollik va fuqarolik burchini aniqlash o'qituvchi shaxsiga xos sifat, zero haqiqiy peagog to'la ma'nodagi jamoatchi bo'lib, bolalarga hayotda ijtimoiy faol holatda turmushining amaliy namunasini ko'rsatadi. O'qituvchi ishidagi muvaffaqiyatni kunlik faoliyatida kattalar va bolalar, ayrim guruh va yakka shaxslar bilan aloqaga kirisha olish qobiliyati ta'minlaydi.

Aloqalarda faoliyatda duch kelinadigan turli xil voqealarga pedagogik qoidalar nuqtai nazaridan emas, balki sharoitni hisobga olgan holda ijobiy hal etish talab etiladi.

Keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish, pedagogik ma'lumotni oshirishga intilish o'qituvchiga xos xususiyatlardan biridir.

Ilmiy pedagogik izlanishlarni baholash mezonlari to'g'risida fikr yuritilganda, avvalo, tadqiqotning zamonaviyligi, dolzarbligi undan ko'zlangan maqsad hamda natijalar nazarda tutiladi.

O'qituvchi shaxsining kasb sohasidagi xususiyatlari quyidagilardan iboratdir, ya'ni bolalarni sevish, ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevishi, ruhiy pedagogik ziyokorlik va kuzatuvchanlik: dilkashlik, talabchanlik, qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish kasbiy layokatlilik va boshqalar.

Samarali pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishni to'g'ri tashkil etish o'qituvchiga bolalar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchilarning aql idrokigagina emas, balki ularning his tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatish, samimiy munosabatda bo'lishga yordam beradi.

Amaliy pedagogik faoliyatda ilmiy g'oyalar va pedagogik tarbiyani qo'llash. O'qituvchi mehnatining o'ziga xosligi shundan iboratki bu mehnat natijalari darhol ko'rinmaydi. U o'zining ijod mahsulini ko'rish uchun yillab mehnat qilishi kerak. O'qituvchi faoliyatini o'rganish shuni kursatadiki, bu faoliyat o'zining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ham turlicha bo'ladi. haqiqiy fidoyi o'qituvchilar o'z faoliyatida eng yaxshi natijalarga erishadilar.

Pedagogik mehnatni tajribali o'qituvchilarning faoliyatini o'rganish, ular faoliyatidagi quyidagi xarakterli xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi.

1. O'qituvchining siyosiy qarashlari va e'tiqodining aniqligi hamda barqarorligi uning o'quvchilar oldida chinakam obru e'tibor qozonishining muhim shartidir.

2. Ular mamlakatning butun ijtimoiy hayotida aktiv ishtirok etadilar va ijtimoiy faoliyatni o'z ishlaridan ajratmaydilar. Shuningdek ijtimoiy faoliyat davomida egallagan tajribalarni maktabga olib keladilar. Bu faoliyatga o'z o'quvchilarini jalb qiladilar, ulardan ijtimoiy hayotda aktiv ishtirok etadigan kishilarni tarbiyalab etishtiradilar.

3. har bir o'quvchi shaxsiga katta qiziqish bilan qarab, barcha ishlarni o'qituvchilar jamoasi o'zlari tashkil etadilar.

4. Novator o'qituvchilar uz ishlarida yaqin kelajakdagi vazifalarnigina emas balki kelajakni o'ylab ish yuritadilar, o'qituvchilarni rivojlanishini loyihalashtiradilar.

5. Mohir o'qituvchilarning bolalarga bo'lgan munosabatlarning taqdiri haqida g'amxo'rliq qilish, o'z tarbiyalanuvchilarining kelajagi bilan qiziqish orqali xarakterlanadi.

6. O'qituvchi shaxsigahar tomonlama ta'sir ko'rsatish tufayli odatda mohir o'qituvchida orqaga qoluvchi o'quvchi bo'lmaydi.

7. Mohir o'qituvchilar ilg'or pedagogik tajribani hamma ta'lim va tarbiyaning nazariyasini datlab o'rganadilar. hamma yangiliklarni tushunib olishga o'z tajribalari bilan solishtirib kurishda ba'zilar o'z ishida tadbqiq qilishga biror narsalarni qayta qurishga harakat qiladilar.

O'qituvchining ijodkorligi o'quvchining ijodkorligini o'yg'otadi.

Dar haqiqat Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek: Farzandlarimizni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalayotgan, ularning qlbida oliyjanob fazilatlarini qaror toptirayotgan insonlar hamisha e'zozga loyiqdir.

hayot kashfiyotlar olami. Tajriba, uslub, fikrlar uyg'unligi tuganmasdir. u samarali mehnat natijasida isbot va dalillar orqali o'quvchilar qalbida kuchayadi, tuyg'ularga ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar muallimning faxri, kelajagidir. SHu bois ular niyati o'quvchilarni mustaqil yurt quruvchilari, muxandislari, ilmu-ma'rifat fidoyilari safida ko'rishdir. O'qituvchilarning eng birinchi maqsadi o'quvchsini tezroq savodli qilishdan iboratdir. Lekin uni amalga oshirish nihoyatda mashaqqatlidir.

har bir o'qituvchining o'z faoliyat tizimini ishlab chiqishi va unga qat'iy amal qilishi uning ta'lim sohasidagi muvaffaqiyatlarining muhim omillaridan biridir.

O'qituvchi shaxsiy faoliyati tizimini pishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor berishlari lozim. Bizga ma'lumki o'quvchilarning xarakteri xususiyati, ruhiy holati jihatdan uch toifaga bo'linadi.

1. Ota-onalar tomonidan barcha injiqlariga quloq solib, erka va tantiq qilib o'stirilgan, bularning aksariyatida tillari chuchukroq yoki nutqlarida kamchiliklar seziladi. Bu o'quvchilar hech narsaga sidqidildan yondoshmadilar. Bunday o'quvchilarga jiddiy munosabatda bo'linadi. Ba'zi yaxshiroq harakatlarini rag'batlantirib boriladi.

2. Qattiqqullik, kaltak va dakki tufayli haqoratlarga suyanib qolgan bolalar. Bu toifadagi o'quvchilarga mehr muhabbat bilan yondoshib samarali natijaga erishmoq mumkin.

3. Ota-onalar bolasiga jiddiy va talabchan bo'lishgan. Bunay o'quvchilar hozirjavob va tirishqoqlik bilan ajralib turadi. Ularga sinfdagi jamoa ishlarini ishonib topshiriladi, rag'batlantirib boriladi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiya natijalariga katta ta'sir ko'rstadi. Bolaga muhabbat hech qachon javobsiz qolmaydi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajasini belgilab beradi.

Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni shakllari, vazifalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. ta'lim mazmunnining uzagi hisoblangan standart vositasida mamlakat xududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshirildi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, xudud, maktab manfaatlari va vazifalari muvozanatini aks ettiradi hamda eng asosiy o'quvchi shaxsi. uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustivorligidan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunishidan qat'iy nazar barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartini ishlab chiqishda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi hujjatlar asos qilib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti quyidagi prinsiplarga tayangan holda ishlab chiqildi:

- davlat ta'lim standartining davlat va jamiyat talablariga shaxs ehtiyojiga mosligi;

- o'quv dasturlari mazmunnining jamiyat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan texnika rivojlanishi bilan bog'liqligi;

- umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligining va ta'lim mazmunining uzviyligi;

- umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

- ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

- umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vazifalari va usullarini tanlashda innovasiyalarga tayanish;

- pedagogik tafakkurda qaror topgan an'anaviy qarashlar bilan "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qonunlarida ifodalangan zamonaviy talablarning uzviyligi;

- ilg'or demokratik xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasidagi me'yorlarni belgilash tajribalarni milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yorlashda hamda maktabning moliyaviy faoliyatini belgilashda asos bo'ladigan davlat hujjatidir.

Tayanch o'quv rejasi o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga etkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmidagi miqdorini ifodalaydi. U har bir sinfda muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashda asos bo'ladi.